


Ibtido va Intiho

Muqaddas Kitob Asoslari

40 ta darsda



Rajab va Laylo Oydin




Ibtido va Intiho

Muqaddas Kitob Asoslari

40 ta darsda



Rajab va Laylo Oydin





Butun oila uchun bepul elektron kitoblar.
Istagan qurilmangizga o'z tilingizda yuklab
oling va o'qing.



KITABI-KNIGI.COM

Dastlabki nashri rus tilida: *Обзор Священного Писания: 40 уроков* nomli sarlavha ostida chop etilgan.

Авторы: Rajab va Laylo Oydin

© 2023 Alpha and Omega. Barcha huquqlari himoya ostida.
alphaomegasilkroad@gmail.com

© 2023 O'zbek tilida (Lotin yozuvida)
O'zbek tiliga tarjima. Mualliflik huquqlari himoya ostida.

Rasmlar

© 2023 Quyida berilgan sahifalardan tashqari barcha rasmlar muallifi: Jim. Mualliflik huquqlari himoya ostida..
The Good Book Company; sahifalar: 68, 69, 127, 128, 194, 195 va 196; © 2016 Muallif: Phil Crowter/The Good
Book Company Ltd. Muallif ruxsati bilan foydalanildi. Barcha huquqlari himoya ostida.

Barcha mualliflik huquqlari himoyalangan. Oyatlar Muqaddas Kitobdan olingan. Muqaddas Kitob © UZLBC 2016,
2018, 2020.

Kirish

Ushbu darslik Muqaddas Kitobning tarixiy voqealarini yaxshiroq o‘rganishingizga yordam beradigan 40 ta darsdan iborat.

Har bir darsda javob berishingiz kerak bo‘lgan bir qancha savollar mavjud. Har bir savoldan keyin qavs ichida raqamlar berilgan bo‘lib, bu raqamlar dars oxiridagi javoblar raqamini ko‘rsatadi. Berilgan javoblarga qarashdan oldin, savolga o‘zingiz javob berishga urinib ko‘ring!

Har bir darsda Muqaddas Kitobdan oyatlar bor. Agar ular **qora harflar** bilan ajratib yozilgan bo‘lsa, ularni topib o‘qish muhim. Agar ular qora harf bilan ajratilmagan bo‘lsa, ularni vaqtingiz bo‘lganida topib o‘qing.

Muqaddas Kitobdagi ushbu ajoyib tarixiy voqealarni o‘rganish va ularni boshqalar bilan baham ko‘rish sizga yoqadi deb umid qilaman va siz uchun ibodat qilaman!

1-dars:

Muqaddas Kalomdagi kitoblar



Bu dars uchun Muqaddas Kitobingizning boshidagi mundarija qismiga qarashingiz kerak.

Kirish

- **Muqaddas Kitob (Bibliya) kitoblar majmuasidir.** U jami 66 ta muqaddas bitikdan iborat bo'lib, ulardan 39 tasi Eski Ahd, 27 tasi esa Yangi Ahd kitoblaridir. Bu muqaddas bitiklar turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yozilgan. Ularning yozilish janrlari ham bir-biridan farq qiladi (masalan, tarixiy, she'riy va maktublar shaklida).

Muqaddas Kitob nechta kitobdan tashkil topgan? [1]

- **Muqaddas Kitob ikki qismga bo'linadi:** Eski Ahd va Yangi Ahd. «Ahd» so'zi «va'da, kelishuv» ma'nosini anglatadi. Eski Ahd davrida Xudo O'z xalqi bilan turli ahdlar tuzgan. Masalan, Ibrohim bilan, Nuh bilan, Sinay tog'ida Isroil xalqi bilan, hamda Dovud bilan ahd tuzgan. Biroq Yangi Ahddagi Xudo Iso Masihning qoni vositasida odamzod bilan yangi bir ahd tuzdi. Bu ahd Eski Ahd davridagi barcha ahdlardan a'lороqdir, chunki U Eski Ahddagi barcha va'dalarni amalga oshiradi.

Muqaddas Kitob qanday qismlarga bo'lingan? [2]

«Ahd» so'zi nimani anglatadi? [3]

- **Muqaddas Kitobning ikkala qismi ham Xudoning bizga bergen so'zlaridir.** Iso Masih davrida Muqaddas Bitiklar, ya'ni Eski Ahd kitoblari mavjud bo'lgan. Ibroniylar ularni «Muqaddas Yozuv» deb atashar va ma'badda o'qirdilar. Bu yozuvlarning Xudo Ruhidan ilhomlanib yozilganiga ishonardilar. Ammo havoriylar olamdan o'tgach, imonlilar Iso haqida yozilgan kitoblarni (Xushxabar kitoblarini) va havoriylar yozgan maktublarni to'pladilar. Havoriylarning hayotligi davrida ham, ular yozgan maktublar Xudo Ruhidan ilhomlanib yozilganini imonlilar bilardilar. (2-Butrus 3:15–16 ga qarang¹). Havoriy Pavlus Timo'tiyga shunday yozgan: «*Muqaddas bitiklarning hammasi ilohiy ilhom bilan yozilgan bo'lib, ta'lim va tanbeh berish, xatolarni tuzatish va solihlik yo'lida tarbiya berish uchun foydalidir*» (2-Tim 3:16).

¹ 2-Butrus 3:15–16 (Butrusning 2-maktubi 3-bobi 15–16-oyatlari).

Muqaddas Yozuvlarning qanday foydasi bor? [4]

Eski Ahd

Eski Ahd Xudoning qanday qilib olamni va odamzodni yaratgani hamda O'zi uchun bir **xalqni** tanlab olgani haqidadir. Eski Ahdda Xudo ajoyib va'dalar bergen va bu va'dalarning amalga oshganini Yangi Ahdda ko'rishimiz mumkin.

Eski Ahd tarkibida qonun kitoblari, tarixiy kitoblar, hikmatlar va payg'ambar kitoblari mavjud.

Tavrot

Kalomning dastlabki 5 ta kitobi Tavrot deb ataladi.

Tavrot — dunyo yaratilishidan boshlab, to Muso payg'ambarning o'limigacha bo'lgan voqealardan iborat. Shuningdek, Tavrot kitobi Xudoning xalqi va'da qilingan yerni egallab olish arafasigacha bo'lgan davrlardagi voqealarni ham o'z ichiga oladi.

Tavrot bizga quyidagilarni bayon etadi:

1. Xudo olamni yaratdi.
2. Odamlar gunoh qildilar.
3. Xudo barcha odamlarni yo'q qilish uchun to'fon yubordi, lekin U Nuhni va uning oilasini qutqarib qoldi.
4. Xudo Ibrohimni O'z xalqining otasi qilib tanladi; shu tariqa uning nasllari Xudoning tanlangan xalqi bo'ldi.
5. Xudo bu xalqni Muso orqali Misr qulligidan ozod qildi.
6. Sinay tog'ida Egamiz ular bilan shunday ahd tuzdi: Menga itoat qiling, shunda Men sizning Xudoyingiz, sizlar esa Mening xalqim bo'lasizlar.
7. Itoatsizligi bois Xudoning xalqi 40 yil sahroda darbadar kezishga majbur bo'ldi. Va 40 inchi yilning oxiriga kelib, Xudo ularni va'da qilingan yurtning chegarasiga olib keldi.
8. Muso yangi naslga Xudoning qonunlarini o'rgatdi.

Ibtido kitobi 12:1–7da Xudoning Ibrohimga bergen ajoyib va'dalarini o'qish mumkin. Muqaddas Kitob Xudoning ana shu va'dalarini qanday amalga oshirganini bayon etadi. Eski Ahdda esa ular faqat qisman amalga oshgan.

Xudo Ibrohimga nima berdi? [5]

Xudo xalqining tarixi: Yoshua kitobidan Ester kitobigacha

Eski Ahdda 12 ta tarix kitobi mavjud. Bu kitoblar Isroil xalqining va'da qilingan yerdagi tarixini bayon etadi. Xudo O'z xalqini boshqarish uchun hukmdorlar va shohlarni tayinladi, ammo ularning ko'plari Xudoga itoat qilishdan bosh tortdilar. Eng buyuk podshohlar Dovud va uning o'g'li Sulaymon edi. Ularning shohligi davrida go'yo Xudoning Ibrohimga bergen barcha va'dalari ro'yobga chiqqandek edi. Ammo keyinroq, Xudoning xalqi Unga itoat qilmay, begona xudolarga sajda qilishganini ko'ramiz.

Oxir-oqibatda Xudo ularni begona yurtlarga surgun qildi. 70 yil o'tgach, xalqning bir qismi va'da qilingan o'lkaza qaytib keldi.

Eng buyuk podshohlar kimlar edi? [6]

Xudo nima uchun bu **xalqni** begona yurtlarga surgun qildi? [7]

Hikmat kitoblari

5 kitobdan iborat: **Ayub, Zabur, Sulaymonning hikmatlari, Voiz va Qo'shiq**².

Ushbu kitoblarda imonlilar uchun hayot haqida hikmatli ta'limotlar mavjud. Ular bizga donolik berib, muvaffaqiyatli yashashga o'rgatadi.

Zabur sanolari Xudoga sajda qilish va ibodat qo'shiqlari to'plamidir. Xudoga duo qilishda va hamdu sano aytishda ulardan foydalanishimiz mumkin.

Bu 5 ta kitob bizga nimani o'rgatadi? [8]

Zaburning qanday foydasi bor? [9]

Payg'ambar kitoblari

Eski Ahdning qolgan 17 ta kitobi **payg'ambar kitoblari** sanaladi. Payg'ambarlar Xudoning elchilari bo'lgan.

Payg'ambar kitoblarini tushunish uchun tarix kitoblarini bilishimiz kerak. Payg'ambarlarning yozganlarini tushunish uchun esa, ularning qachon yozilganini bilishimiz kerak:

1. Ba'zi payg'ambarlar o'z bitiklarini Isroil shohlarining hukmronligi davrida yozganlar. Ular Xudoning xalqini, agar ular Xudoga qaytmasalar, Xudo ularni jazolashi haqida **ogohlantirgan**.
2. Ba'zi payg'ambarlar o'z kitoblarini surgunda bo'lgan vaqtlarida yozganlar. Ular **xalqqa tasalli berib**, Xudo ularni abadiy tark etmagani haqida aytganlar.
3. Yana ba'zilari o'z bitiklarini surgundan qaytib kelganlaridan keyin yozganlar. Ular xalqni **ruhlantirib**, Xudo ularni sharmandalikdan xalos qilishini karomat qilganlar.

Xudo payg'ambarlar orqali O'z xalqini ogohlantirgan, tasalli bergen va ruhlantirgan.

² Boshqa tarjimada «Sulaymonning go'zal qo'shig'i» deyilgan.

Payg‘ambar kitoblarini tushunish uchun nimani bilishimiz kerak? [10]

Xudo payg‘ambarlar orqali qanday 3 ta narsani qiladi? [11]

Yangi Ahd

Butun borliqning Yaratuvchisi — Xudoning O‘zi, komil inson qiyofasida dunyomizga kirib kelgani haqida Yangi Ahdda o‘qiyimiz. Iso — Xudo va’da qilgan Shoh, najot keltiruvchi Masihdir! Yangi Ahdda Eski Ahdda yozilgan barcha va’dalar Masih orqali amalga oshdi.

Boshqacha aytganda, Muqaddas Kitobda faqat bitta qahramon bor: U — Iso Masih.

Bizni Xudodan ajratib turgan gunoh muammomiz bor. Iso esa bu muammomizga samodan berilgan yechim bo‘ldi.

Iso bizning gunohlarimiz uchun qurbon bo‘lishga yuborilgan Xudoning O‘g‘lidir.

Muqaddas Kitobning bosh qahramoni kim? [12]

Yangi Ahd ham turli kitoblardan iborat.

Xushxabar kitoblari va Havoriyarning faoliyati

Birinchi navbatda tarixiy kitoblar o‘rin olgan.

Xushxabar kitoblari: Ilk to‘rtta kitob Isoning hayoti haqidagi tarixiy voqealarni bayon etadi (bu kitoblar Xushxabar yoki Injil deb ataladi). Uning hayoti haqida to‘rt kishi yozgan: **Matto, Mark, Luqo va Yuhanno**.

Keyin esa, **Havoriyarning faoliyatları** o‘rin olgan. Bu kitob Luqo tomonidan yozilgan bo‘lib, unda Xudoning yangi oilasi, ya‘ni imonlilar jamoatining tarixi bayon etiladi. Havoriyilar kitobi Masih haqidagi Xushxabarning qanday qilib ko‘plab boshqa o‘lkalarga tarqalgани haqida hikoya qiladi.

Yangi Ahdda nechta tarixiy kitob bor? [13]

Havoriyarning faoliyati kitobini kim yozgan? [14]

Maktublar

Havoriyarning faoliyati kitobidan keyin Butrus, Yuhanno, Pavlus va boshqa havoriyalar tomonidan yozilgan 21 ta maktub mavjud bo‘lib, ular Xushxabarni o‘rgatish hamda jamoatlarni ruhlantirish va xatolarini tuzatish maqsadida yozilgan.

Maktublarni kim yozgan? [15]

Vahiy

Injilning oxirgi kitobi **Vahiy**dir. Xudodan Yuhannoga kelgan bu vahiy bizlarga Isoning gunoh, o'lim va shayton ustidan g'olib kelganini ko'rsatadi! **Xudo** va **Uning xalqi** yangi yerda abadiy **birga** yashaydilar! Bu esa Xudoning Ibrohimga bergen va'dasining to'liq amalgalashidir.

Oxiratda kimlar birga yashaydilar? [16]

Amaliy vazifa

Agar bu mashg'ulotni ilgari hech qilmagan bo'lsangiz, har kuni Kalomdan bir parcha (bir necha oyat) o'qing. So'ngra o'zingizga quyidagi savollarni bering:

1. Bu parchada Xudo haqida (Ota, O'g'il, Muqaddas Ruh haqida) nima yozilgan?
2. Bu parchada insonlar haqida nima yozilgan?
3. Bu parchada itoat qilishim uchun biron bir amr, biron bir ogohlantirish yoki ibrat olishim uchun biron bir o'rnak bormi?
4. Xudo bu parcha orqali menga nimani o'rgatmoqchi?
5. Bu haqda kimga aytib bera olaman?

Javoblaringizni daftarga yozing.

Javoblar

- 1 – 66.
- 2 – Eski Ahd va Yangi Ahd.
- 3 – «Ahd» so‘zi «va’da, kelishuv» ma’nosini anglatadi.
- 4 – Muqaddas bitiklar ta’lim va tanbeh berish, xatolarni tuzatish va solihlik yo‘lida tarbiya berish uchun foydalidir.
- 5 – Ajoyib va’dalar.
- 6 – Dovud va uning o‘g‘li Sulaymon.
- 7 – Chunki Xudoning xalqi Unga itoat qilmay, begona xudolarga sajda qilganlar.
- 8 – Donolik beradi, muvaffaqiyatli yashashni o‘rgatadi.
- 9 – Ibodat qilishda va Xudoga hamdu sano aytishda ulardan foydalanishimiz mumkin.
- 10 – Ularning qachon yozilganini bilishimiz kerak.
- 11 – Xudo payg‘ambarlar orqali O‘z xalqini ogohlantirgan, tasalli bergen va ruhlantirgan.
- 12 – Iso Masih.
- 13 – 5 ta.
- 14 – Luqo.
- 15 – Butrus, Yuhanno, Pavlus va boshqa havoriyalar.
- 16 – Xudo va Uning xalqi.

2-dars:

Azalda



Ibtido 1:1–2:15 ni o'qing (Birinchi bobning birinchi oyatidan ikkinchi bobning o'n beshinchi oyatigacha o'qing).

Uchbirlik

Ibtido 1:1: *Xudo azalda osmon bilan yerni yaratdi.*

Xudo osmon bilan yerni yaratishidan oldin biron narsa mavjud edimi? [1]

Ibtido 1:3: *Xudo: «Yorug'lik bo'lsin», deb amr bergan edi, yorug'lik paydo bo'ldi.*

Xudo olamni qanday yaratgan? [2]

Yuhanno 1:1–3 ni o'qing. *Azalda Kalom bor edi. Kalom Xudo bilan birga edi, Kalom Xudo edi...*

Azalda Xudo bilan birga kim bor edi? [3]

Yuhanno 1:14–17 ni o'qing. «Kalom» kim? [4]

Ibtido 1:2: *Yer shaklsiz va bo'm-bo'sh bo'lib, tubsiz dengizlar ustini zulmat qoplagan edi. Xudoning Ruhi suvlar uzra yurardi.*

Kim suvlar uzra yurardi? [5]

Bunga ko'ra, Muqaddas Kitobning eng birinchi bobida Uchbirlikni ko'rish mumkin: Xudo, O'g'il (Kalom) va Muqaddas Ruh.

Ibtido 1:26–27 ni o'qing. Bu oyatlarda Xudo *O'z suratimizday, O'zimizga o'xshagan*, deb aytgani juda qiziq. Demak, bu shuni ko'rsatadiki, Xudo yagona, biroq boshqa nuqtayi nazardan yolg'iz emas.

Qonunlar 6:4 ni o'qing. *Egamiz Xudo tanho Egadir.*

Biz nechta xudoga sajda qilamiz? [6]

Biz uchta xudoga sajda qilmaymiz, ammo shuni bilamizki, Egamiz Xudo yagona va U uchta shaxsdan iborat. Xudo bir-birini mukammal sevadigan uchta shaxsga ega.

Bu sevgi romantik sevgi emas, balki har doim boshqalarni sevintirishga qaratilgan fidokor sevgidir.

Xudo sevgidir (1-Yuhanno 4:8). Sevgingizni ko'rsatish uchun biron kimsa bo'lishi kerak. Agar hech kim bo'lmasa, sevishning imkoniy yo'q! Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh hali dunyo yaratilmasidan oldin bir-birlarini mukammal darajada sevardilar.

Qonunlar 6:5 ni o'qing. Xudo O'z xalqiga nima qilishni buyuradi? [7]

Xudo dunyoni yaratishdan oldin nima qilgan bo'lsa, bizga ham shuni qilishni buyurgan. Xudo bizlarni Uni va barcha insonlarni sevib yashash uchun yaratgan.

Biz Eski va Yangi Ahdda Uchbirlikni ko'ra olamiz. Masalan:

- Ibtido 18–19-boblar: Xudo ko'kda ham, yerda ham mavjud. Albatta, Ota-Xudo hali ham osmonda, lekin biz Uning yer yuzida Ibrohim bilan yuzma-yuz gaplashayotganini ham ko'ramiz. Bu qanday bo'lishi mumkin? Biz Xudoning yagonaligini, lekin uchtasi birda ekanini anglab yetganimizda, bu tushunarli bo'ladi
- Yuhanno 14:16–17: Iso Ota-Xudoga murojaat qilib, O'zining shogirdlariga Muqaddas Ruhni yuborishini so'rashini aytadi.

Muqaddas Kitobda Uchbirlikni birinchi marta qayerda uchratamiz? [8]

Inson Xudo bilan muloqot qilish uchun yaratilgan

Ibtido 1:26–27 ni o'qing. Biz hayvonlardan qanday farq qilamiz? [9]

Xudoning suratida yaratilgan bo'lish qanaqa bo'ladi? [10]

Qanday odamlar Xudoning ko'z o'ngida qadr-qimmatga va ahamiyatga egalar? Kattalarmi? Boylarmi? Kuchlilarmi? Aqlilarmi? [11]

Biz Xudoning yaratganlarini birdek qabul qilishimiz kerak. Bizning vazifamiz boshqalarni yoshi, jinsi, tashqi ko'rinishi, tili, irqi, qobiliyati, boyligi va boshqa sifatlaridan qat'iy nazar sevishdir.

Vahiy 4:11 ni o'qing. Nima uchun Xudoga sajda qilishimiz kerak? [12]

Biz Xudoni ulug'lash uchun yaratilganmiz. Xudoga sajda qilganimizda quvonchga to'lamiz va bu Xudoga ham quvonch keltiradi!

Odam Atoning vazifasi

Xudo Odam Ato bilan Momo Havoni Adan bog‘iga joylashtirdi. Ammo Xudo ularga butun dunyoni berdi!

Xudo ularga nima qilishni buyurdi? [13]



Bu nima degani? Xudo ulardan nima qilishlarini kutgan edi? [14]

Odam Ato nima uchun butun jonivorlar ustidan hukmronlik qilishi kerak edi?

Hayvonlarning qanday foydasi bor? [15]

Xudo ularga yer yuzini xuddi muzeydagи ashyolarday, hech o‘zgartirmasdan, saqlab turish uchungina bermagan. Xudo yerni ularga undan foydalanishlari uchun, yangi narsalarni kashf qilishlari uchun, shuningdek, dunyoni yanada go‘zallashtirishlari uchun bergen.

Demak, Odam Ato bilan Momo Havo **dunyoni Xudoning hukmronligi ostida boshqarishlari uchun ham** Uning suratida yaratilganlar.

Ibtido 2:9 ni o‘qing. Nega Xudo ko‘plab turli-tuman daraxtlarni yaratdi? [16]

Ibtido 2:10–14: Nega Xudo Odam Ato bilan Momo Havoni daryo bo‘yiga o‘rnashtirdi? [17]

Dengiz va daryolarning qirg‘oqlarida juda ko‘p qum bor edi. Nega Xudo biz uchun qumni yaratgan? [18]

Ibtido 2:12 ni o‘qing. Xudo odamlarning qidirib topishlari uchun qanday yaxshi narsalarni yaratgan? [19]

Xudo nima uchun bizga yer ostida oltin va qimmatbaho toshlarni bergen? [20]

Ibtido 2:15 ni o‘qing. Odam nima qilishi kerak edi? [21]

Mehnat qilish — yaxshi narsa! Ertalabdan kechgacha ishsiz va uyda bekorchi bo‘lib o‘tirishdan yomoni yo‘q!

Xudovand odamlardan nafaqat yerga ishlov berib, o‘zлari uchun oziqa yetishtirishlarilarini xohlaydi, balki bu dunyodan zavq olib yashashlarini ham istaydi.

Xudo yaratgan dunyoda yanayam ko‘proq rohatlanib yashay olishimiz uchun nima qila olamiz? [22]

Dunyoni yanada go‘zallashtirish uchun nimadir qilganimizda, Xudoga shon-shuhrat keltirgan bo‘lamiz. Dunyoga ziyon yetkazadigan ish qilganimizda esa, aksincha, Xudoga isnod keltirgan bo‘lamiz. Masalan, axlatni yerga tashlab ketish va hokazo.

Siz hayotingizda Xudoni qanday ulug'laysiz?

Javoblar

- 1 – Hech narsa yo'q edi; lekin Xudo azaldan u yerda edi.
- 2 – U aytdi va amalga oshdi. Xudo so'zi bilan yaratdi.
- 3 – Azalda Kalom Xudo bilan birga edi.
- 4 – Iso.
- 5 – Xudoning Ruhi.
- 6 – Bitta!
- 7 – Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan sevinglar!
- 8 – Birinchi bobda.
- 9 – Xudoning suratiga egaligimiz bilan farq qilamiz.
- 10 – Biz gapira olamiz, sevamiz, yozamiz, kelajakka oid rejalar tuzamiz va eng muhimi, Xudo bilan muloqot qila olamiz.
- 11 – Har bir odam, hatto yosh bolalar va nogironlar ham, Xudoning suratida bo'lgani uchun qadr-qimmat va ahamiyatga egadir.
- 12 – Chunki U bizni yaratgan.
- 13 – Ularning vazifasi: barakali bo'lish va ko'payish, yer yuzini to'ldirib, o'zlariga itoat ettirish edi.
- 14 – Xudo ulardan:
 - ko'payib, yer yuzini to'ldirishni;
 - mevali daraxtlar, donli o'simliklar, sabzavotlar, guruch, bug'doy va shu kabilarni o'stirib, parvarish qilishni;
 - qahva, shokolad, ziravorlar va boshqa narsalarni kashf qilishlarini xohladi.
- 15 – Sut va tuxum;

Kiyim kechak va adyol uchun jun;
 Dalalarni shudgor qilish uchun;
 Aravani tortib, yuk tashish uchun;
 Sayohat qilish uchun (ayniqsa otlar);
 Qurbonlik qilish uchun (Ibtido 4:4);
 Oziq-ovqat uchun (9:3 — Xudo Nuhga go'sht yeyishi mumkinligini aytgan)
- 16 – Mazali mevalar uchun;

O'tin sifatida ishlatshimiz uchun;
 Uylar qurishimiz uchun;
 Mebel va musiqa asboblari yasash uchun;
 Ulargaga qaraganda insonning ko'ngli yorishadi, ayniqsa, kuz faslida barglarining rangi o'zgarganida.
- 17 – Ular ichishi va yuvinishi uchun toza suvgaga ega bo'lsinlar deb, suv yo'li orqali sayohat qilsinlar deb.
 Chunki u davrda yo'llar bo'limgan.
 Adan bog'i qamoqxona emasdi.
- 18 – Qumdan qasrlar bino qilishimiz uchun!

Shisha ishlab chiqarishimiz uchun;
 Telefon va kompyuterlar uchun chiqlar ishlab chiqarishimiz uchun.
- 19 – Oltin, xushbo'y qatron va qimmatbaho toshlar.

- 20 – Odamlarga taqinchoq va bezak uchun;
Erlar o‘z xotinlariga sevgisini namoyon qilishlari uchun;
Pul o‘rnida ishlatish uchun;
Vaqt kelganda kompyuter va telefonlar ixtiro qilishimiz uchun;
Samoviy Ma’badning (Vahiy 21:18–20) surati bo‘lgan yerdagi ma’badni bezash uchun.
- 21 – Boqqa ishlov berish, parvarish qilish.
- 22 – Xudoni mamnun qiladigan narsalarni qilsak, masalan:
- muhtojlikdagi odamlarga mehribonlik ko‘rsatish maqsadida;
 - mazali taomlar tayyorlasak;
 - uyimizni shinam va chiroyli qilib bezasak;
 - odamlar yangi narsalar ixtiro qilsalar.
- Yana qanday fikrlaringiz bor?

3-dars:

Gunoh



Adan bog'i

Ibtido 3:1–24 ni o'qing (uchinchi bobning birinchi oyatidan yigirma to'rtinchi oyatigacha o'qing).

Ilon shaklida kelgan Shayton Momo Havoga nima dedi? (1-va 4–5-oyatlar) [1]

Shayton Momo Havoga Xudo haqiqatni aytmayapti va U saxiy emas degan fikrni berishga harakat qildi.

Shaytonning aytgani to'g'rimi? [2]

Odam Ato bilan Momo Havo Xudoning suratida yaratilganliklari uchun, allaqachon, Xudoga o'xshardilar! Biroq, Xudo suratida yaratilmagan bir jonzot kelib ular bilan gaplashmoqda. Bu jonzod ularga: «Aytganimni qilsanglar, Xudoga o'xhash bo'lasizlar», demoqda!

Agar Momo Havo va Odam Ato gunoh qilmaganida, nima bo'lar edi? (24-oyat) [3]

Shayton va'da qilgan bilimga ega bo'lish ular uchun yaxshi bo'ldimi? Bu ularni baxtli qildimi? 7-oyatda, ular nimaning farqiga borishdi? [4]

2:15 da, Xudo Odam Atoga qanday ish bergen? [5]

Ilon ularga gapiргanida, ular nima qilishlari kerak edi? [6]

Xudo Odam Ato bilan Momo Havoga baxtli bo'lishlari uchun kerak bo'ladigan hamma narsani berib qo'ygan edi. Shunga qaramay, ular Xudoni rad qilishdi. Xudoning berganlari ular uchun yetarli emasdi. Ular o'z hayotlarini boshqarish uchun Xudoning o'rnidagi bo'lishni xohladi.

Judayam dahshatli! Biroq biz ham xuddi shunday qilamiz. Xudoga qulq solmay, shaytonning gapiga kirganimizda, Xudoni xafa qilamiz.

Xudo bizni boshqarishini xohlamaymiz. O'zimizga yoqqanicha yashashni xohlaymiz. Bu bilan Xudoning g'azabini qo'zg'aymiz.

Bizning Odam Ato va Momo Havoga qanday o'xshash tomonimiz bor? [7]

Gunohning 5 ta oqibati

1. Ular uyaldilar

Ibtido 3:7: Odam Ato va Momo Havo gunoh qilganlaridan keyin, juda yomon ish qilganlarini darhol angladilar va uyaldilar. Keyin nima qilishdi? [8]

Ular ilgari baxtiyor edilar. Endi esa uyalganlaridan, o'z-o'zlarini yomon ko'radigan bo'ldilar.

2. Gunoh ular orasidagi munosabatni buzzi

Ibtido 3:12: Odam Ato nima qildi? [9]

Ibtido 3:16: Endi Odam Ato bilan Momo Havo bir-biriga qanday munosabatda bo'lishadi? [10]

Achinarlisi shundaki, bu qoida shafqatsiz va xudbin bo'lishi mumkin. Lekin Xudoning oilaviy hayot uchun ko'zlagan rejasи bunday emas.

3. Xudo yerni la'nati qildi

Ibtido 3:17–18: Ularning gunohi yerdan hosil undirishga qanday ta'sir qildi? [11]

4. Gunoh og'riq va o'lim keltirdi

Ibtido 3:16–19: Endi ularning hayoti qay tarzda o'zgaradi? [12]

Ammo Xudo mehribondir; ular darhol o'lmaydilar. Odamlarni qutqarish uchun Xudoning rejasи bor!

5. Gunoh ularning Xudo bilan munosabatini buzzi

Ibtido 3:8: Endi ularda Xudo bilan gaplashish xohishi bormi? [13]

Ibtido 3:21: Xudo ularni o'sha zahotiyoy bog'dan haydar yubormadi. Birinchi navbatda U nima qildi? [14]

Odamlarning gunohni yuvish va sharmandalikdan xalos qilish uchun Xudoning O'zi qo'lini cho'zdi. Xudo bilan yarashish har doim Xudoning mehr-muhabbatlар harakatidan boshlanadi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, ilk gunoh sodir etilganda, Xudoning O'zi hayvonni qurban qildi. Odamlarning Xudo bilan muloqotini tiklash uchun kimdir o'lishi kerak edi.

Ibtido 3:23: Xudo nima qildi? [15]

Ular endi Xudo bilan yashay olmasdilar. Gunoh bizni Xudodan abadiy uzoqlashtiradi.

Gunohning 5 ta oqibati nima? [16]

1.

2.

3.

4.

5.

Gunoh hamma narsani buzadi. Gunoh do'zaxga olib boradi. Ammo bu hikoyaning oxiri emas!

Birinchi va ikkinchi Odam

Shunday voqealar ichida ekanmiz, Xudo bizga umid berdi.

Ibtido 3:15: Momo Havoning nasli nima qiladi? [17]

Bu nima degani? [18]

Eski Ahdning qolgan qismlari bizni O'sha Zot kim ekanini bilib olishga tayyorlaydi. Yangi Ahd esa ikkinchi Odam kim ekanini ochib beradi.

1-Korinfliklar 15:21–22: «*O'lim bir inson orqali dunyoga kirdi. Shunga o'xshab, o'liklarning tirilishi ham bir Inson orqali sodir bo'ladi. Axir, bu dunyoga o'lim Odam Ato tu'fayli kirib keldi, endi Iso Masih orqali hamma tiriladi».*

Ikkinchi Odam kim? [19]

O'lim bizga qanday keldi? [20]

Biz qanday qilib hayotga ega bo'lamiz? [21]

Agar gunoh qilsak, o'limga loyiq bo'lamiz. Iso esa bizning o'rnimizga o'lish uchun va bu orqali bizlar abadiy yashashimiz uchun dunyoga keldi (**Yuhanno 3:16**)!

Kundalik vazifa

O‘zimizning gunohimizni ko‘rish juda qiyin. Shuning uchun har kuni Xudodan bizga gunohlarimizni ko‘rsatishini so‘rashimiz juda muhim. Ana shu yo‘l bilan biz Xudoga ma’qul hayot kechira olamiz.

Zabur 138:23–24: *Tekshirib ko‘r meni, ey Xudo, yuragimni bil,
Sinab ko‘r meni, tashvishlarimni bil.
Bilgin-chi, mening biron qabihligim bormikan?
Meni abadiy yo‘ldan yetaklab borgin.*

Qo’shimcha: Ammo shayton va yovuzlik qayerdan paydo bo‘ldi?

Ibtido 1:31: Xudo O‘zi yaratgan hamma narsalari haqida nima degan? [22]

Kolosaliklar 1:15–16: Bu oyatlar Iso haqida yozilgan. U nimani yaratgan? [23]

Ruhlarni kim yaratgan? [24]

Biz Xudoning yaratganlaridan emas, balki Yaratuvchining O‘zidan qo‘rqishimiz kerak!

Shayton (iblisning nomi) va yovuzlik qayerdan paydo bo‘lgan? Egamiz har doim insonlarga tanlash huquqini beradi, ya’ni ularga yo Xudoga qulq solib itoat etish yoki aksini tanlash imkonini bergen. Agar Xudo bizga tanlash imkonini bermaganida, biz Uni seva olmasdik, xuddi robotlar singari bo‘lardik.

Vahiy 12:7–9: Mikoyil kim? (Yahudo 1:9) [25]

Ajdarho kim? [26]

Avval boshda nima sodir bo‘lgan edi? [27]

Shundan keyin Xudoga qarshi chiqqan farishtalar jinlarga aylandilar. Ammo, Xudoga qarshi chiqmagan farishtalar hali ham Xudoga va Uning xalqiga xizmat qilmoqdalar (Ibroniylar 1:14).

Iso o‘lib, qayta tirilganida, shaytonni yengdi. Biroq shayton haligacha Xudoga va Uning xalqiga qarshi kurashmoqda. Shaytonga qarshi mustakhkam tura olishimiz uchun Xudo bizga qurol-aslahalar bergen (Efesliklarga 6:10–18). Shunday ekan, har kuni ruhiy qurollarni taqib yurishimiz kerak.

Vahiy 20:10: Iso qayta kelganida shaytonni nima qiladi? [28]

Shundan keyin hech qanday gunoh bo‘lmaydi! Biz Iso Masih bilan birga aslo yovuzlik bo‘lmaydigan yangi yerda abadiy yashaymiz!


Bugun nima uchun tavba qilishingiz kerak?

Javoblar

- 1 – **3:1:** Haqiqatan ham Xudo, bog'dagi bironta daraxtning mevasidan yemanglar, deb aytdimi?
3:4–5: Yo'q, o'lmaisizlar... chunki Xudo biladiki, sizlar bu mevalardan yesangiz, ko'zlarining ochilib, sizlar ham barcha yaxshi va yomon narsalarni biladigan bo'lib, Xudoga o'xshab qolasizlar.
- 2 – Yo'q!
- 3 – Ular hayot daraxti mevasidan yeyishga davom etgan bo'lardilar va abadiy yashardilar.
- 4 – Ular yalang'och ekanliklarini angladilar. Buni bilish ularga yaxshi bo'lindi. Endi ular Xudoga kamroq o'xshar edilar va shuning uchun baxtli emasdilar.
- 5 – Xudo uni boqqa ishlov bersin, parvarish qilsin deb, Adan bog'iga joylashtirdi.
- 6 – Boqqa g'amxo'rlik qilish uchun ilonni o'ldirishlari yoki hech bo'lmaganda bog'dan haydab yuborishlari kerak edi.
- 7 – Xudoga itoat qilmay, shaytonning gapiga kirsak, Xudoni xafa qilgan bo'lamiz. Bizni Xudo boshqarishini xohlamaymiz, o'zimizga yoqqanicha yashashni xohlaymiz.
- 8 – Ular yalang'och ekanlarini payqadilar va anjir yaproqlarini o'zlariga yopinchiq qilib oldilar.
- 9 – U Xudoni (*O'zing menga bergen xotin*) va Momo Havoni aybladi — «bu mening aybim emas — bu uning aybi!»
- 10 – Endi oilani kim boshqarishi borasida kurash bo'ladi. Ayol arning qoidalaridan norozi bo'ladi.
- 11 – Endi ishlash oson bo'lmaydi. Yerdan meva va sabzavotlar undirish juda qiyin bo'ladi.
- 12 – Ular og'riq va azoblarda yashaydilar. O'lim ko'radilar, abadiy yashamaydilar.
- 13 – Yo'q, ular Xudodan yashirindilar.
- 14 – Xudo benuqson hayvonni qurban qilib, uning terisi bilan Odam Ato va Momo Havoning yalang'ochligini yopdi.
- 15 – Xudo Odam Ato bilan Momo Havoni Adan bog'idan chiqarib yubordi.
- 16 – 1) Ular uyaldilar.
 2) Gunoh ularning orasidagi o'zaro munosabatni buzdi.
 3) Xudo yerni la'nati qildi.
 4) Gunoh og'riq va o'lim keltirdi.
 5) Gunoh inson bilan Xudo o'rtasidagi munosabatni buzdi.
- 17 – U shaytonning boshini ezadi.
- 18 – Xudo shayton ustidan g'olib keladigan Zotni yuboradi!
- 19 – Iso Masih.
- 20 – Odam Ato orqali.
- 21 – Agar Iso bilan aloqada bo'lsak.
- 22 – Xudo yaratgan hamma narsa juda yaxshi edi.
- 23 – Ko'rindigan va ko'rindiyigan har bir narsani.
- 24 – Iso Masih.
- 25 – Bosh farishta.
- 26 – Iblis.
- 27 – Samoda jang bo'ldi. Mikoyil va uning farishtalari shaytonga va uning malaklariga qarshi jang qildilar. So'ngra shayton va uning malaklari jannatdan haydab yuborildi.
- 28 – Xudo shaytonni jahannamga tashlaydi.

4-dars:

Xudo yovuzlikni hukm qiladi



Bozordan sotib olingan, ammo chirigan mevalarni nima qilamiz? [1]

Biz ham buzilgan mevaga o'xshaymiz! Ichimizdan chiriganimiz tashqaridan ko'rinnmaydi. Tashqaridan go'yo hammasi yaxshidek ko'rindi. Ammo Xudo barcha insonlar buzilganligini ko'radi. Xudo bizning yuraklarimizni biladi!

Ibtido kitobi 6:5–22 ni o'qing.

Ibtido 1:31: Xudo O'zi yaratgan hamma narsa haqida nima deb o'ylagan? [2]

Ibtido 6:6: Hozir Xudo O'zi yaratgan dunyo haqida nima deb o'laydi? [3]

Inson zoti qabihlashib ketdi. Xudo nima qilishi kerak? [4]

Xudo buni qanday amalga oshiradi? [5]

Xudo nafaqat muqaddas, balki mehribon hamdir. U dunyoni hukm qilishi kerak, ammo U butun odamzod qirilib ketishini xohlamaydi.

Ibtido 3:15: Xudo kimni yuborishni va'da qilgan edi? [6]

Odamlar Xudoning iblisni yo'q qilish rejasining bir qismi edilar!

Ibtido 6:8: Xudo kimni qutqarishga qaror qildi? [7]

Ibtido 6:14: Xudo Nuhga nima qilishni buyurdi? [8]

Ibtido 6:18–19: Kimlar qutqariladilar? [9]

U qayiq emas, balki 3.000 kishini sig‘dira oladigan haybatli kema edi!

Nuh odamlarga to‘fon kelishi haqida aytganida, ular faqatgina uning ustidan kulishdi; uni aqldan ozgan deyishdi!

Ammo oxir-oqibat ularga nima bo‘ldi? [10]

Bular bizning gunoh muammomizni hal qildimi? [11]

Ibtido kitobi 8: 20–22 ni o‘qing.

Nuh to‘fondan keyin nima qildi? [12]

Xudo qanday va’da berdi? [13]

Ibtido kitobi 9:12–16 ni o‘qing. Xudo tirik jonzod bilan qilgan ahdini qanday alomat bilan tasdiqladi? [14]

Xudoning Nuhga bergen ajoyib va’dasi shuni ko‘rsatadiki, Xudoning inoyati faqat bir nechta sanoqli odamlar uchungina emas, balki BUTUN odamzod uchundir. Xudo hech kimning halok bo‘lishini istamaydi, balki barchaning Xudo sevgisidan bahramand bo‘lishini istaydi!

Osmonda kamalakni ko‘rgan paytimiz, Xudoning barcha yaratganlariga bo‘lgan sadoqatli sevgisini esga olamiz!

Yangi Ahd

Bugun Xudo odamlar haqida nima deydi?

Rimliklarga 3:10–18 [15]

Rimliklarga 3:23 [16]

Hamma gunoh qilgan, barcha buzilgan. Xudo bu dunyoni hukm qilishga keladi. Barcha chirigan mevalarni tashlab yuboradi.

Matto 25-bobda Masih (ya’ni Xudo tomonidan tayinlangan Hukmdor) bu borada shunday degan:

Matto 25:31–32: *Inson O‘g‘li O‘zining ulug‘vorligida, jamiki farishtalari bilan birga kelganda O‘zining shohona taxtiga o‘tiradi. Barcha xalqlar Uning huzuriga to‘planadilar. Cho‘pon qo‘ylarni echkilardan ajratganday, U xalqlarni bir-biridan ajratadi.*

U fosiq odamlarga nima deydi? (**Matto 25:41**) [17]

Isoning hukmi eng dahshatlisidir!

Eski Ahdda Nuh Xudoning hukmidan qanday qutulgan? [18]

Kema xuddi Iso kabitdir. Xudoning hukmidan qutulishimiz uchun yagona yo'l — Iso Masih. Biz butunlay gunohkormiz. Xudo esa butunlay muqaddas. Biz qilishimiz kerak bo'lgan narsa — kemaga kirish! Biz Isoga, ya'ni U O'z o'limi orqali gunohlarimizning evazini to'laganiga ishonishimiz kerak.

Odamlar Nuhning ustidan kulganiday, bugun bizning ham ustimizdan kulishadi.

Xudo bizga qanday topshiriq bergan? [19]

Bugungi darsda Xudo sizga nima dedi?

Bu darsni bo'lishishingiz mumkin bo'lgan biron kishi bormi?

Tavba qilishingiz kerak bo'lgan gunoh bormi?

Uy vazifasi

Keyingi darsgacha Ibtido 6–9 boblarni (6-bobdan 9-bobgacha) va Ibtido 11:1–9 (11-bob 1 dan 9 gacha bo'lgan oyatlarni) o'qib chiqing.

Javoblar

- 1 – Biz ularni tashlab yuboramiz!
- 2 – Hamma narsa juda ajoyib edi; Xudo mamnun edi.
- 3 – Xudoning yuragi achishib ketdi.
- 4 – Ularni yo‘q qilib yuboradi (chirigan meva kabi tashlab yuboradi)!
- 5 – Kuchli to‘fon yuborish bilan.
- 6 – Iblisni mag‘lub qiladigan Zotni.
- 7 – Xudo Nuhni tanladi.
- 8 – Kema yasashni.
- 9 – Nuh va uning oilasi hamda hayvonlarning har bir turidan bir juft.
- 10 – Hammasi halok bo‘ldilar.
- 11 – Yo‘q!
- 12 – Nuh Xudoga shukrona qurbanligi keltirdi.
- 13 – Xudo endi hech qachon to‘fon bo‘lmaydi, deb va’da qildi.
- 14 – Kamalak!
- 15 – Bitta ham solih kishi yo‘q.
- 16 – Hamma gunoh qilgan.
- 17 – Xudo ularning do‘zaxga borishlarini aytadi.
- 18 – Nuh Xudoga itoat qildi va kemaga kirdi.
- 19 – Bizning vazifamiz, odamlarga g‘alati tuyulishiga qaramay, ularga Xudo oldida tavba qilish va kemaga kirish (ya’ni, Isoga imon keltirish) imkoniyatini berishdir.

5-dars:

Ibrohimga berilgan va'dalar



Nuhning avlodlari Xudoni unutdilar. Ular begona xudolarga sajda qiladigan bo'lishdi.

Bir necha asrlar o'tgach, Xudo Ibrohimni O'z xalqining otasi bo'lish uchun tanladi.

Uchta va'da

Ibtido 12:1–7 ni o'qing.

Xudo Ibrohimga qanday uchta narsani va'da qilgan? [1]

1. Qut-baraka

Ibtido 3:16–19: Xudo yaratgan dunyoga nima bo'ldi? [2]

Ibtido 12:3: Xudo endi nima qilishini aytadi? [3]

Biz olishimiz mumkin bo'lgan eng katta baraka nima? [4]

2. Xalq


Ibtido 21:5: Sora bibi Is'hoqni dunyoga keltirganida, Ibrohim necha yoshda bo'lgan? [5]

Is'hoqning tug'ilishi mo'jiza edi! Xudo Is'hoqning o'zgacha o'g'il ekanligini ko'rsatmoqchi edi.

Ibtido 12:2: Nima uchun Is'hoq o'zgacha edi? [6]

Qo'shimcha

Xudo Ibrohimning imonini sinash uchun uni dahshatli sinovga duchor qilgan.



Ibtido 22:1–18 ni o'qing.

Xudo Ibrohimga yagona o'g'lini qurbanlikka keltirishni amr berdi. Lekin aynan o'sha o'g'il orqali U butun dunyoni barakalamoqchi ekanini aytgandi! Ibrohim Xudoning bu amriga hecham tushunmadi, ammo, Xudo O'z va'dasini amalgalashishiga ishongan holda, imon bilan Unga itoat qildi.

Ibrohim Is'hoqni qurban qilay deb turgan paytda, Xudoning farishtasi uni to'xtatdi. Xudo unga o'g'lining o'rniqiga qurban qilishi uchun bir qo'chqor berdi.

Bu yerda odamning o'limi o'rniqiga Xudoning O'zi bir hayvonni qurbanlikka berganini ko'ramiz. Yangi Ahdda esa Xudo bizning o'rnimizga o'lishi uchun O'z O'g'lini berganini ko'ramiz. Hech qanday hayvon qurbanligi Uning o'rnnini bosa olmaydi. Gunohlarimiz uchun to'lov bo'la oladigan boshqa hech qanday qurbanlik yo'q.

Xudo Ibrohimga uning o'g'li Is'hoq orqali ham jismoniy, hamda ruhiy farzandlar berishni rejalashtirgan.

Galatiyaliklarga 3:7: Yangi Ahdda Ibrohimning o'g'llari kimlar? [7]

Yangi yaratilishda kim Xudoning xalqi bo'ladi? (**Vahiy 7:9**) [8]

3. Yer (yurt)

Ibtido 17:8: Xudo Ibrohim nasllariga qaysi yurtni mulk qilib bermoqchi? [9]



Biroq Ibrohim hayotligida Kan'on yurtiga ega bo'lmadi. Faqat Ibtido 23-bobda xotini Sorani dafn qilish uchun Kan'onda maqbara yerini sotib oldi. Oradan 500 yil o'tgach, Xudo o'z xalqiga o'sha yurtni berdi.

Ibroniylarga 11:8–10: Ibrohim qaysi jihatlari bilan imonning ajoyib namunasi bo'ldi? [10]

Biroq...

Ibtido 46:6: Uch nasl o'tgandan keyin Ibrohim avlodlari qaysi yurtga ketadilar? [11]

Chiqish 2:23: Xudo xalqining boshiga nimalar keldi? [12]

Xudoning va'dalariga erishish uchun ularga qutqaruvchi kerak.

Muqaddas Kalomning qolgan qismi Xudo O'z va'dalariga sodiq qolganini bayon etadi. Eski Ahdda, Xudo Ibrohimga bergan va'dalarini qanday amalga oshira boshlaganini o'qiymiz. Yangi Ahdda esa o'sha va'dalarning Iso Masih orqali amalga oshganini ko'ramiz.

Ammo Masih olamga qaytib kelganida va yangi yerda abadiy U bilan birga yashashimiz uchun bizni O'z yoniga olganida, bu va'dalar to'liq amalga oshadi!

Va'da qilingan yurt keljakdagi yangi yerning ramzi edi. (Vahiy 22:1–5)

Xudo Ibrohimga qanday uchta narsani va'da qilgan edi? [13]

Ular qachon to'liq amalga oshadi? [14]

Uy vazifasi

Egamiz Ibrohimga bergan va'dalarini qanday amalga oshira boshlaganini ko'rish uchun Ibtido kitobini o'qib chiqing.

Ushbu darsda Xudo haqida nimani bilib oldik?

Javoblar

- 1 – Qut-baraka, xalq va yer (yurt).
- 2 – La'natlangandi.
- 3 – Xudo barcha odamlarni Ibrohim orqali barakalamoqchi!
- 4 – Xudo bilan munosabat!
- 5 – Ibrohim 100 yoshda edi.
- 6 – Chunki Xudo Is'hoqning naslidan Xudoning xalqi bo'ladigan buyuk bir xalq keltirib chiqarmoqchi edi.
- 7 – Iso Masihga imon keltirganlar.
- 8 – Turli xalq, qabila, elatu millatlarga mansub bo'lgan odamlar!
- 9 – Butun Kan'on yurtini.
- 10 – Xudo bergen va'dalarini o'z vaqtida bajarishiga Ibrohim ishonardi. Xudoning huzurida yerdagiga nisbatan a'lороq maskanga ega bo'lishini bilardi.
- 11 – Misrga.
- 12 – Xudoning xalqi qul bo'ldi.
- 13 – Qut-baraka, xalq va yer (yurt).
- 14 – Masih olamga qaytib kelib, yangi yerda abadiy U bilan birga yashashimiz uchun bizni O'z yoniga olganida.

6-dars:

Xudoning va'dalari Ibrohimning avlodlariga o'tadi



Is'hoq

Ibtido kitobi 25:19–34 ni o'qing.

Is'hoq kimga uylandi? (20-oyat) [1]

Is'hoq bilan Rivqo qay jihatdan Ibrohim bilan Soraga o'xshashardi? (21-oyat) [2]

Xudo Rivqoga qornidagi egizaklar borasida nima dedi? (23-oyat) [3]

Tanlanish

Aslida bu Muqaddas Kitobdag'i katta bir mavzu. Xudo imonlilarni O'zining ruhiy farzandlari sifatida hali dunyoni yaratmasdan oldin tanlagan edi!

Yangi Ahdda Pavlus bu mavzuni yanada chuqurroq yoritgan. **Efesliklarga 1:3–8** ni o'qing.

Xudo bizni qachon O'zining farzandlari sifatida tanlab olgan? (4-oyat) [4]

Nega Xudo buni qildi? (6-oyat) [5]

Xudo bizga yana nima bergen? (7-oyat) [6]

Muqaddas Kitobni umumiy ko'rib chiqish kursimizda davom etar ekanmiz, bu mavzu haqida yana ko'proq o'rghanamiz.

Ba'zi odamlar tanlanib, boshqalari tanlanmasligi adolatdan emas, deb aytishimiz mumkin. Bu narsa — Xudoning «inoyati» deb ataladi (7-oyat). Hech kim da'vat qilinishga va oqlanishga loyiq emas. Bizni Xudo tanlagani uchun hayratlanib, Unga shukur qilishimiz kerak!

Xudo bizga qancha inoyat ko'rsatgan? (8-oyat) [7]

Yoqub

Yoqub katta bo'lgach, Leax va Rohila ismli ikkita opa-singilga uylangan. U er yoki ota sifatida yaxshi o'rnak bo'ladigan odam bo'limgan!

Ibtido kitobi 29:30 dan 30:24 gacha o'qing.

Yoqub qaysi xotinini sevardi? [8]

Qaysi xotini unga 4 ta o'g'il tug'ib berdi? (29:32–35) [9]

Rohila o'z opasiga hasad qilgani uchun nima qildi? (30:3) [10]

Bilxaxning nechta o'g'li bor edi? (30:5–8) [11]

Shunda Leax nima qildi? (30:9) [12]

Zilponing nechta o'g'li bor edi? (30:10–13) [13]

Qanday qilib Leax yana Yoqub bilan qovusha oldi? (30:14–16) [14]

Odamlar mehriгиyo ta'sirida kimdir sizni sevib qoladi, deb ishonishardi.

Keyin Leaxga nima bo'ldi? (30:17–21) [15]

Va nihoyat, Rohila bilan nima sodir bo'ldi? (30:22–24) [16]

Ibtido kitobi 35:16–19 ni o'qing.

Rohilaga nima bo'ldi? [17]

Oxirida Yoqubning hammasi bo'lib nechta o'g'li bo'ldi? Hisoblab chiqishingiz yoki **Ibtido kitobi 42:13** ni o'qishingiz mumkin. [18]

Ibtido kitobi 32:28: Xudo Yoqubga qanday boshqa ism beradi? [19]

Yoqubning o'g'illaridan kelib chiqqan nasllar kimlar edi? **Ibtido kitobi 49:28** ni o'qing. [20]

Bilish muhim

Ibtido kitobi 26:3 da Xudoning **Ibrohimga** bergan va'dalari **Is'hoqqa**, 28:13–14 da esa **Yoqubga** o'tgani haqida aytilgan. Demak, Ibrohim, Is'hoq va Yoqub Xudoning xalqi bo'l mish Isroil xalqining bobokalonlari bo'lgan.



Ibrohimning Hojar bibidan dunyoga kelgan o'g'li — Ismoil, shuningdek, Is'hoqning boshqa o'g'li Esov ham xalqlarning otasi bo'lishdi. Lekin Xudovand insoniyatga najot yo'llini berish uchun Isroil xalqini tanladi.

Shunday qilib, Eski Ahdning qolgan qismlarida Xudoning xalqi «Isroil» deb atalishini va bu xalq Yoqubning 12 ta o'g'li nomi bilan atalgan 12 qabiladan iborat ekanini ko'rishimiz mumkin.

Yusuf va ko'payib borayotgan Xudoning xalqi

Xudo O'z xalqining sonini ko'paytirib borardi! Biroq keyin falokat yuz berdi.

Qanday falokat? **Ibtido 41:56–57** ni o'qing. [21]

Xudo O'z xalqini ochlik tufayli qirilib ketishdan qanday saqlab qoldi? **Ibtido kitobi 45:7** da Yusuf nima deganini o'qing. [22]

Ibtido kitobi 37–47-boblarda Yusufning akalari uni qullikka sotib yuborishgani va u qanday qilib Misrda fir'avndan keyingi eng ulug' inson bo'lgani haqidagi qiziqarli voqealar bayon etilgan. Bu voqealar Xudo O'z xalqini gunohkorligiga va qilgan yomon ishlariga qaramay, qanday qayg'urib, himoya qilganini ko'rsatadi. Bu Xudoning Misr xalqiga bo'lgan mehribonligini ham ko'rsatadi. Chunki ular ham ocharchilikdan omon qolishdi.

Ibtido kitobi 15:13 ni o'qing. Xudoning xalqi Misrda necha yil yashadi? [23]

Ibtido kitobi 46:27 ni o'qing. Yusufning davrida, Xudoning xalqidan necha kishi Misrga kelgan edi? [24]

Sahroda 1:45–46 ni o'qing. 400 yil so'ngra, ularning soni qancha bo'ldi? [25]

Endi ularning soni va'da qilingan makonda yashash uchun yetarli!

Chiqish kitobi 1:8–13 ni o'qing. Chiqish kitobining boshida Xudo xalqining oldida qanday ikkita muammo turgan edi? [26]

Ibtido kitobi 50:24: «*Mening umrim oxirlab boryapti, — dedi Yusuf aka-ukalariga. — Lekin Xudo sizlarni kuzatib turadi, sizlarni bu yurtdan olib chiqib, Ibrohim, Is'hoq va Yoqubga beraman, deb qasam ichgan yurtga qaytarib olib boradi».*

Xudo O'z xalqi uchun tuzgan rejasini amalga oshirishda davom etishini Yusuf bilardi. Siz ham Xudoning rejasiga ko'ra ko'plarga najot haqidagi xabarni yetkazish uchun yaratilgansiz. Har bir inson Iso Masih va faqatgina U bera oladigan abadiy hayot haqida eshitish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Siz hayotingizda Xudoga qanday xizmat qilmoqdasiz?

Javoblar

- 1 – Rivqo.
- 2 – Ular ikkalasi ham uzoq vaqt befarzand edilar. Keyinchalik ko'rgan farzandi esa Xudodan ajoyib marhamat bo'ldi.
- 3 – U egiz o'g'illar tug'di. Ulardan ikki xalq kelib chiqishi, kattasi kichigiga xizmat qilishi kerak edi.
- 4 – Dunyo yaratilmasidan oldin!
- 5 – «Unga hamdu sanolar bo'lsin!» Uning nomi ulug'lanishi uchun!
- 6 – Masihning to'kilgan qoni orqali Xudo bizni kechirib, gunohlarimizdan ozod qildi.
- 7 – Xudo bizga mo'l-ko'l inoyat bergen.
- 8 – Rohila.
- 9 – Leax.
- 10 – Rohila cho'risi orqali bolali bo'lish uchun Bilxaxni Yoqubga berdi.
- 11 – 2.
- 12 – Leax yana bola ko'rish uchun cho'risi Zilponi Yoqubga berdi.
- 13 – 2.
- 14 – Leax eri bilan birga bo'lish haqini mehrigiyolar evaziga «sotib oldi»!
- 15 – U yana ikkita o'g'il va bitta qiz tug'di.
- 16 – Rohila Yusufni dunyoga keltirdi.
- 17 – U ikkinchi o'g'lini tug'di va vafot etdi.
- 18 – 12.
- 19 – Isroil.
- 20 – Isroilning 12 ta qabilasi.
- 21 – Qahatchilik boshlandi.
- 22 – Xudo Yusufni aka-ukalaridan oldin Misrga yubordi va shu tariqa ularni o'limdan saqlab qoldi.
- 23 – 400 yil.
- 24 – 70.
- 25 – 603.000 erkak, ayollar va bolalar bilan birga taxminan 2 million odam.
- 26 – Ular Misrda edilar. Bu yer ularga Xudo va'da qilgan yurt emasdi. Ular qullikda edilar.

Qo'shimcha: Ibtido kitobi bo'yicha viktorina

1. Azalda kim Xudo bilan birga edi? [1]
2. Gunohning qanday oqibatlari borligini ko'rdik? [2]
3. Nuh davrida kim Xudoning hukmidan qutula olgan? [3]
4. Xudo Ibrohimga qaysi uchta narsani va'da qilgan va ular qachon to'liq amalga oshadi? [4]
5. Sora bibi Ibrohimga tug'ib bergan o'g'lining ismi nima? [5]
6. Sora bibi Is'hoqni tuqqanida, Ibrohim necha yoshda edi? [6]
7. Is'hoqning nechta farzandi bor edi? [7]
8. Ularning ismlari nima edi? [8]
9. Xudo Is'hoqning qaysi o'g'li orqali va'dalarini amalga oshirishda davom etdi? [9]
10. Xudo Yoqubga qanday yangi ism berdi? [10]
11. Yoqubning nechta o'g'li bor edi? [11]
12. Muqaddas Kitobda keyinchalik bu insonlar (Ibrohim, Is'hoq va Yoqub) kim bo'lganliklari aytildi? [12]
13. Yoqubning sevimli o'g'li kim edi? [13]
14. Xudo ularni ochlikdan o'lib ketishdan qutqarish uchun nima qildi? [14]
15. Xudoning xalqi Misrda necha yil yashadi? [15]
16. Xudoning qancha odami Misrga bordi? [16]
17. Ularning soni keyin qancha bo'ldi? (Sahroda 1:46) [17]

18. Ibtido kitobining oxiri va Chiqish kitobining boshida Xudoning xalqi uchun qanday ikkita muammo bor edi? [18]

Javoblar

- 1 – Kalom va Muqaddas Ruh.
- 2 – Ular uyaldilar;
Gunoh insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni buzdi;
Xudo yerni la'natladi;
Gunoh og'riq va o'lim keltirdi;
Gunoh inson bilan Xudo o'rtasidagi munosabatni buzdi.
- 3 – Kemaga kirganlar.
- 4 – Qut-baraka, xalq, yurt. Masih olamga qayta kelib, yangi yerda abadiy U bilan birga yashashimiz uchun bizni yoniga olganida Xudoning va'dalari to'liq amalga oshadi.
- 5 – Is'hoq.
- 6 – 100 yoshda.
- 7 – Ikkita o'g'li.
- 8 – Yoqub va Esov.
- 9 – Yoqub orqali.
- 10 – Isroil.
- 11 – 12 ta.
- 12 – Isroil xalqining 12 qabilasining otalari.
- 13 – Yusuf.
- 14 – Xudo ularni Misrga yubordi.
- 15 – 400 yil. (Ibtido 15:13)
- 16 – 70 kishi. (Ibtido 46:27)
- 17 – 603.000 erkak, hamda ayollar va bolalar bilan birga 2 million odam; endi ularning soni va'da qilingan yurtda yashash uchun yetarli.
- 18 – Ular Misrda edilar. Bu yer esa Xudo ularga va'da qilgan yurt emasdi. Ular qullikda edilar.

7-dars:

Qutqaruvchi Xudo



Chiqish kitobining boshida, Ibrohim nasllari juda yomon vaziyatda edilar.

Chiqish kitobi 1-bob 8–11, 15–16 va 22-oyatlarni o'qing.

Isroil xalqining ahvoli qanaqa edi? [1]

Biroq, ana shunday dahshatli azob-uqubat paytida, O'z xalqini qutqarish uchun Xudoning rejasi bor edi.

Bir isroillik oila, chaqaloqlarni o'ldirish haqidagi fir'avnning farmonidan qochib, o'g'lini yashirib, savatga solib qo'ydi. **Chiqish kitobi 2:1–10** ni o'qing.

Chaqaloqni kim topib oldi? (5-oyat) [2]

Unga qanday ism berishdi? (10-oyat) [3]

O'sha vaqtgacha Xudoning xalqi Xudo haqida juda kam bilishardi. Endi esa Xudo ularga O'zini qanday ochib bergenini ko'ramiz.

Chiqish 2:23–3:17 ni o'qing.

Ushbu parchada biz Xudo haqida 4 ta narsani bilib olamiz:

1. Xudo o'zini o'zi qutqara olmasligini biladiganlarni qutqaradi

Xudoning xalqi qayerda? [4]

Ularning muammosi nimada? [5]

Ular kimga muhtoj edilar? [6]

Ular nima qildilar? (2:23) [7]

Isroil xalqi faqatgina Xudo ularni qutqara olishini bilishardi.

Yangi Ahd

Yuhanno 8:34–36: *Iso dedi:*

- *Sizlarga chinini aytayin: gunoh qiluvchi har bir kishi gunohning qulidir. Qul hech qachon xonodon a'zosi bo'la olmaydi, o'g'il esa abadulabad o'z xonodonining a'zosidir. Shunday ekan, agar O'g'il sizlarni ozod qilsa, haqiqatan ozod bo'lasizlar.*

Kim gunohning quli? [8]

Biz gunohga abadiy qul bo'lib qolishimiz kerakmi? [9]

Kim bizni ozod qila oladi? [10]

Xudoning O'g'li kim? [11]

Barcha odamlar qaysi jihatdan isroilliklarga o'xshaydilar? [12]

Biz nima qilishimiz kerak? [13]

2. Xudo O'z xalqini qutqarish uchun insonni ishlataladi

Havoriyalar 7:20–22: Xudo O'z xalqini qutqarish uchun Musoni qay tarzda hozirlagan? [14]

Havoriyalar 7:23–29: Muso mukammalmidi? [15]

Xudo Musoni O'zining tanlangan xalqi — isroilliklarning qutqaruvchisi bo'lishga tayyorladi. Muso fir'avning saroyida katta bo'lgani uchun, fir'avn bilan gaplasha olardi. Boshqa isroilliklar esa buni qila olmasdi. Biroq Muso Misrga qaytib borishni xohlasmadi. Chunki u fir'avn baribir xalqni qo'yib yubormasligini bilardi.

Chiqish 3:12: Xudo unga nima dedi? [16]

Xudoning madadi bilan u Isroil xalqini qutqara oladi!

Muso qaysi jihatdan Xudoning xalqini qutqarishga munosib odam edi? [17]

Muso mukammal Qutqaruvchi emasdi. U shaytonni mag'lub qiladigan zot emasdi. (Ibtido 3:15)

Muso qaysi ikki jihatdan Xudoning xalqini qutqarishga to'g'ri kelmasdi? [18]

Bir kun kelib, Egamiz Xudo O'z xalqini abadiy qutqarish uchun komil Qutqaruvchini yuboradi.

Yangi Ahd

Matto 1:20–23: Maryamning O'g'li qanday ikkita ismga ega bo'ladi va bu ismlar nimani anglatadi? [19]

Iso bizni abadiy qutqara oladigan yagona Kishidir!

U — Xudoning O'g'li, Xudo biz bilan!

3. Xudoning O'zi odamlarni qutqargani keldi

Chiqish 3:8: Xudo nima qildi? [20]

Yangi Ahd

Yuhanno 1:14: Kalom (Iso) qay tarzda oramizga keldi? [21]

Muso davrida bo'lgani kabi, Yangi Ahdda ham Xudo bizlarni qutqarish uchun keldi.

Boshqa dinlar «Xudo bizni eshitishi uchun, jannatiga qabul qilishi uchun Uni rozi qilishimiz (farzlarini ado etishimiz) lozim», deydi. Ammo inson zoti Xudoga ma'qul bo'la olmaydi. Chunki u hech qachon yetarlicha yaxshi bo'la olmaydi.

1-Yuhanno 4:10: *Haqiqiy sevgi — bizning Xudoga bo'lgan sevgimiz emas, balki Xudoning bizga ko'rsatgan sevgisidir. Zero, Xudo bizni gunohlarimizdan poklash uchun O'z O'g'lini qurban qildi.*

Xudo nima qildi? [22]

Xudoning O'g'li biz uchun o'lib, gunohlarimizdan poklash uchun keldi!

Masihiylik e'tiqodining boshqa dinlardan farqi nimada? [23]

4. Egamiz yagona haq Xudodir!

Xudoning xalqi Xudo haqida juda kam bilardi. Fir'avn kuchli ko'rinar va Muso undan qo'rqardi. Xudo esa fir'avn Uning oldida hech narsa emasligini Musoga bildirishni xohladi!

Kim ko'proq kuchga ega: biron bir davlat hukmdorimi yoki Xudomi? [24]

Chiqish 3:14: Xudoning ismi nima? [25]

Muqaddas Kalomda, Xudoning ismi bizga Uning kim ekanligini aytadi.

Ibroniylar tilida «Men bor bo'lgan Menman» «YHVH» («Yahve» deb talaffuz qilingan bo'lishi mumkin) deb yozilgan bo'lib, bu Xudoning ismidir. Biroq yahudiy xalqi Yahve ismini ishlatishdan qochishadi. O'zbek tilida esa Yahve so'zi «Egangiz» yoki «har doim bor bo'lgan Xudo» deb tarjima qilingan.

Bu ism shundan dalolat beradiki, Egamiz Xudo odamlar sajda qiladigan boshqa xudolarga o'xshamaydi. U tirik! U abadiy! U har narsaga qodir! U Ibrohimga bergan va'dasini unutmagan! Xudo sadoqatli Xudodir!

Bu ism bizga Xudo haqida nimani aytadi? [26]

Yangi Ahd

Xuddi shu singari, Iso ham Yuhanno Xushxabarida 7 marta O'zini ayni Chiqish 3:14 dagi ism bilan ataydi. Masalan, Yuhanno 14:6 da: «**Men yo'l, haqiqat va hayotdirman.** Otaning oldiga olib boradigan Menden boshqa yo'l yo'q». Yoki, Yuhanno 8:58 da: «*Sizlarga chinini aytayin: Ibrohim tug'ilmasdan oldin Men bor bo'lganman.*» (Bularni Yangi Ahdning asl nusxasi bo'lgan yunonchada aniq ko'rishimiz mumkin; ba'zi tarjimalarda ko'rish qiyin bo'lishi mumkin.)

Iso bu bilan nima demoqchi edi? [27]

Faqat Iso bizni gunohlarimizdan va yovuz shaytondan qutqara oladi!

Ushbu darsda Xudo haqida nimani bilib oldik?**Uy vazifasi**

Chiqish kitobining 1–14-boblarida, Xudo Isroiil xalqini qanday qutqargani haqida o'qiyimiz. Bu hafta ushbu boblarni o'qing va Xudo haqida o'rganganlaringizni daftarga yozing.

Javoblar

- 1 – Ular zulm ostida, hech bir haq-huquq va erki bo‘lmagan qullar edilar va fir’avn ularning o‘z doyalariga yangi tug‘ilgan o‘g‘il bola chaqaloqlarni o‘ldirishni buyurdi.
- 2 – Fir’avnning qizi.
- 3 – Muso.
- 4 – Misrda.
- 5 – Qul edilar.
- 6 – Ularni qutqaradigan Qutqaruvchiga. Ular o‘zlarini qutqara olmasdilar.
- 7 – Yordam so‘rab, Xudoga iltijo qilishardi.
- 8 – Gunoh qilgan har bir kishi, demak, butun odamzod!
- 9 – Yo‘q!
- 10 – O‘g‘il (Xudoning O‘g‘li).
- 11 – Iso!
- 12 – Biz ham qulmiz! Ya’ni gunohning qullarimiz! Biz ham isroilliklar kabi o‘zimizni qutqara olmaymiz.
- 13 – Isroil xalqiga o‘xshab, biz ham gunohdan qutqarishi uchun Xudoga iltijo qilishimiz kerak.
- 14 – U Misr tilini va ibroniychani bilgan. Yaxshi ta’lim olgani va fir’avn saroyida katta bo‘lgani uchun, u bilan qanday gaplashishni bilardi.
- 15 – Yo‘q!
- 16 – Xudo Muso bilan birga bo‘lishni va’da qildi.
- 17 – Muso fir’avn bilan gaplasha oladigan yagona isroillik edi.
- 18 – Chunki Muso fir’avndan qo‘rqardi, hamda bir misrlikni o‘ldirgandi.
- 19 – Iso ismi «Xudo qutqaradi» degan ma’noni anglatadi. Chunki U insonlarni gunohlaridan qutqaradi. Immanuil ismi esa «Xudo biz bilan» degan ma’noni anglatadi.
- 20 – Isroilliklarni qutqarish uchun Xudoning O‘zi keldi.
- 21 – Kalom Inson qiyofasiga kirdi va oramizda yashadi.
- 22 – Xudo O‘z O‘g‘lini gunohlarimizni yuvish uchun yubordi.
- 23 – Boshqa dinlar «Xudo bizni eshitishi uchun va jannatiga qabul qilishi uchun, savob ishlar qilib Uni rozi qilishimiz (farzlarini ado etishimiz) lozim» deydi. Kalom esa bizga savob ishlarimiz hech qachon bizni Xudoga yaqinlashtira olmasligini, shu sababli Xudoning O‘g‘li bizning o‘rnimizga o‘lib, gunohlarimizni yuvish uchun kelganligini o‘rgatadi!
- 24 – Xudo!
- 25 – Men Borman. Ibroniycha matndan so‘zma-so‘z tarjimasi «Men bor bo‘lgan Menman» yoki «Men Menman».
- 26 – Egamiz Xudo boshqa xudolarga o‘xshamaydi. U tirik! U abadiy! U har narsaga qodir! U Ibrohimga bergen va’dasini unutmagan! Xudo sadoqatli Xudodir!
- 27 – Iso odamlardan U Xudoning O‘g‘li ekanini va faqatgina Iso orqali Ota Xudoni (Yahveni) tanib bila olishlari mumkinligini anglab yetishlarini xohlardi!

8-dars:

Xudo qurbanlik orqali qutqaradi



Bu darsda Xudovandning qudratli Hukmdor va Najotkor ekanligini o'rganamiz. Biz Uning ajoyib najotini har doim eslab, nishonlab yashashimiz kerak.

Jazo (Chiqish kitobi 5–11-boblar)

Fir'avn Xudoga qarshi chiqqan. Xudo fir'avnni ko'p marotaba o'zi va xalqining jazolantirilishi haqida aytib ogohlantirgan.

Xudo fir'avnga va uning xalqiga qanday jazolarni yuborgan? (7–11-boblar) [1]

Bu bizga Xudo haqida nimani o'rgatadi? (7:17) [2]

Xudo Qudratlidir; U fir'avndan ham kuchli (U shaytondan ham kuchlidir!)

Fir'avn baribir Xudoga qulqoq solmaydi.

Xudoning misrliklarga oxirgi hukmi qanday edi? [3]

Isroilliklar ham gunohkor edilar. To'ng'ich o'g'illarning o'limi nafaqat misrliklarga, balki isroilliklarga ham, umuman, Xudoga itoat qilmagan barchaga berilgan jazo edi.

Ana shu dahshatli jazodan keyin fir'avn isroilliklarni qo'yib yubordi. Shunday qilib, ushbu jazo Xudoning xalqi uchun qutulish yo'li bo'lib xizmat qildi.

Muqaddas Kalomda biz har doim hukm va najotni birga ko'ramiz. Bu bizga Xudo haqida nimani aytadi? [4]

Najot

Chiqish 12:1–30 ni o‘qing.

Qon

Xudo isroilliklarni O‘z hukmidan asrab qoldi. Bu hukmga ko‘ra, har bir to‘ng‘ich o‘g‘il o‘lishi kerak edi.

Bu ularning oilasida sodir bo‘lmasligi uchun isroilliklar nima qilishlari kerak bo‘lgan? [5]

Xudo qonni ko‘rganida nima qiladi? (13-oyat) [6]

Shunda qo‘zining qoni to‘ng‘ich o‘g‘ilni o‘limdan saqlab qoladi. Har bir xonadonda o‘g‘il o‘rniga qo‘zi o‘ldi.

Yangi Ahd

Oradan 1500 yil o‘tgach Yahyo Iso haqida nima degan? (**Yuhanno 1:29**) [7]

Bu nima degani? [8]

Ovqat

Chiqish 12:8: Isroilliklar yana nima qilishlari kerak? [9]

Xudo o‘z xalqini nafaqat himoya qildi, balki oziqlantirdi ham. Ular qo‘zining go‘shtini yeb to‘ydilar, bu ularga yurish uchun kuch bo‘ldi. Chunki ertasi kuni ularni uzoq va mashaqqatli yo‘l kutib turardi!

Xudo O‘z xalqini nafaqat o‘sha najot kechasi oziqlantirdi, balki keyingi 40 yil davomida sahroda yashaganlarida ham ularning qornini to‘ydirishda davom etdi.

Chiqish kitobi 16:31–35 ni o‘qing. Isroilliklar 40 yil davomida har kun nima yeganlar? [10]

Ular yo‘lda ekanlarida, Xudo ularning barcha ehtiyojlarini qondirdi.

Yangi Ahd

Yuhanno 6:35 da Iso nima dedi? [11]

Bu nima degani? [12]

Biz nonni nima qilishimiz kerak? (**Yuhanno 6:51**) [13]

Bu nima degani? [14]

Iso Masih Xudoning hukmidan bizni xalos qilish uchun o'ldi. Bundan tashqari, U abadiy hayotga ega bo'lishimiz uchun hamda abadiy maskanimizga olib boradigan yo'lida yurishimiz uchun bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bizlarga beradi.

Xudo nima qilganini esga oling!

Bayram!



Nima uchun ular har yili Xamirturushsiz non bayramini nishonlashlari kerak edi? (Chiqish 12:14, 25–27) [15]

Yangi Ahd

Biz gunoh qulligidan va o'limdan ozod bo'lganimizni qanday nishonlaymiz? (1-Korinfliklarga 11:23–26) [16]

Non va sharob nimaning ramzi? [17]

Nega Isoning o'limini esga olishimiz kerak? [18]

Isoning biz uchun qilgan ishlarini hech qachon unutmasligimiz uchun nima qilishimiz kerak?

Bu eng yaxshi yangilik! Siz bu haqda kimga aytmoqchisiz?

Javoblar

- 1 – Suv qonga aylanadi, qurbaqalar, burgalar, so'nalar, chorvaning o'limi, chipqon, do'l ofati, chigirtka ofati, zulmat, to'ng'ichlarning o'limi.
- 2 – Xudo Egamizdir.
- 3 – Xudo har bir xonadonda to'ng'ichlarning jonini oldi.
- 4 – U ham Hukmdor, ham Qutqaruvchidir.
- 5 – Ular bitta qo'zi yoki uloqchani so'yib, uning qonini xonadoni eshiklarining kesakisi ustiga va yonlariga surishlari kerak edi.
- 6 – Xudo qonni ko'rGANIDA, tegmay o'tadi, ularni o'ldirmaydi.
- 7 – *Ana, Xudoning Qo'zisi! U dunyoni gunohdan poklaydi!*
- 8 – Iso bizning o'rnimizga o'lishini, Uning qoni bizni o'limdan saqlab qolishini bildiradi.
- 9 – Xudo ularga yeishni buyurdi! Ular bir qo'zi yoki uloqchaning go'shtini pishirib yeishlari, hamda xamirturushsiz non yopib, yeishlari kerak edi.
- 10 – Manna.
- 11 – *Men hayot noniman. Mening oldimga kelgan odam sira och qolmaydi, Menga ishongan odam hech qachon chanqamaydi.*
- 12 – Faqat Iso bizning Xudo bilan muloqotda bo'lish tashnaligimizni (ochligimizni) qondira oladi.
- 13 – Biz buni yeishimiz kerak!
- 14 – Biz Iso bilan muloqotda bo'lishimiz kerak. Iso bizga gapirishiga, bizni o'zgartirishiga yo'l qo'yib berishimiz kerak. Biz har kuni Xudo Kalomini o'qib, oyatlar ustida fikrlashimiz va ibodat qilishimiz kerak.
- 15 – Xudo ularni Misr qu'lligidan qanday qutqarganini, qo'zining qoni ularni o'limdan saqlab qolganini esga olish uchun buni qilishlari kerak.
- 16 – Isoning tanasi va qoni.
- 17 – Isoning tanasi va qoni.
- 18 – Chunki Iso Masih Xudo bizning gunohlarimizdan o'tishi va U bilan birga abadiy hayotda yashashimiz uchun o'ldi!

9-dars:

Dengizni kesib o'tish



Chiqish 14:1–15:2 ni o'qing.

Fir'avn oxir-oqibat isroilliklarni qo'yib yubordi. Ular ketishdi. Keyin esa fir'avn fikridan qaytdi va askarlari bilan ularning ortidan quvib ketdi.

Fir'avnning lashkarini ko'rgan isroilliklar o'zlarini qanday his qildilar? [1]

Nima uchun isroilliklar misrliklardan qochib qutula olmadilar? [2]

Bu dahshatli vaziyat edi!

Isroilliklar qutulish uchun nima qilishlari kerak edi? (14:22-oyat) [3]

Xudo isroilliklarning qanchasini qutqardi? [4]

Qancha Misr askari halok bo'ldi? (14:28-oyat) [5]

Yangi Ahd

Bizning dushmanimiz kim? (1-Butrus 5:8) [6]

Biz imonli bo'lishdan oldin kim edik? (Yuhanno 8:34) [7]

Odamlar o'zlarini gunoh va shaytondan qutula oladilarimi? [8]

Xuddi Isroil xalqi kabi barcha insonlar umidsiz ahvoldalar.

Muso Isroil xalqini ozodlikka olib chiqish uchun dengizda ularni oldinga boshlab bordi.

Isroil xalqi dengizning o'tasidan o'tib borar ekanlar, o'zlarini go'yo o'limga ketayotgandan his qildilar. Qo'rqinchli bo'lsa ham, ozod bo'lish uchun bu yagona yo'l edi.

Xuddi shunday, Iso ham bizni abadiy hayotga ega qilish uchun o'limdan o'tdi! U bizning gunohlarimiz uchun bir martalik qurbanlik sifatida xochda o'ldi. Keyin o'limdan tirildi va bu orqali biz uchun abadiy hayot yo'lini tayyorlaganini ko'rsatdi. Iso bizni boshlab oldinda yurib bordi va hozir ham dengizdan o'tar ekanmiz, Iso oldinda yurib bizni boshlab boradi! Yer yuzidagi hayotimiz tugaganida esa, Iso bizni Va'da Qilingan Yurtga — abadiyatga olib boradi!

Xuddi shunday, Isoga ergashishga qaror qilganimizda, biz o'zimiz uchun o'lishimiz kerak.

O'zimiz uchun o'lган holda, endi Isoga hayotimizning Xo'jayini bo'lishiga izn berishimiz lozim. Mana shu haqiqiy ozodlik uchun yagona yo'ldir!

O'zimiz uchun o'lish qanaqa bo'ladi o'zi? Bunda qanday narsalarni qilishni to'xtatishimiz kerak? Va qanday narsalarni qilishni boshlashimiz kerak?

Ibroniylarga 2:14–15: *Bu farzandlar foniy bandalar bo'lganlari uchun, Iso ham, ular singari, inson bo'ldi. Zero, U O'z o'limi orqaligina o'lim keltiruvchi iblisning qudratini yo'q qila oldi va umr bo'yi o'lim qo'rquviga qul bo'lgan odamzodni ozod qilishga muvaffaq bo'ldi.*

Iso O'z o'limi orqali nimaga erishdi? [9]

Yuhanno 14:1–3: *Iso shogirdlariga dedi:*

- *Yuragingiz siqilmasin. Xudoga ishoning, Menga ham ishoning! Otam Xudoning uyida maskan ko'p. Shunday bo'lmaganda edi, sizlarga bularni aytib o'tirmagan bo'lardim. Men sizlarga joy tayyorlagani ketyapman. Men borib sizlarga joy tayyorlayman-u, sizlarni O'zim bilan olib ketgani kelaman. Toki Men bo'lgan joyda sizlar ham bo'linglar.*

Iso bizni qayerga olib ketadi? [10]

1-Salonikaliklarga 4:16–17: *Zotan, Rabbimiz Iso Masih buyuk bir sado, bosh farishtaning ovozi va Xudoning karnayi sadosi ostida samoden tushib kelganda, birinchi bo'lib Unga ishongan holda o'lganlar tiriladi. So'ng biz — hali tirik bo'lganlar havoda Rabbimizni qarshilab olish uchun ular bilan birga bulutlarda ko'tarilamiz. Shunday qilib, hammamiz Rabbimiz bilan abadiy birga bo'lamiz.*

Iso bizni qachon O'zi bo'lgan joyga olib ketadi? [11]

Qo'shimcha mulohaza mavzusi: Suvga cho'mdirilish

Rimliklarga 6:4: *Biz suvga cho'mdirilib, Masih bilan birga o'ldik va ko'mildik. Otamiz Xudoning ulug'ver quadrati bilan Iso Masih o'likdan tirlganiday, biz ham yangi hayotga ega bo'lamiz.*

Suvga cho'mdirilish nimani ifodalaydi? [12]

Bu xuddi isroilliklarning dengizdan o'tganiga o'xshaydi.

Najot topgandan keyin nima qilishimiz kerak?

Chiqish 14:31–15:1: Isroilliklar dengiz orqali o'tayotganlarida, qanday uchta narsani qilishgan? [13]

Xuddi shu singari, Iso bizni qutqarganda, nima qilishimiz kerak? [14]

- Xudodan qo'rqqaningiz qanday namoyon bo'ladi? [15]
- Xudoga va Isoga ishonishingiz qanday namoyon bo'ladi? [16]
- Xudoni qanday ulug'laymiz? [17]

Bizning Xudoga bo'lgan hamdu sanolarimiz Unga quvonch keltiradi, shu jumladan, o'zimizga ham! Xudoni har kuni ulug'lash, masalan, kechki ovqatdan oldin Unga hamdu sano aytish — juda yaxshi odat!

Musoning Xudo xalqini dengizdan o'tkazgani haqidagi hikoya Isoning bizlar uchun qilgan ishini tasvirlashga qanday yordam beradi? [18]

Bugun Xudo sizga nimalarni o'rgatdi?

Ushbu dars haqida kim bilan bo'lisha olasiz?

Javoblar

- 1 – Isroilliklar vahimaga tushdilar!
- 2 – Ular qocha olmadilar, chunki bir tomonda dengiz, boshqa tomonda esa fir'avn askarlari bilan quvib kelayotgandi. Bunday bo'limganda ham, baribir ular sekin yurardilar. Chunki ularning bolalari, keksa yoshdagilar va ko'plab yuklari bor edi; bu esa ularning yurishini sekinlashtirardi.
- 3 – Xudo ularni qutqarishi uchun ular dengizdan o'tishlari kerak edi.
- 4 – Hammasini!
- 5 – Hammasi!
- 6 – Fir'avn isroilliklarning dushmani bo'lgani kabi, iblis ham bizning dushmanimiz.
- 7 – Isroilliklar fir'avnga qul bo'lganiday, biz ham gunohning quli edik.
- 8 – Yo'q! Isroilliklar qutula olmaganlariday, biz ham qutula olmaymiz.
- 9 – Xuddi Xudo fir'avnning kuchini yo'q qilib, O'z xalqini ozod qilganiday, Iso iblisning kuchini yo'q qilib, bizni ozod qildi!
- 10 – Va'da qilingan makondan ancha a'lороq bo'lgan Otasining uyiga U bilan birga bo'lishga.
- 11 – Rabbimiz Iso osmondan qaytib kelganida va bu dunyodan ko'z yumgan imonlilar qayta tirilganlarida.
- 12 – Biz suvg'a tushganimizda, Iso bilan birga o'lamiz. Suvdan chiqqanimizda esa, yangi hayotda Iso bilan birga yashash uchun chiqamiz.
- 13 – Ular Xudodan qo'rqdilar.
Ular Xudoga va Uning quli Musoga ishondilar.
Ular Xudoni ulug'ladilar.
- 14 – Biz Xudodan qo'rqishimiz kerak.
Xudoga va Uning quli Isoga ishonishimiz kerak.
Xudoni ulug'lashimiz kerak.
- 15 – Xudodan qo'rqsak, gunoh qilmaymiz. Xudo biz qilayotgan hamma narsani ko'rib turadi: g'iybат qilsak, nolisak, yomonlik qilsak, telefonda yomon narsalarni ko'rsak — bularning barini U ko'rib turadi.
- 16 – Tashvishga tushmaymiz. Masalan, agar Xudo Uning nuri bo'lishimiz uchun bizdan boshqa biron joyda yashashimizni xohlayotgan bo'lsa, hatto biz u yerda yashashni xohlamasak ham, Unga ishonishimiz kerak; Uning O'zi bizga g'amxo'rlik qiladi!
- 17 – So'zlarimiz bilan Xudoni ulug'laymiz, Unga hamdu sanolar aytamiz!
- 18 – Muso payg'ambar isroilliklarni ozodlikka olib chiqish uchun dengizdan (o'limdan) o'tdi. Iso Masih esa bizni abadiy hayotga olib borish uchun hamda gunoh, o'lim va shayton qulligidan ozod qilish uchun o'limdan o'tdi!

10-dars:

Qurbanliklar



Azal azaldan odamlar Xudoga qurbanliklar keltirish orqali sajda qilib kelganlar. Masalan, Qobil bilan Hobil (Ibtido 4-bob).

Odamlar har doim Xudoning marhamatini izlaganlar. Uning g'azabini qaytarishga, Uni rozi qilishga intilganlar. Bugungi kunda ko'plab madaniyatlarda shunga o'xshash odatlar mavjud. Odamlar Xudoning g'azabini to'xtatish uchun qurban (o'lim) kerakligini tushunadilar.

Nimaga odamlar har doim Xudoga qurbanliklar keltirishgan? Ularning bundan eng ko'p xohlagan narsasi nima? [1]

Faqat Musoning davriga kelib, Xudo O'z xalqiga qanday qilib Unga to'g'ri sajda qilishni tushuntirgan.

Ular Xudoga sajda qilganlarida, jonliqni so'yib, uni qurbongoh ustida olovda kuydirishlari kerak edi. Bu ish esa ular ikkita narsani anglab yetishlari uchun qilinardi:

1. **Gunoh jazoga loyiqidir va bu jazo o'limdir.** Odamning Xudo bilan munosabati qayta tiklanishi uchun kimdir o'lishi kerak.

Isroil xalqi har kuni gunoh qilgan va shu sababli oliy ruhoniylar har kuni bir jonivorni qurbanlikka keltirishlari kerak edi.

2. **Odam o'rniga qurbanlik.** Jonivorlar odamlarning o'rniga o'lardilar. Hayvonlar emas, balki odamlar gunoh qilganlar. Odamlar o'zlari o'lmashligi uchun ularning o'rniga o'lishga nimadir kerak edi.

Odamlar qurbanlik qilganlarida, qaysi ikkita haqiqatni tushunishlari kerak edi? [2]

Levilar kitobi

Levilar kitobi bizga 5 xil qurbanlik turlarini tushuntiradi. Bu qurbanliklar orqali Xudo O'z xalqiga O'zi bilan qay tarzda to'g'ri munosabatda bo'la olishlarini o'rgatmoqchi edi.

Levilar 1-bob — Kuydiriladigan qurbanliklar

Levilar 2-bob — Don nazri

Levilar 3-bob — Tinchlik qurbanligi

Levilar 4-bob — Gunoh qurbanligi

Levilar 5-bob — Ayb qurbanligi¹

Biz hozir kuydiriladigan qurbanliklar va tinchlik qurbanligini ko'rib chiqamiz.

Levilar 1-bob: Kuydiriladigan qurbanliklar

Har kuni ertalab va kechqurun ruhoniylar qurbanliklarni kuydirishlari kerak edi. Ular qurbanlikning hammasini olovda kuydirishlari va hech kim undan yemasligi kerak edi. Bu qurbanlik ularga Xudo butun hayotimizga loyiq ekanligini o'rgatdi. Bu esa bizga hayotimizni to'liqligicha Xudoga berishimiz kerakligini o'rgatadi.

Biz bu haqda Yangi Ahdda ham o'qiymiz.

Rimliklarga 12:1: *Shunday qilib, ey birodarlarim, Xudoning marhamati haqi sizlarga yolvoraman. O'z tanangizni tirik, muqaddas va Xudoga manzur bo'ladigan qurbanlik sifatida bag'ishlang. Xudoga loyiq bo'lgan asl xizmat mana shudir.*

Biz o'zimizni va butun hayotimizni Xudoga topshirishimiz kerak!

Kuydiriladigan qurbanliklar odamlarga nimani eslatadi? [3]

Yangi Ahddagi qaysi oyat buni bizga eslatadi? [4]

Levilar 3-bob: Tinchlik qurbanligi

Ruhoniylar har bir qurbanlikning qaysidir qismlarini yeyishlari mumkin edi, lekin kuydiriladigan qurbanliklar bundan mustasno bo'lgan.

Boshqa isroilliklar esa faqat tinchlik qurbanligi go'shtidan yeya olganlar. Odamlar bu go'shtni Xudoning huzurida yeyishardi. Bu ularغا insonlar qurbanlik orqali Xudo bilan muloqotga ega bo'la olishlarini ko'rsatgan.

Yangi Ahdda, Xudoning xalqi birga non sindirib, uzum ne'matidan ichganlarida, bu ularga Xudo bilan muloqot qila olishlarini ko'rsatadi. Non — Isoning tanasi, uzum ne'mati esa Uning qonini tasvirlaydi. Chunki Isoning o'limi gunohlarimizning to'lovi uchun qurbanlik edi.

Tinchlik qurbanligi odamlarga nimani eslatadi? [5]

Yangi Ahdda Xudoning xalqi buni qay tarzda esga oladi? [6]

¹ Bilmasdan qilingan gunoh uchun qurbanlik.

Hayvon qurbonliklari yetarlimi?

Ibroniylarga 10:1–10 ni o'qing. Gunohlarimizdan poklash uchun hayvon qurbonliklari yetarli emasligini qanday bilamiz? (1–2-oyatlar) [7]

Qurbonliklarning qanday foydasi bor edi? (3-oyat) [8]

Iso nima uchun dunyoga keldi? (10-oyat) [9]

Eski Ahdni o'qiganimizda, Iso Masihning biz uchun qilgan ishini yaxshiroq anglab yetamiz. Xudo bilan munosabatimizni tiklash uchun bizga qurbonlik kerak. Hayvon qurbonliklari esa yetarli emas edi. Faqat Isoning qurbonligi bizni gunohlarimizdan chinakamiga tozalab, Xudo bilan munosabatimizni tiklashga qodir!

Isoning Yangi Ahdda qilgan ishini tushunishimizga Eski Ahd qanday yordam beradi? [10]

Gunoh qilib qo'yganimizda, nima qilishimiz kerak? [11]

Gunoh bizning Xudo bilan munosabatimizni buzadi. Tavba esa Xudo bilan munosabatimizni qayta tiklaydi. Biroq shuni har doim esda tutingki, Xudo muqaddasdir va doimiy isyonkor gunoh Xudoning g'azabiga sabab bo'ladi.

Qurbonliklar haqida do'stlaringiz bilan suhbatlashganingizda, bir marta va abadiy keltirilgan Qurbonlik haqida qanday aytib bera olasiz?

Javoblar

- 1 – Odamlar Xudoning qut-barakalariga ega bo‘lishga, Uning g‘azabini qaytarishga intilganlar.
- 2 – Gunohning evazi — o‘lim, va odamlarning o‘rniga o‘lish uchun nimadir kerak.
- 3 – Xudo butun hayotimizga loyiq.
- 4 – **Rimliklarga 12:1:** *Shunday qilib, ey birodarlarim, Xudoning marhamati haqi sizlarga yolvoraman. O‘z tanangizni tirik, muqaddas va Xudoga manzur bo‘ladigan qurbanlik sifatida bag‘ishlang. Xudoga loyiq bo‘lgan asl xizmat mana shudir.*
- 5 – Qurbanlik orqali Xudo bilan muloqot qila olamiz.
- 6 – Non sindirish bilan.
- 7 – Odamlar doimo yangi qurbanliklar qilishlari kerak edi.
- 8 – Ular odamlarga Xudo bilan munosabatlarni buzgan gunohlarini eslatib turar edi.
- 9 – Iso bizning gunohlarimiz uchun bir marta va abadiy qurban bo‘lish uchun dunyoga keldi.
- 10 – Eski Ahd bizlarga Xudo bilan munosabatimizni tiklash uchun qurbanlik kerakligini tushuntiradi. Hayvon qurbanliklari yetarli emas edi. Faqat Isoning qurbanligi bizni gunohlarimizdan chinakamiga tozalab, Xudo bilan munosabatimizni tiklashga qodir!
- 11 – Tavba qilish.

11-dars:

O'nta amr



Chiqish kitobi 20:1–17 ni o'qing.

Biz nima uchun bu qonunlarga rioya qilishimiz kerak?

Odamlar ilohiy amrlarga rioya qilsak, jannatga boramiz, deb o'ylashadi. Ular Xudo yetarlicha yaxshi bo'lgan insonlarni jannatiga qabul qiladi, deb o'ylaydilar. Biroq Muqaddas Kalom bunday o'rgatmaydi. Biz hech qachon Xudo kabi yaxshi bo'la olmaymiz. Muqaddas Kitobning ajoyib xabari shundan iboratki, bizlar hatto gunohkor bo'lsak ham, Xudo bizga najot beradi! Amrlariga itoat qilishimizning sababi — U bizni allaqachon qutqarib, O'zining xalqi qilgan. Xudoning najotini qabul qilganimizda, Unga itoat etish bizni quvontiradi.

Xudo isroilliklarni qullikdan xalos qilganida, Uning O'zi ularning yangi Egasi va Shohi bo'ldi. Ana undan keyin Xudo ularga itoat qilishlari uchun yaxshi qonunlar berdi. Ularning itoatkorligi esa ularni allaqachon qutqargan yangi Shohiga tegishli ekanliklarini ko'rsatardi.

Xuddi shu kabi, Yangi Ahdda ham Xudo bizni shayton qulligidan ozod qilganida, Iso bizning yangi Egamiz va Shohimiz bo'ldi. Demak, endi biz Unga xizmat qilib, Unga itoatda bo'lishimiz kerak! Bu itoatkorligimiz esa bizni allaqachon qutqargan yangi Shohimizga tegishli ekanligimizni ko'rsatadi.

Biz nima uchun bu qonunlarga rioya qilishimiz kerak? [1]

Yangi Ahd qonuni

Bir kuni Isoga savol berib, Tavrotdag'i qaysi amr eng buyuk, deb so'rashdi. Bunday yaxshi savolga Iso qanday javob berdi? **Matto kitobi 22:37–40** ni o'qing.

Ikkita eng muhim amr nima? [2]

Bularga amal qilish yolg'iz o'zimizga imkonsiz, albatta. Biroq Xudo bizga O'zining Muqaddas Ruhini beradi, shunda biz haqiqatan Uning amrlariga ko'ra yashashni o'rganamiz.

Xudoning qonunlari bizga Xudoning tabiatini ko'rsatadi. Biz Xudo suratiga o'xhash qilib yaratilganmiz (Ibtido 1:26). Xudo bizning tabiatimiz ham tobora Unikiga o'xhash bo'lib borishini xohlaydi.

Keling, Xudovand O'z xalqiga bergen eng muhim o'nta amr haqida o'ylab ko'raylik.

Ilk 4 amr

Ilk 4 amr bizga Xudo bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

1. Birinchi amr nima? (Chiqish kitobi 20:3) [3]

Xudoning qaysi xislati ernikiga o'xshaydi? [4]

Bu amr keyingisi bilan chambarchas bog'liq:

2. Ikkinci amr nima? (4-oyat) [5]

But nima? [6]

Dunyoda Xudoning suratini qayerlarda ko'ramiz? (Ibtido 1:26) [7]

Bizni hayratlantirgan odamlarga, afsuski, sig'inishni boshlashimiz juda oson!

Inson qo'li bilan yaratilgan butlarga sajda qilishning yomon tomoni nimada? [8]

Biz hech qachon biron narsaning tasviriga, haykal yoki but-sanamlarga, hatto Iso tasvirlangan bo'lsa ham, ularga ibodat qilmasligimiz kerak.

Biz uchun Xudodan azizroq bo'lgan har qanday narsa butga aylanib qolishi mumkin.

Odamlar qanday xilma-xil butlarga sajda qilishadi? [9]

3. Uchinchi amr nima? (Chiqish kitobi 20:7) [10]

Bizning amallarimiz so'zlarimizga mos kelishi kerak. Ikkiyuzlamachi bo'lmasligimiz lozim. Agar Xudoni sevaman desak, Unga itoat qilishimiz kerak.

Rimliklarga 2:24: «*Sizlarni deb, xalqlar orasida Xudoning nomi haqorat qilinmoqda*».

Qanday qilib Xudoning nomiga haqorat keltiramiz? [11]

Qanday qilib Xudoning nomini ulug'lashimiz mumkin? [12]

Luqo 6:46: *Nega sizlar Meni: «Yo Rabbiy, yo Rabbiy!» deb chaqirasiz-u, ammo aytganlarimni qilmaysizlar?*

Bu odamlardagi muammo nimada? [13]

Odamlar yana qanday qilib Xudoning nomini behuda tilga olishadi? [14]

4. To‘rtinchi amr nima? (Chiqish kitobi 20:8) [15]

Biz haftada bir kun ishdan dam olishga hamda Xudo bilan va imonlilar bilan muloqot qilishga vaqt ajratishimiz kerak. Bu kun Shabbat yoki dam olish kuni deb ataladi. Xudo bilan va odamlar bilan munosabatimiz ishdan ko‘ra muhimroqdir!

Shabbat kuniga riosa qilish, o‘z kuchimizga emas, balki Xudoga ishonishimizni ko‘rsatadi. Agar haftada yetti kun ishlayotgan bo‘lsak, bu narsa butun ehtiyojlarimizni qondirish uchun o‘z kuchimizga suyanayotganimizni ko‘rsatadi. Agar haftada bir kun ishlamasak, ehtiyojlarimizni qondirishi uchun Xudoga suyanayotganimizni ko‘rsatadi.

Agar Shabbat kunini muqaddas deb bilib, unga riosa qilsak, bu Xudoni sevishimizga qanday yordam beradi? [16]

5-dan 10-gacha bo‘lgan amrlar

Keyingi 6 ta amr bizga bir-birimiz bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.

Agar birinchi o‘rinda Xudoni sevmasak (ilk 4 amr), bir-birimizni ham seva olmaymiz (oxirgi 6 amr).

Keyingi 6 ta amrni bajarish uchun nima qilishimiz kerak? [17]

Keyingi 6 ta amr nima? (12–17-oyatlar) [18]

Bu amrlarni bajarish osonmi?

Matto 5:27–28: *«Zino qilma», — deb aytilganini ham eshitgansizlar. Lekin Men sizlarga aytaman: agar siz ayolga shahvat bilan qarasangiz, xayolingizda u bilan zino qilgan bo‘lasiz.*

Bu oyatlarda Iso bizning fikrlarimiz haqida nima deydi? [19]

Egamiz Xudo bizning nafaqat tashqi tomongan yaxshi ko‘rinishimizni, balki ichki dunyomizda ham yaxshi bo‘lishimizni xohlaydi. Xudoga shukur, U bizga Muqaddas Ruhini berib, tashqi tomongan ham, ichki dunyomizda ham Unga itoat qilishni o‘rgatadi! Buning uchun Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin!

O‘nta amrni o‘qiyotganimizda, o‘y-xayollarimiz haqida nimani yodda tutishimiz kerak? [20]

Qanday qilib biz ichki va tashqi tomongan itoat qilishimiz mumkin? [21]

Egamiz Xudodan Muqaddas Ruhni berishini so'rab, ibodat qiling. Toki sizning tabiatingiz ham tobora Unikiga o'xhash bo'lib borsin!

Xarakteringiz sizning kimga tegishli ekaningizni ko'rsatmoqda?

Qo'shimcha: Men qaysi qonunlarga amal qilishim kerak?

XXI asrda O'rta Osiyoda yashayotgan, yahudiy bo'limgan bizlar uchun amal qilishimiz kerak bo'limgan ilohiy qonunlar bormi? [22]

Tavrotda ko'plab qonunlar mavjud. Muayyan bir qonunga bo'ysunishimiz kerakmi yoki yo'qmi, buni qanday bilamiz?

Biz Muso davridagi isroilliklar yashagan muhitdan farqli muhitda yashayapmiz. Qonunlarga bugun itoat qilishimiz kerakmi yoki yo'qmi, buni bilish uchun o'zimizga quyidagi ikki savolni berib ko'rishimiz mumkin:

- 1. Bu qonun o'sha paytda isroilliklarga nimani o'rgatgan?**
- 2. Yangi Ahd bizga ushbu qonun va ushbu mavzu haqida nimani o'rgatadi?**

Biz Tavrot qonunlariga amal qilishimiz kerakmi yoki yo'qmi, buni bilish uchun qanday ikkita savolni o'zimizga berishimiz kerak? [23]

Ikkita misol:

1. Oziq-ovqat haqidagi qonun

Levilar 11-bob: Go'shtning ba'zi turlarini yeyish mumkin emasdi (7-oyat: cho'chqa go'shtini).

O'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan birinchi savol qanday? [24]



Levilar 11-bob, 45-oyat bizga nimani o'rgatadi? [25]

Ular boshqa xalqlarga o'xshab, gunohda yashamasliklari kerak edi. Ular Xudo uchun muqaddas bo'lishlari lozim. Xudoning xalqi boshqa xalqlardan farq qilishi kerak.

O'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan ikkinchi savol qanday? [26]

1-Butrus 1:15–16-oyatlar bizga nimani o'rgatadi? [27]

Egamiz Xudo bizning muqaddas bo'lishimizni istaydi. Biz barcha odamlar yashaganday yashamasligimiz kerak, chunki biz Xudoga tegishlimiz.

Mark 7:18–19-oyatlar bizga nimani o'rgatadi? [28]

Shunday ekan, Levilar kitobini o'qib, cho'chqa go'shti harom ekan, deya tashvishlanmaylik! O'z hayotimiz haqida o'ylab ko'raylik: biz muqaddas yashayapmizmi?

Bu qonun asosida yaqinimizni qanday sevishimiz kerak?

1-Korinfliklarga 8:13 «*Agar biror ovqatni yeyishim birodarimning gunoh qilishiga sabab bo'lsa, uni vasvasaga solmaslik uchun endi men umrbod o'sha ovqatni yemayman».*

Agar imonli birodaringiz biron diniy yo'l bilan qurbanlikka keltirilgan hayvon go'shtidan yeganingiz uchun vasvasaga tushsa, siz uni yeyishingiz to'g'rimi? [29]

2. Ko'z evaziga ko'z, tish evaziga tish

Chiqish 21:23–25: «*Agar boshqa zarar yetgan bo'lsa, jon evaziga jon, ko'z evaziga ko'z, tish evaziga tish, qo'l evaziga qo'l, oyoq evaziga oyoq, kuyuk evaziga kuyuk, yara evaziga yara, lat yeyish evaziga lat yetkazish bilan javob bersin».*



O'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan birinchi savol qanday? [30]

Bu to'g'ri jazo belgilashlari uchun hakamlarga berilgan qonun edi. Bu — hakamlar berishi mumkin bo'lgan eng og'ir jazo edi. Bundan og'irroq jazo bo'lmasligi kerak edi. Hakam odamlarning birlaridan shafqatsiz o'ch olishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. (Ibtido 4:24 ga qarang.) U adolatli va rahmdil bo'lishi kerak. Ehtimol, aybdor kishi ko'zi yoki tishidan mahrum bo'lish o'rniغا pul to'lashi ham mumkin bo'lgan (Chiqish 21:26–27, 30). Shunday qilib, bu oyatlar ularga Xudoning adolatli va rahmdil ekanini o'rgatgan.

Chiqish 21:23–25-oyatlar bizga nimani o'rgatadi? [31]

O'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan ikkinchi savol qanday? [32]

Matto 5:38–39-oyatlar bizga nimani o'rgatadi? [33]

Rimliklarga 12:19-oyat bizga nimani o'rgatadi? [34]

Egamiz Xudo hali ham adolathli va rahmdildir!

Tez orada Iso dunyoni hukm qilish uchun keladi. U har kimga qilmishiga yarasha sazosini beradi. U adolat o'rnatadi!

Xudo hamma narsani ko'rib turibdi. Odamlar bizni quvg'in qilganlarida, ularni kechirishga qiynalamiz. Biroq Muqaddas Kitob kechirishimiz va sevishimiz kerakligini aytadi (Matto 6:14–15). Bu biz uchun imkonsiz, ammo Muqaddas Ruhning yordami bilan buni qila olamiz!

Tavrot qonunlariga amal qilishimiz kerakmi yoki yo‘qmi, buni bilish uchun qaysi ikkita savolni o‘zimizga berishimiz kerak? [35]

Muqaddas Ruh sizdan, Uning yordami bilan, to’liq bo’ysunishingizni xohlayotgan biror bir qonun bormi?


Xudodan muqaddas hayot kechira olishingiz va Uning sevgisini atrofingizdagи barchaga ko’rsata olishingizni so’rab, bir-biringiz uchun ibodat qiling.

Javoblar

- 1 – Chunki Xudo bizni qutqardi va bizni O'zining xalqi qildi. U bizning Shohimiz!
- 2 – «*Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan seving*». Bu birinchi va eng buyuk amr. Ikkinchisi esa shunga o'xshashdir: «*O'zgani o'zingizni sevganday seving*».
- 3 – Menden boshqa xudolarga sajda qilmang.
- 4 – Xudo rashkchidir! Xuddi er o'z xotinining boshqa erkaklarni sevishini xohlamaganidek, Xudo ham bizning boshqa xudolarga sajda qilishimizni va ularni sevishimizni xohlamaydi.
- 5 – *O'zlariningizga hech qanday butni yasamang*.
- 6 – Biz topinadigan Xudoning har qanday surati.
- 7 – Barcha odamlar Xudoning suratidirlar!
- 8 – But Xudoni aks ettirolmaydi. Agar qo'llarimiz bilan Xudoning tasvirini yasay olamiz, deb o'ylasak, bu bilan Xudoni haqorat qilgan bo'lamiz.
- 9 – Biz sajda qiladigan tasvir yoki butlar: siyosiy rahbarlar, mashhur odamlar, pul, uy-joy va hakazo.
- 10 – *Men, Egangiz Xudoning ismini suiste'mol qilmang*.
- 11 – Gunoh qilib, Xudoga itoatsizlik qilganimizda.
- 12 – Xudoga itoat qilganimizda, Uni ulug'lagan bo'lamiz.
- 13 – Ular Xudoni sevaman deb turib, Unga itoat qilmaydilar.
- 14 – Agar biror narsa noto'g'ri bo'lsa, ular Xudoni ayblashadi («Ey Xudo!»). Ishlari yaxshi ketganda esa Xudoni ulug'lashmaydi.
- 15 – *Shabbat kunini muqaddas deb biling, bu kunga rioya qilib yuring*.
- 16 – Xudo bilan va imonlilar bilan uchrashish uchun vaqt ajratishimizga yordam beradi.
- 17 – Ilk 4 amrga amal qilishimiz kerak!
- 18 – 5. Ota-onangizni hurmat qiling.
6. Qotillik qilmang.
7. Zino qilmang.
8. O'g'rilik qilmang.
9. Yolg'on guvohlik bermang.
10. Boshqaga qarashli bo'lganga ko'z olaytirmang.
- 19 – Ishlarimiz kabi fikrlarimiz ham muhim!
- 20 – Egamiz Xudo bizlar nafaqat tashqi ko'rinishdan, balki ichki dunyomizda ham yaxshi bo'lishimizni xohlaydi!
- 21 – Xudo bizga Muqaddas Ruhini berib, ham tashqi tomondan, ham yuragimizda itoat qilishni o'rgatadi!
- 22 – Ha!
- 23 – Bu qonun o'sha paytda isroilliklarga nimani o'rgatgan? Yangi Ahd bizga bu qonun va bu mavzu haqida nimani o'rgatadi?
- 24 – Bu qonun o'sha paytda isroilliklarga nimani o'rgatgan?
- 25 – *Muqaddas bo'linglar!*
- 26 – Yangi Ahd bizga bu qonun va bu mavzu haqida nima o'rgatadi?
- 27 – *Butun yurish-turishingizda muqaddas bo'linglar*.
- 28 – Biz hamma narsani yeishimiz mumkin!
- 29 – Yo'q.
- 30 – Bu qonun o'sha paytda isroilliklarga nimani o'rgatgan?
- 31 – Xudoadolatli va rahmdil.
- 32 – Yangi Ahd bizga bu qonun va bu mavzu haqida nimani o'rgatadi?
- 33 – Qasos olmang, bizning vazifamiz — kechirish.
- 34 – *O'zingiz uchun o'zingiz qasos olmang, balki Xudoning g'azabiga yo'l qo'yib bering*.
- 35 – Bu qonun o'sha paytda isroilliklarga nimani o'rgatgan? Yangi Ahd bizga bu qonun va bu mavzu haqida nimani o'rgatadi?

12-dars:

Muqaddas chodir



Xudo biz bilan!

Chiqish 25:1–22 ni o‘qing.

Muqaddas chodir Xudo O‘z xalqi bilan uchrashishni va’da qilgan joy bo‘lib, uning ichki qismi ikkita xonadan iborat bo‘lgan.

Bu qanday xonalar edi? (Chiqish 26:33) [1]

Eng Muqaddas xonada nima bor edi? (25:10–22-oyatlar) [2]

Chiqish 25:10–22-oyatlarda bu borada nimalarni bilib olamiz? [3]

Karublar haqida nimalarni bilamiz? (Ibtido 3:24) [4]

Karublar Xudo judayam pok va muqaddas ekanini, shuning uchun odamlar Unga yaqinlasha olmasliklarini bildiradi.

Chodirning atrofida hovli va pardadan qilingan to‘sinq bo‘lgan.

Hovlida nima bor edi? **Chiqish kitobi 40:29–32** ga qarang. [5]

Ularning ikkisi ham odamlarni Xudoning huzurida poklash uchun ishlataligan.

Xudoning xalqi sahro orqali yurganlarida, Muqaddas chodir ham ular bilan birga edi.

Oradan 500 yil o‘tib, ular va’da qilingan yerda yashar ekanlar, shoh Sulaymon ma’bad qurdi. Ma’bad Muqaddas chodirga o‘xshatib qurilgan, lekin u judayam mustahkam va chiroyli bino edi. U yer Xudo O‘z xalqi bilan uchrashishga va’da qilgan joy edi.

Ma'bad nimasi bilan Muqaddas chodirga o'xshardi? [6]

Yangi Ahd

Yangi Ahd davrida yashayotgan bizlarga endi qo'l bilan qurilgan ma'bad kerak emas. Chunki imonlilar jamoati Xudoning ma'badidir.

1-Korinfliklarga 3:16: «*Nahotki bilmasangiz?! Sizlar Xudoning ma'badisizlar, Xudoning Ruhi orangizda maskan qilgan».*

Shunday ekan, endi biz Xudo bilan uchrashmoqchi bo'lsak, biron bir hashamatli joyga borishga ehtiyojimiz yo'q. Unda qayerga borishimiz kerak? [7]

Egamiz Xudo har doim O'z xalqi bilan birga!

Xudo muqaddas

Xudo bizni O'zi bilan yaqin munosabatda yashash uchun yaratgan. Xudoning xalqi uchun eng muhim narsa Xudoning ular bilan birga yashashi edi. Chunki Xudo oralarida bo'lmasdan ular Uning xalqi bo'lolmasdilar! Lekin ular Xudodan qo'rqishardi. Chunki Uning judayam muqaddasligini, o'zlarining esa gunohkorligini bilishardi. Ular Xudo gunohkorlarni qanday jazolashiga ham guvoh bo'lgandilar (masalan, fir'avnni).

Xudo Ahd sandig'i tepasida bo'lishni va'da qildi. Ahd sandig'i bamisol Xudoning taxti edi. Lekin hech kim Ahd sandig'ini ko'ra olmasdi. Chunki u Eng muqaddas xonada joylashtirilgan bo'lib, faqat olivy ruhoni yilda bir marta u yerga kirishi mumkin edi. Shu tarzda Xudo ular bilan birga edi, ammo parda bilan ajratilgan holda.

Xudoning xalqining muammosi nimada edi? [8]

Gunohkorlar qanday qilib muqaddas Xudo bilan uchrasha oladi?

Eski Ahdda, gunohlari kechirilishi uchun Isroil xalqiga ikkita narsa lozim bo'lgan.

1. Gunohkorlar o'rniga o'ladigan **qurbanliklar**.
2. Qurbanlikni amalga oshiradigan **oliy ruhoni**.

Gunohlari kechirilishi uchun isroilliklarga qanday ikkita narsa kerak bo'lgan? [9]

Biroq olivy ruhoniylar va qurbanliklar hech qachon mukammal bo'lmagan. Bular insonning gunoh muammosini butunlay hal qila olmagan. Lekin bu narsalar bizni gunoh muammomizni to'liq hal qila oladigan Masihning kelishiga tayyorlagan!

Yangi Ahd

Ibroniylarga 7:26–27: (Isoni nazarda tutib) *Bizga aynan shunday — muqaddas, beg'ubor va pok Oliy ruhoni kerak edi. Iso gunohkorlardan ayrilgan, osmondan ham yuksakka ko'tarilgan. U boshqa olivy ruhoniylar kabi, har kuni oldin o'z gunohlari uchun, keyin xalqning gunohlari uchun qurbanlik keltirishi kerak emas. Chunki U bir marta O'zini qurban qilib, xalqning gunohlari uchun keltiriladigan hamma qurbanliklarga chek qo'ydi.*

Iso boshqa oliy ruhoniylardan qanday farq qiladi? [10]

Isoning qurbanligi Eski Ahddagi qurbanliklardan qanday farq qiladi? [11]

Iso bizning komil Oliy ruhoniymiz va komil Qurbanligimizdir!

Mark 15:37–38 ni o'qing. Iso xochda jon bergan paytda ma'badda nima sodir bo'ldi? [12]

Bu esa bizni Xudodan ajratib turadigan pardanining olib tashlanganini ko'rsatadi! Bu eng yaxshi xabar! **Faqat Iso Masih gunohkorlarni Muqaddas Xudoning huzuriga olib bora oladi!**

Ibroniylarga 10:19–22 ni o'qing. Bu ajoyib imkoniyatni nima qilishimiz kerak? [13]

Yuhanno 14:6: *Iso unga dedi:*

- *Men yo'l, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Menden boshqa yo'l yo'q.*

Qanday asos bilan Xudoga yaqinlasha olamiz? [14]

Bugungi kunda boshqa odamlar qanday yo'llar bilan Xudoga kelishga harakat qilmoqdalar? [15]

Qanday qilib Eski Ahd Yangi Ahdni tushunishimizga yordam berishini ko'ryapsizmi?

Muqaddas Kitobni qanday qilib bir yilda to'liq o'qib chiqish mumkin?

Bilasizmi, agar kuniga Eski Ahddan ikki bob, Yangi Ahddan bir bob va bitta Zabur (juda uzun bo'lsa, yarmini) o'qisangiz, Muqaddas Kitobni bir yil ichida to'liq o'qib chiqolasiz!



Qanday qilib bir yil ichida Muqaddas Kitobni to'liq o'qib chiqish mumkin? [16]

Javoblar

- 1 – Muqaddas xona va Eng muqaddas xona.
- 2 – Ahd sandig‘i.
- 3 – Sandiq oltin qoplamali quti edi (10–11-oyatlar).
Sandiqning o‘ziga xos oltin qopqog‘i bo‘lib, uning ustida ikkita oltin karub o‘rnatilgan edi (17–18-oyatlar).
Sandiq ichida o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavha bor edi (21-oyat).
Xudo u yerda O‘z xalqi bilan uchrashishni va’da qilgan (22-oyat).
- 4 – Karublar hayot daraxtini qo‘riqlaydilar.
- 5 – Hovlida ikkita narsa bor edi: qurbongoh va suv to‘ldirilgan lagan.
- 6 – Ma’bad ikkita maxsus xonadan iborat edi: Muqaddas xona va Eng muqaddas xona. U yerda qurbongoh, hamda ashyolarni yuvish uchun lagan bor edi.
- 7 – Biz boshqa imonlilar bilan (ya’ni jamoat bilan) ko‘rishishimiz kerak.
- 8 – Xudo ular bilan birga bo‘lishga keldi, biroq ular gunohkor edilar; shu sababli Xudoga yaqinlasha olmasdilar.
- 9 – Qurbanliklar va oliy ruhoniy.
- 10 – U muqaddas, benuqson va pok edi.
- 11 – Iso bir marta va abadiy berilgan qurbanlikdir.
- 12 – Ma’baddagi parda yuqoridañ pastgacha yirtilib, ikkiga bo‘lindi.
- 13 – Xudoga yaqinlashimiz kerak!
- 14 – Xudoga Iso Masih orqali yaqinlasha olamiz.
- 15 – O‘z misollaringizni aytинг.
- 16 – Har kuni Eski Ahddan ikki bob, Yangi Ahddan bir bob va bitta Zabur (juda uzun bo‘lsa, yarmigacha) o‘qish orqali.

13-dars:

Cho'ldagi hayot



Xudo Sinay tog'ida O'z xalqiga ko'plab qonunlar berdi. Ular Muqaddas Chodir qurdilar. Bir yil o'tib, isroilliklar Sinay tog'ini tark etdilar va va'da qilingan yer tomon yo'lga chiqdilar.

Qo'rquv!

Sahroda kitobi 13:1–14:9 ni o'qing.

Nima uchun Muso va'da qilingan yerni ko'rib kelishga o'n ikkita odamni jo'natdi? [1]

Ular o'sha yer haqida nimalarni bilib keldilar? (13:28) [2]

«...sut va asal oqib yotibdi» nima degani? [3]

Ular shaharlar haqida nimani bilib keldilar? (13:29) [4]

Ular odamlar borasida nimalarni bilib keldilar? (13:33–34) [5]

O'n ikki kishidan nechtasi Xudoga ishonardi? (14:6–9) [6]

Demak, ularning nechtasi Xudoga ishonmagan? [7]

O'n kishi dev qomat odamlarni ko'rib, o'takasi yorildi.

Lekin Xolib bilan Yoshua (Xo'sheya) nima deyishdi? (31-oyat) [8]

Bu ikki kishi va qolganlari o'rtasida qanday farq bor? [9]

Lekin kim kuchliroq: Xudomi yoki odamlarmi? [10]

Ularning barchasi Xudo ular uchun nimalar qilganini bilishardi. Xudo ular uchun nimalar qildi? [11]

Ammo, baribir, ular Xudodan emas, odamlardan qo'rqdilar.

Afsuski, Xudo biz uchun nimalar qilganini unutib qo'yishimiz juda oson!

Xudoning biz uchun qilgan ishlarini qanday esda tutishimiz mumkin? [12]

Agar shunday qilsak, odamlardan emas, balki Xudodan qo'rqaqidan bo'lamiz.

Isroilliklar Xudodan qo'rqlay qo'yganlaridan keyin nima qilishdi? (14:1–4) [13]

Xuddi shunga o'xshab, biz ham Xudoga umid bog'lab suyanmasak, Unga itoat qilishni ham xohlamaymiz.

Sahroda kitobi 14:20–25 ni o'qing. Xudo ularga nima dedi? [14]

Qonunlar kitobi 1:1–3 ni o'qing. Isroilliklarning Xudoga ishonmasliklari oqibati nima bo'ldi? [15]

Xudo isroilliklarni qirq yil davomida, butun keksa avlod o'lib ketgunga qadar, sahroda yashashga majbur qildi. Va'da qilingan yurtga faqat ularning bolalari, Xolib va Yoshua kirishdi.

Nega Xudo bunday qildi? [16]

Agar Xudoga ishonmasak, bu dahshatli oqibatlarga olib keladi.

Yangi Ahd

Va'da qilingan yurt Xudoning Ibrohimga bergen va'dasining amalga oshganini ko'rsatadi (Ibtido 12:1). O'sha yurt Xudoning O'z xalqi bo'lgan isroilliklar orasida maskan qiladigan joy edi. Shuningdek, va'da qilingan yurt, keljakda Xudoning xalqi U bilan abadiy yashaydigan samoviy vatanni ham tasvirlaydi.

Xudoga ishongan Eski Ahd xalqi aslida nimani kutgan? (**Ibroniylarga 11:16**) [17]

Agar biz abadiy hayotga ega bo'lishni va samoviy vatanda yashashni xohlasak, nima qilishimiz kerak? (**Yuhanno 3:16**) [18]

Agar biz Iso Masihga imon keltirsak, imonlilarga va'da qilingan abadiy makonga kiramiz. Bu esa Eski Ahdda va'da qilingan yurtdan ancha yaxshiroqdir!

Cho'ldagi hayot

Samoviy Vatandagi hayot bilan solishtirilganda, bizning yerdagi hayotimiz cho'ldagi hayotga o'xshaydi. Cho'l bizning yerdagi hayotimizning tasviridir.

Qonunlar kitobi 29:5–6 ni o'qing. Xudo 40 yil davomida sahroda O'z xalqiga qanday g'amxo'rlik qilgan? [19]

Yangi Ahdda Muqaddas Ruh Isoni sahroga boshlab ketdi va Iso 40 kun u yerda qoldi.

Matto 4:3 da shayton qanday qilib Isoni vasvasa qilishga urindi? [20]

Matto 4:4 da Iso unga qanday javob berdi? [21]

Faqatgina non bilan emas, balki Xudoning So'zi bilan yashashimiz kerak.

Iso Xudo isroilliklarga g'amxo'rlik qilganidek, Unga ham g'amxo'rlik qilishiga ishongan.

Yuhanno 6:35 da Iso O'zini qanday atagan? [22]

Bu nimani anglatadi? [23]

Iso quduq yonidagi ayolga nima dedi? (**Yuhanno 4:10**) [24]

Bu nimani bildiradi? [25]

Kuniga necha marta yeb ichasiz?

Agar uzoq vaqt yeb ichmasangz nima bo'ladi?

Ruhan sog'lom bo'lishimiz uchun har kuni ruhiy oziqa yeyishimiz va ichishimiz kerak. Ruhiy sog'lig'imiz uchun nima qilishimiz kerak? [26]

Bizning hayot yo'limiz imon yo'lidan iborat bo'lishi lozim; ya'ni Xudoga ishonib, Unga itoat qilib yashashimiz, hamda ruhiy oziqlalar bilan oziqlanishda davom etishimiz kerak! Dev qomatlilardan qo'rqmasligimiz, balki Xudodan qo'rqib yashashimiz darkor!

Duch kelishimiz mumkin bo'lgan dev qomatlilar nimalar yoki kimlar?

Biz kimdan qo'rqamiz: dev qomatlilardanmi yoki Xudodanmi?

Agar Xudoga ishonsak, gunoh qilmaymiz.

Qo'rquvga emas, imonga tobe insonlar bo'laylik!

Bugun Xudo sizga nima deyapti?

Javoblar

- 1 – O'sha yerni ko'rib kelishlari uchun; shaharlar, odamlar va umuman o'sha yurt haqida hamma narsani bilib kelishlari uchun yubordi.
- 2 – U yerda sut va asal oqar edi.
- 3 – Bu — chorva va asalarilar ko'p, degani. Arilar dehqonchilik uchun juda muhimdir. Bular orqali yerning unumdon ekanini tushunamiz.
- 4 – Shaharlari mustahkam va buyuk.
- 5 – U yerdagi odamlarning bari uzun bo'yli edilar. Hatto dev qomatli pahlavonlarni ham ko'rishdi.
- 6 – Faqat ikkitasi!
- 7 – O'ntasi!
- 8 – Boraylik, o'sha yerni qo'lga kiritamiz! Biz buni uddalaymiz!
- 9 – Xolib va Yoshua Xudodan qo'rqardilar, boshqalari esa — odamlardan.
- 10 – Xudo!
- 11 – Xudo ularni Misrdan olib chiqdi, fir'avndan xalos qildi va ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan mo'jizalarni yarattdi.
- 12 – Har kuni Muqaddas Kitob o'qib, Xudoni ulug'lashimiz kerak; hamdu sanolar kuylash ham Xudoning biz uchun qilgan ishlarini esimizga soladi; Xudoni ulug'lab, Uning so'zini birgalikda o'rganish uchun imonlilar bilan muntazam ravishda ko'rishib turishimiz kerak.
- 13 – Ular Xudoga qulqoq solmadilar va va'da qilingan makonga kirmadilar.
- 14 – Va'da qilingan makonga kirmasliklarini aytди.
- 15 – Sinay tog'i bilan va'da qilingan o'lkaning orasi bor-yo'g'i 11 kunlik masofa edi. Biroq u yo'l 40 yilga cho'zildi!
- 16 – Chunki ular Xudoga ishonmadilar.
- 17 – Ular a'loroq makonni — samoviy vatanni kutganlar.
- 18 – Biz Isoga imon keltirishimiz va Unga ishonishimiz kerak!
- 19 – Xudo ularga non, suv va boshqa barcha kerakli narsalarni bergen.
- 20 – Unga toshni nonga aylantirishni aytди.
- 21 – *Yozilganki: «Inson faqat non bilan emas, balki Xudoning og'zidan chiqqan har bir so'z bilan yashaydi».*
- 22 – Hayot Noni.
- 23 – U bizning Xudoga bo'lgan (Xudo bilan munosabatga bo'lgan) ochligimizni qondiradi. Bizga abadiy hayot uchun hamda yer yuzidagi kundalik hayotimiz uchun kerak bo'ladigan barcha narsani berishga qodir.
- 24 – Iso hayotbaxsh suv beradi.
- 25 – U bizning Xudoga bo'lgan (Xudo bilan munosabatga bo'lgan) tashnaligimizni qondiradi. Bizga abadiy hayot uchun va yerdagi kundalik hayotimiz uchun kerak bo'ladigan barcha narsani berishga qodir.
- 26 – Muqaddas Kitobni o'qib, ibodat qilishimiz va har kuni Iso bilan birga vaqt o'tkazishimiz kerak.

14-dars:

8 ta rasmda Muqaddas Kitobdagi tarixiy hikoyalar

Ushbu rasmlardan foydalangan holda, Muqaddas Kitobda bugungacha ko'rib, o'rganib chiqqan voqealarni yana bir bor takrorlaymiz.



Avvalo, birinchi rasm haqida o'qiyimiz. Keyin guruhdan bir kishi o'qimasdan, ushbu ma'lumotni takrorlab aytib berishi kerak. Keyin esa, ikkinchi rasm haqida o'qiyimiz va yana kimdir uni takror aytib beradi. Shu tarzda oxirgi rasmgacha davom etamiz. Oxirigacha borgandan keyin, yana ketma-ket, lekin bu safar o'qimasdan, 8 ta rasm haqida takrorlab aytib beramiz.



1. Yaratilish

Xudovand hamma narsani yaxshi qilib yaratdi. U dastlabki odamlar bilan, ya'ni Odam Ato va Momo Havo bilan Adan bog'i deb atalgan go'zal bog'da vaqt o'tkazar edi.



2. Gunohning paydo bo'lishi

Odam Ato va Momo Havo Xudoga itoat qilmay, shaytonning gapiga kirdilar. Shunday qilib ular Xudoning marhamatidan va abadiy hayotdan mahrum bo'ldilar. Rasmdagi ko'rsatkich (strelka) Xudo ularni O'z huzuridan va Adan bog'idan haydar yuborganini ko'rsatadi.



3. Va'dalar

Xudo Ibrohimga va'da berib, uni O'zi uchun tanlaydigan **xalqning** otasi qilishini aytди. Xudo Ibrohimga o'sha xalq uchun (O'zi ularning orasida ular bilan birga bo'lish uchun) bir **yurt** va'da qildi. Xudo yana Ibrohimga barcha xalqlarni u orqali **barakalashini** va'da berdi.

Rasmagi toj Xudoning O'zi ularning yaxshi Shohi bo'lishini ifodalaydi. Kamalak esa Xudo O'z va'dalariga sodiq ekanini bildiradi (Ibtido 9:13–16). Unga har doim ishonish mumkin!



4. Chiqish

Xudoning xalqi begona yurtga — Misrga ketdilar va u yerda qul bo'ldilar. (Piramidalar Misrni ifodalaydi.)

Ko'rsatkich belgisi (strelka) Xudo O'z xalqini Misr qulligidan xalos qilganini anglatadi.



5. O'lka

Xudo O'z xalqini va'da qilingan yurtga olib keldi. Agar ular Xudoga itoat qilsalar, Xudo ular bilan birga bo'lishni va ularni barakalashni va'da qildi.

Daraxtlar va suv unumdar tuproqni anglatadi.

Biroq isroilliklar Xudoga itoat qilishni xohlamadilar va bu orqali U bilan oralaridagi o'ziga xos munosabati buzdilar.



6. Iso Masih

Xudo Najotkor yuborish haqidagi va'dasining ustidan chiqdi! Masih Iso xochda gunohlarimiz uchun bir marta va abadiy qurbon bo'lish uchun keldi. Keyin U o'likdan tirildi. Bu esa Iso o'limni yengganini ko'rsatadi! Shunday ekan, biz yana Xudo bilan yarasha olamiz.



7. Isoning qaytishi

Hozir Iso samoda.

Ko'rsatkich belgisi Iso dunyoga yakun keltirish va barchani qilmishiga yarasha hukm qilish uchun qaytib kelishini anglatadi.




8. Samoviy Vatan

Shundan keyin biz va'da qilingan, yangi va boqiy yurtda — Samoviy Vatanda Xudo bilan birga yashaymiz!

Bu hafta mana shu rasmlar haqida aytib berishingiz mumkin bo'lgan biron kishini Xudo yuborsin, deb bir-biringiz uchun ibodat qiling.

15-dars:

Yoshua



Qirq yil davomida sahroda sargardon bo'lganlaridan keyin, Muso xalqni va'da qilingan yerning chegarasiga olib keldi. Musoning o'zi bu o'lkaza kirmadi.

Muso vafot etgach, uning o'rniga Yoshua yo'lboshchi bo'ldi. Yoshuaning vazifasi Xudoning xalqini va'da qilingan yerga olib kirish va janglarda ularga boshchilik qilish edi.

Musodan keyin Xudoning xalqiga kim rahbarlik qilgan? [1]

Uning vazifasi nimadan iborat edi? [2]

Va'da

Yoshua kitobi 1:1–9 ni o'qing.

Xudo O'z xalqiga nimani va'da qildi? (Chiqish kitobi 3:8) [3]

Biroq Kan'on yurtining odamlari juda baquvvat edilar. Isroiilliklar o'zlarini ularni yenga olmasdi. Ularga Xudoning yordami kerak edi.

Keling, Xudo Yoshuaga nima va'da qilganini ko'raylik.

5-oyatning ikkinchi yarmidan 9-oyatgacha bo'lgan qismi she'rga o'xshaydi. Eski Ahd ibroniylar tilida yozilgan. Ibroniylar she'rlarda ko'pincha asosiy g'oya uning o'rtasida bayon etiladi. Agar e'tibor bersangiz, birinchi va oxirgi satrda aytilgan narsalar bir xil; hamda ikkinchi va oxiridan ikkinchi satrda aytilgan narsalar bir xil va hakazo.

- A. Seni tark etmayman, hech qachon tashlab ketmayman
- B.** Dadil va botir bo'l ...
- V.** Dadil va botir bo'lishing kerak.
- G.** Borgan joyingda ishlaring o'ngidan kelishi uchun Men buyurgan qonunlarning hammasini bitta qoldirmay bajar
- D. Tavrot kitobida yozilganlar tilingdan tushmasin**
- D. Kechayu kunduz ular haqida fikr yuritgin**
- G.** Ularni bitta qoldirmay bajargin, shunda ishlaring yurishib, o'ngidan keladi.
- V.** ... dadil va botir bo'l.
- B.** Vahimaga tushma, qo'rqlama.
- A.** ... Qayerga borsang ham, Men, Egang Xudo, sen bilan birga bo'laman.

Bu she'nda eng muhim g'oya nima? [4]

Agar Joshua bularga amal qilsa, natijasi qanday bo'ladi? (7-oyat) [5]

Nima uchun u qo'rqlasligi va ruhan tushmasligi kerak? (9-oyat) [6]

Amal qilish

Yoshua kitobi 21:43–45 ni o'qing.

Xudo Ibrohimga va'da qilgan yerning qancha qismini Joshua boshchiligidagi isroilliklar egallab oldilar? (43-oyat) [7]

Xudo ularga yana nima berdi? (44-oyat) [8]

Muqaddas bitikning ushbu qismiga ko'ra, Xudoning va'dalaridan qanchasi amalga oshdi? (45-oyat) [9]

Bu mo'jiza edi! Ammo isroilliklar uchun bu oson bo'lмаган. Ular har bir shahar uchun kurashishlariga to'g'ri keldi. Lekin oxiri Xudo isroilliklarga quvonch va tinchlik maskani bo'lishi kerak bo'lgan yurtni berdi. Bu ularning Xudo huzuridagi uyi bo'lishi kerak edi!

Nega ular bu odamlardan qutulishlari kerak edi?

Xudoning xalqi dunyoning nuri bo'la olishi uchun dushmanlarini va'da qilingan yerdan haydab chiqarishlari kerak edi.

O'sha dushmanlar soxta xudolarga sajda qilar, va o'z bolalarini qurban qilish kabi jirkanch ishlarni amalga oshirardilar. Egamiz Xudo ularning qilmishlaridan nafratlanardi va isroilliklar ham ularning yovuz ishlardan o'rnak olishlarini xohlamadi.

Nega ular bu odamlardan qutulishlari kerak edi? [10]

Yangi Ahd

Iso yashagan davrda yunon tili dunyoning o'sha qismida yashaydigan barcha odamlar gapira oladigan til edi. Shunga ko'ra, Yangi Ahd ham yunon tilida yozilgan.

Yangi Ahd qaysi tilda yozilgan? [11]

Eska Ahd qaysi tilda yozilgan? [12]

Ibroniylar tilidagi Yoshua ismi yunonchada «Jesus», arabchada Isa (o'zbekchada esa Iso) deb aytildi.

Iso ismining ma'nosi nima? (Matto 1:21) [13]

Yoshua ramziy ma'noda Isoga o'xshatiladi. Iso bizni qutqarib, va'da qilingan abadiy makonga, ya'ni Samoviy Vatanga muvaffaqiyatli olib boradigan sodiq Yo'lboschimizdir! Bu Eski Ahdda va'da qilingan makondan ancha yaxshi bo'ladi! Bu dunyo bizning uyimiz emas. Biz haqiqiy uyimizga tomon yo'ldamiz!

Iso gunohsiz edi. U Xudoning qonunlariga to'liq itoat etdi. U «o'ngga ham, chapga ham og'madi» (Yoshua 1:7). Iblis Uni sahroda vasvasa qilganida, U iblisga qarshi Xudoning So'zi bilan «kurashdi» (Matto 4:1–11).

Iso qay jihatdan Yoshuaga o'xshaydi? [14]

Iso Yoshuadan nimasi bilan farq qiladi? [15]

Bugun Xudo bizdan qanday jang qilishimizni istaydi?

Bugungi kunda va'da qilingan yer yo'q. Xudo bizni biron bir parcha yer uchun jang qilishga va u yerdagi xudosizlarning barini haydar chiqarishga da'vat qilmayapti. Aksincha, bizning vazifamiz — muqaddas Xudoning borligini so'zda va sevgida odamlarga namoyon qilish. Xudo ularni shunchalik sevdiki, ular abadiy hayotga ega bo'lishlari uchun, gunohlari o'tilishi uchun O'z O'g'lini o'limga yubordi. Ular butun borliqning Egasi — Xudoga qarshi qilgan isyoni uchun tavba qilishlari kerak!

Bugun bizning vazifamiz nima? [16]

Biz ruhiy jangdamiz. Iblis bizni doimo Xudoga itoat qilmaslikka undaydi. Abadiy Samoviy Vatanga yetib borgunimizcha ko'p janglardan o'tishimiz kerak.

Yoshua kitobi 1:16–17 da isroilliklar Yoshuaga qanday va'da berishdi? [17]

Isroilliklar g'alaba qozonishlari uchun o'zlarining yo'lboschisi bo'l mish Yoshuaga hamma narsada qulog solishlari kerak edi. Xuddi shunday, biz ham g'alabaga erishish uchun O'zimizning Yo'lboschimiz — Isoga hamma narsada itoat qilishimiz kerak.

Yoshua Xudoning xalqini va'da qilingan yerga olib kirolishi uchun Xudo u bilan birga edi. Iso esa inson qiyofasida kelgan Xudoning O'zi edi. Shunday qilib, Iso — ham biz bilan birga bo'ladigan Xudo, hamda bizni abadiy Samoviy Vatanga olib boradigan Yo'lboschimizdir!

Matto 28:20 da Iso O'zining jangchilariga (izdoshlariga) nima va'da qilgan? [18]

Shunday ekan, Yoshua kitobi 1:5b–9 ni bizga aytilgan Isoning so'zlari sifatida o'qishimiz mumkin.

Isoning har doim biz bilan ekanini, hamda U bizni dadil va botir qila olishini bilish uchun nima qilishimiz kerak? [19]

Xudoning Kalomini o'qiganimizda, Xudo bizga jasorat beradi va bizdan qo'rquvni olib tashlaydi!

Isroilliklar har bir shahar uchun jang qilishlari kerak bo'lganidek, biz ham barcha gunohkor hatti-harakatlarimiz va fikrlarimizga qarshi kurashishimiz kerak:

- Kim(lar)ni sevolmayapmiz?
- Kim(lar)ni kechirmaganmiz?
- Qachon o'zimizni erimizdan yoki xotinimizdan ko'ra ko'proq sevamiz?
- Qachon g'azablanib yaqinlarimizga baqiramiz?
- Telefonda yomon narsalarni ko'ramizmi?

Nuh haqidagi darsni eslaysizmi? Ichki dunyomizda chirigan mevaga o'xshasak ham, tashqaridan o'zimizni yaxshi odam qilib ko'rsatishimiz oson. Xudodan sizni qanday o'zgartirishni xohlayotganini so'rab ibodat qiling. Shunda ko'plab boshqa odamlarga ham Isoga ergashib, abadiy Samoviy Vatanga kirishlariga yordam qila olasiz!

Kundalik vazifa

Iblisning o'qlariga qarshi mustahkam tura olishingiz uchun, har kuni ruhiy qurol-aslahalar bilan qurollaning (Efesliklarga 6:10–18). Unutmang-ki, Xudo biz tomonda kurashmoqdi va bizni xalos qiladi. Bizning vazifamiz — taslim bo'lmashlik va orqaga chekinmaslik!

Javoblar

- 1 – Joshua.
- 2 – Xudoning xalqini va'da qilingan yerga olib borish.
- 3 – Xudo ularni sut va asal oqib yotgan (ko'plab chorva mollari bo'lgan unumdar tuproqli) yaxshi, keng yurtga olib borishni va'da qildi.
- 4 – Tavrot kitobida yozilganlar tilingdan tushmasin, ularni bitta qoldirmay bajarishing uchun kechayu kunduz ular haqida fikr yuritgin.
- 5 – Shunda ishlari yurishib, o'ngidan keladi.
- 6 – Chunki qayerga bormasin, Egasi Xudo u bilan birga bo'ladi.
- 7 – Hamma yerni.
- 8 – Xudo ularga barcha g'animlaridan osoyishtalik berdi.
- 9 – Hammasi amalga oshdi.
- 10 – Chunki Xudo bu odamlarning qilmishlaridan nafratlanardi va isroilliklar ham ularning yovuz ishlaridan nusxa olishlarini xohlamadi.
- 11 – Yunon tilida.
- 12 – Qadimgi ibroni tilida.
- 13 – Xudo qutqaradi.
- 14 – Ikkalasining ham ismlari «Xudo qutqaradi» degan ma'noni bildiradi. Ikkisi ham Xudoning xalqini qutqarib, va'da qilingan makonga olib boradi.
- 15 – Joshua inson edi va shuning uchun komil emasdi. Lekin Iso gunohsiz edi. U Xudoning qonuniga to'liq itoat qildi. Joshua Xudoning xalqini olib kirgan joy abadiy davom etmaydi. Ammo Iso bizni abadiy davom etadigan Samoviy Makonga olib boradi.
- 16 – Biz odamlarga ularni sevuvchi Muqaddas Xudoning borligini so'zimiz va sevgimiz bilan ko'rsatishimiz kerak. Ular tavba qilishlari kerak!
- 17 – Ular Yoshuaga itoat qilishni va'da berishdi.
- 18 – Men sizlar bilan dunyoning oxirigacha birga bo'laman.
- 19 – Biz Xudoning Kalomini o'qishimiz, mulohaza yuritishimiz va itoat qilishimiz kerak.

16-dars:

Hakamlar



Hakamlar kitobida ko‘plab qo‘rqinchli voqealar bayon etilgan. Bular bizga Qutqaruvchiga qanchalik muhtoj ekanimizni ko‘rsatib turadi. Ya’ni, bu qorong‘u dunyoga nur bo‘ladigan Qutqaruvchiga muhtojmiz!

Muqaddas Kitobda qo‘rqinchli voqealarni o‘qiganimizda, bular bizga nimani eslatib turadi? [1]

Dunyoning nuri kim? (Yuhanno 8:12) [2]

Hakamlar Xudo xalqining yo‘lboshchilari va qutqaruvchilari bo‘lganlar. Bu Yoshua zamonidan boshlab to birinchi shoh — Shoulgacha bo‘lgan vaqtlarni o‘z ichiga oladi. Hakamlar davri 300 yildan ko‘proq vaqt davom etgan. Bu taxminan eramizdan oldingi 1300–1000-yillarga to‘g‘ri keladi.

Hakamlar kimlar edi? [3]

Charxpalak

Hakamlar kitobi 2:6–19 ni o‘qing.

Xudo O‘z xalqiga bir yurt va’da qilgan edi, toki ular dunyoning nuri bo‘lsinlar va o‘zga xalqlar ularga qarab, qanday yashashni va tirik Xudoga qanday sajda qilish kerakligini ko‘rsinlar.

Biroq Hakamlar kitobida isroilliklarning Xudoga qanday itoatsizliklar qilishganini ko‘ramiz.

Bu xuddi o‘z-o‘zini takrorlab turuvchi besh qisqli aylanaga o‘xshaydi:

1. Isroilliklar begona xudolarga sajda qiladilar.
2. Xudo ularni dushmanlari qo‘liga berib, jazolaydi.
3. Ular Xudoga iltijo qiladilar.
4. Xudo ularni qutqaradigan hakam yuboradi.
5. Hakam olamdan o‘tadi.

Keyin bularning bari yana boshdan takrorlanaveradi.

Hakamlar kitobidagi aylana qanday beshta qismidan iborat? [4]

Hakamlarning to‘rtta muammozi

1. Hakamlar ibrat olishimiz uchun yaxshi o‘rnak bo‘la olmadilar.

Bu kitobdagi hakamlar biz uchun yaxshi o‘rnak emaslar.

Masalan:

1. **Gido‘n** qo‘rqdi (6:27). Biz jun ustiga shudring tushishi yoki tushmasligi bilan Xudoni sinamasligimiz kerak (6:36–40).
2. **Yiftox** ahmoqona qasami tufayli o‘z qizini qurbanlikka keltirdi (11:29–40).
3. Hakamlar orasida eng mashhuri — **Shimsho‘n**. U juda kuchli bo‘lgan. Shimsho‘n begona xudolarga ishonadigan bir Filist qizga uylangan (14:1–2). Shimsho‘n fohisha ayollarning yoniga borgan. U sochini kesmaslik haqidagi qasamini buzib (16-bob), buyuk kuchini yo‘qotgan. Shimsho‘n har doim qasos olish payida bo‘lgan.

Demak, ular bizga yaxshi o‘rnak bo‘la olmaydilar!

Yangi Ahdda

Qutqaruvchimiz biz uchun yaxshi namunadir. Biz Unga taqlid qilishimiz mumkin. U qo‘rqmagan, begunoh odamlarni o‘ldirmagan, qasos olmagan va pokiza hayot kechirgan.

Bu odam kim? 1-Butrus 2:21–23 ga qarang. [5]

2. Hakamlar xalqni muammolardan vaqtincha qutqara olishgan xolos.

Hakam vafot etgach, xalqning ahvoli qanday bo‘lar edi? (2:19) [6]

Yangi Ahdda

Bizni abadiy qutqara oladigan Qutqaruvchimiz bor!

Ibroniylarga 7:25: *Shuning uchun U O'zi orqali Xudoga yaqinlashuvchilarga abadiy najot bera oladi. Axir, Iso barhayot bo'lib, ular uchun Xudoga iltijo qiladi.*

Nega Iso bizni abadiy qutqarishga qodir? [7]

3. Hakamlar gunoh muammosini hal qila olmaganlar.

Hakamlar kitobi davomida biz isroilliklarning tobora buzilib borganini ko'ramiz.

Xudoning esa O'z xalqiga bo'lgan sevgisini doimo namoyon qilishi judayam hayratlanarli!

Ular Xudoga iltijo qilganlarida, U nima qildi? (masalan: 3:9-oyatda) [8]

Hakam olamdan o'tgach, nima bo'ldi? (2:19) [9]

Yangi Ahdda

Bizning gunoh muammomizni hal qilgan Qutqaruvchimiz bor!

Xudo nima qildi? (1-Yuhanno 4:9–10) [10]

Xudo bizga nima berdi? (Havoriyalar 2:38) [11]

Muqaddas Ruh bizni tobora ko'proq Isoga o'xshash qilib boradi. U hayotlarimizda ishlagani sari, kamroq gunoh qiladigan bo'lib boramiz. Va bir kun kelib, bizlar Samoviy Vatanda Iso bilan birga gunohsiz yashaymiz!

4. Hakamlar xalqni o'z Shohi — Xudoga bo'y sunishga unday olmaganlar.

Zabur 43:5 Xudoni qanday ta'riflaydi? [12]

Qonunlar kitobi 33:5 da Muso xalqni duo qilayotib, «Egamiz aziz Isroiilga (boshqa nomi Yoshurun) shoh bo'ldi» deb aytgan.

Biroq, **Hakamlar kitobi 21:25** da nima deyilgan? [13]

Isroilliklar go'yo podshohi yo'q xalqday yashardilar. Go'yoki ularni hech kim boshqarmasdi. Ular Egamiz Yahvening hukmi ostida yashashdan voz kechishgan edi. Qanday xohlasalar, shunday yashardilar va oqibatda borgan sari buzilib boraverdilar. Bu judayam dahshatli edi!

To'g'ri yo'lga qaytish uchun isroilliklar nima qilishlari kerak edi? [14]

Isroilliklar ham boshqa xalqlarda bo'lgani kabi o'zlariga bir shoh xohlashini Xudo bilardi. Xudo ularga shoh xususida nima dedi? Shoh qanday bo'lishi yoki bo'lmasligi kerak edi? (Qonunlar kitobi 17:14–20 ga qarang.) [15]

Yaxshi podshoh qo'li ostidagi butun xalqni Xudoning qonunlariga itoatkor ravishda boshqarishi kerak.

Eski Ahdni o'qiganimizda, Isroil shohlaridan hech biri hamma narsani to'g'ri qilganini ko'rmaymiz. Biroq Xudovand O'z xalqiga va'da berib, bir kun kelib, Uning amrlariga itoat qilgan holda xalqini boshqaradigan benuqson Shohni yuborishini aytgan.

Yangi Ahdda

Quyidagi oyatlarda Isoga qanday nom berilgan?

Matto 2:2 [16]

Matto 27:37 [17]

Vahiy 19:16 [18]

Bizga kerak bo'lgan Shoh Isodir! U komil hayot kechirdi va Illohiy Qonunni to'liq amalgaga oshirdi. (Matto 5:17)

Hakamlarning qanday to'rtta muammosi bor edi? [19]

Kim biz uchun yaxshi o'rnak bo'la oladi? [20]

Kim bizni abadiy qutqara oladi? [21]

Kim bizning gunoh muammomizni hal qila oladi? [22]

Barkamol Shoh kim? [23]

Siz bu Shohga qanday sajda qilasiz?

Hakamlar kitobidan qanday xulosa chiqaramiz?

1. Imonsizlarning qilganini qilib, ularga ergashib ketish juda oson.

Ular nimalarga sajda qilishadi? [24]

Qonunlar kitobi 6:5: *Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan sevinglar.*

Xudo bizdan nima kutadi? [25]

2. Gunoh judayam kuchli bo'lgani uchun uni o'z kuchimiz bilan inkor qilolmaymiz. Biz yordamga muhtojmiz.

Yuhanno 8:36: *Shunday ekan, agar O'g'il sizlarni ozod qilsa, haqiqatan ozod bo'lasizlar.*

Qanday qilib gunoh qilishdan ozod bo'la olamiz? [26]

Faqat Iso bizni gunohlarimizdan qutqara oladi va faqat Iso yuraklarimizni o'zgartira oladi!

3. Xudo sevgani uchun bizni tarbiyalaydi.

Ibroniylarga 12:5–6: *Xudoning sizlarga O'z farzandlari sifatida aytgan mana bu dalda so'zlarini unutibsizlar:*

«O'g'lim, Egamizning tarbiyasiga e'tiborsiz bo'limgan,
Undan tanbeh olganingda ko'ngling cho'kmasisin.
Zero, Egamiz yaxshi ko'rgan bandasini tarbiyalaydi,
Farzand qilib olgan har bir odamni jazolaydi».

Xudo kimni tarbiyalaydi? [27]

Agar hayotingizda biron yomon narsa yuz bersa, bu orqali Xudo sizga nimani o'rgatmoqchi ekanligini Undan so'rang.

Bu — hamma yomon narsalar Xudodan kelgan jazo, degani emas. Kimningdir hayotida biron yomon narsa yuz bersa, bu unga Xudodan kelgan jazo, deb aytish yaxshi emas. Boshqalar bu insonga hamdardlik bilan munosabatda bo'lishi lozim!

Rimliklarga 8:28–29: *Biz bilamizki, Xudoni yaxshi ko'rganlarga hamma narsa yaxshilikka xizmat qiladi, chunki Xudo ularni O'zining maqsadiga ko'ra, da'vat etgan. Xudo ularni azaldan tanlab olgan edi va «**Mening O'g'limga o'xshagan bo'lsinlar**», deb oldindan belgilab qo'ygan edi, toki O'g'il ko'p birodarlar orasida to'ng'ich bo'lsin.*

Xudo hayotimizdagи qiyinchiliklarni qanday ishlataladi? [28]

4. Xudo sodiq, mehribon va rahmdildir.

Biz Xudodan qanchalik yuz o'girmaylik, Uni chaqiranimizda, U har doim bizni eshitadi va qutqaradi. Ba'zi odamlar ko'p noto'g'ri ish qilganliklarini his qilib, Xudodan uzoqlashadilar yoki Isoga ishonishdan va imonlilar yig'inlariga borishdan voz kechadilar. Lekin Xudo har doim kechiradi, har doim qayta tiklaydi va har doim sevadi!

Zabur 144:8: *Egamiz inoyatli, rahmdildir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo'ldir.*

Yana gunoh qilib qo'yganimizda, nimani esda tutishimiz kerak? [29]

Hakamlar kitobidan qanday xulosa chiqaramiz? [30]

Barcha yomon narsalar Xudodan kelgan jazomi? [31]

Biz boshqalarga qanday munosabatda bo'lishimiz lozim? [32]

Qiyinchiliklar haqida nimani o'rgandik? [33]


Hakamlar kitobi orqali bugun Xudo sizga nimani o'rgatdi?

Javoblar

- 1 – Bizga Qutqaruvchi kerak.
- 2 – Iso!
- 3 – Hakamlar Xudo xalqining yo‘lboshchilari va qutqaruvchilari bo‘lganlar. Hakamlar davri Yoshua zamonidan to birinchi shoh Shoul davrigacha davom etgan.
- 4 – 1. Isroilliklar boshqa xudolarga sajda qilishadi.
2. Xudo ularni jazolab, dushmanlarining qo‘liga beradi.
3. Ular Xudoga iltijo qiladilar.
4. Xudo ularni qutqaradigan hakam beradi.
5. Hakam olamdan o‘tadi.
- 5 – Iso!
- 6 – Isroilliklar yana begona xudolarga sajda qilib, tobora yomonlashib ketganlar.
- 7 – Chunki U abadiy yashaydi!
- 8 – U ularga qutqaruvchi yuborgan.
- 9 – Isroilliklar yana begona xudolarga sajda qilganlar va ahvol yanada yomonlashib borgan.
- 10 – Xudo bizni gunohlarimizdan poklash uchun O‘z O‘g‘lini qurban qildi.
- 11 – U bizga Muqaddas Ruhini berdi.
- 12 – *Sen Shohimsan!*
- 13 – *O’sha davrlarda Isroilda shoh yo‘q edi. Har bir odam bilganini qilar edi.*
- 14 – Ular o‘zlarini qullikdan xalos qilgan Shoh — Yahvega itoat qilishlari kerak edi.
- 15 – Tanlangan shoh isroillik bo‘lishi kerak. U ko‘p xotinli bo‘lmasiligi kerak; ko‘p otlar, oltin va kumush ham yig‘masin. U Xudoning qonunini yaxshi bilishi va amal qilishi kerak.
- 16 – Yahudiylarning shohi.
- 17 – Yahudiylarning shohi.
- 18 – Iso — shohlarning Shohi, hukmdorlarning Hukmdoridir!
- 19 – Hakamlar ibrat olishimiz uchun yaxshi o‘rnak bo‘la olmaganlar.
Hakamlar xalqni muammolardan vaqtincha qutqara olishgan xolos.
Hakamlar gunoh muammoсини hal qila olmaganlar.
Hakamlar xalqni o‘z Shohi — Xudoga bo‘ysunishga unday olmaganlar.
- 20 – Iso!
- 21 – Iso!
- 22 – Iso!
- 23 – Iso!
- 24 – Ular diniy urf-odatlariga, pir va avliyolarga, telefonlarga, mashina va dang‘illama uylarga sajda qilishadi.
- 25 – *Xudo bizdan Egamiz Xudoni butun qalbimiz bilan, jonu dilimiz bilan, butun vujudimiz bilan sevishimizni kutadi.*
- 26 – Iso bizni ozod qilganida.
- 27 – Yaxshi ko‘rgan bandalarini.
- 28 – Tobora Isoga o‘xshab borishimiz uchun ishlatadi.
- 29 – Xudoga iltijo qilganimizda, U bizni har doim eshitishini va bizga najot berishini esda tutishimiz kerak.
- 30 – Imonsizlarning qilganini qilib, ularga ergashib ketish juda oson.
Gunoh juda kuchli bo‘lgani uchun uni o‘z kuchimiz bilan inkor etishimiz qiyin.
Xudo bizni sevgani uchun tarbiyalaydi.
Xudo — sodiq, mehribon va rahmdil.
- 31 – Yo‘q.
- 32 – Hamdard bo‘lishimiz kerak!
- 33 – Xudo barcha qiyinchiliklarni biz Isoga o‘xshash bo‘lishimiz uchun ishlatadi.

17-dars:

Shohlar



1- va 2-Shohlar kitoblari

Birinchi Shohlar kitobida biz Shomuil, Shoul va Dovud haqida o'rganamiz.

Shomuil payg'ambar edi. U, shuningdek, Isroil xalqining so'nggi hakami bo'lgan. Shomuil isroilliklarga Xudo haqida ta'lif berardi va ularga qilgan gunohlarini ko'rsatardi.

Isroilliklar boshqa xalqlarga o'xshashni xohladilar: ular endi Xudo ularning Shohi bo'lishini emas, balki jismoniy shohlari bo'lishini xohladilar. Shunday qilib, Xudo ularga Shoulni shoh qilib berdi.

Shoul: Shoul (isroilliklar tarixida) birinchi shoh bo'ldi. Biroq Xudoga itoat qilishdan bosh tortdi va Xudo unga endi shoh bo'lolmasligini aytdi.

Shundan keyin Xudo O'z xalqiga boshqa shoh tayinladi. U kim edi? [1]

U qanday odam bo'lgan? (**Havoriyalar 13:22**) [2]

Dovud Isroilning eng buyuk shohi bo'lgan. Uning hukmronligi haqida **2-Shohlar** kitobida o'qiymiz. Keyingi darsimizda Dovud haqida yana ko'proq o'rganamiz.

Shomuil kim edi? [3]

Shoul kim edi? [4]

Dovud kim edi? [5]

3- va 4-Shohlar kitoblari

Dovuddan keyin kim shoh bo'ldi? [6]

U nima qurdi? (**3-Shohlar 6:1–2**) [7]

U qanday odam edi? (**3-Shohlar 10:23**) [8]

Shoh Sulaymon hukmronligi davrida isroilliklarning hayoti qanday bo'lgan? (**3-Shohlar 4:25**) [9]

Bu go'yo Samoviy Vatanning tasviri bo'lgan!


Ammo keyin Sulaymon gunoh qildi. Bular qanaqa gunohlar edi? (**3-Shohlar 11:1–13**) [10]

Shunday qilib, shoh Sulaymon sultanatini qanday vayron qilganini ko'ramiz.

Xudo undan g'azablandi. So'ngra, o'g'lining hukmronligi davrida, Xudo shohlikni ikki qismga bo'ldi:

Shimoliy shohlik — **Isroiil shohligi** deb atalib, 10 ta qabiladan iborat bo'lgan.

Janubiy shohlik — **Yahudo shohligi** deb atalib, 2 ta qabiladan, ya'ni Benyamin va Yahudo qabilalaridan iborat bo'lgan.



Shimoliy qism qanday atalgan? [11]


Janubiy qism qanday atalgan? [12]

Isroil

200 yil davomida, Isroilda 20 ta yomon podshoh hukmronlik qilgan. Ular xalqni boshqa xudolarga sajda qilishga rag‘batlantirishgan. Isroil shohlari tobora yomonlashib borgan. Bu sababli Xudoning xalqi Xudodan borgan sari ko‘proq uzoqlashib ketgan.

Oxir-oqibatda, Xudo Ossuriya imperiyasini Isroilni zabit etish uchun yubordi. Ular ko‘plarni o‘ldirib, yana ko‘plarni Ossuriyaga olib ketishdi. Bu voqeal Iso Masihning tug‘ilishidan oldingi (eramizdan oldin) 722-yilda sodir bo‘ldi (4-Shohlar 17:5–23).

Xaritaga qarang. Kesilgan chiziqlar isroilliklarning qayerga olib ketilganini ko‘rsatadi.




Isroil shohlariidan nechta yaxshi shoh bo‘lgan? [13]

Eramizdan avvalgi 722-yilda Isroilni kim bosib oldi? [14]

Yahudo

Yahudo yurtida 350 yil davomida 20 ta shoh hukmronlik qilgan. Ba’zi shohlar yaxshi, ba’zilari esa yomon bo‘lgan. Bu davr mobaynida Yahudo xalqi ham Isroil xalqi singari Xudodan tobora uzoqlashib ketgan.

Oxir-oqibatda, Xudo Yahudo xalqini zabt etish uchun Bobil imperiyasini yuborgan. Ular ko'p odamlarni o'ldirib, ko'plarni Bobilga olib ketishgan. Bu Iso Masihning tug'ilishidan oldingi (eramizdan avvalgi) 586-yilda sodir bo'lgan (4-Shohlar 25-bob). Ular qayerga olib ketilganini ko'rish uchun xaritaga qarang.



Yahudo shohlaridan qanchasi yaxshi shoh bo'lgan? [15]

Eramizdan avvalgi 586-yilda Yahudo shohligini kim bosib oldi? [16]

Xudoning hukmidan qochib bo'lmaydi:

Muso davrida xalq qullikdan xalos bo'lgandi, endi esa ular yana qul bo'ldilar.

Yoshua davrida xalqqa bir yurt berilgandi, endi esa ular o'sha yurtni boy berdilar.

Shomuil davrida xalqqa shoh berilgandi, endi esa taxtdan ag'darildi.

Dovud davrida xalq g'animlaridan qutulib, halovat topgandi, endi esa mag'lub bo'ldilar.

Sulaymon davrida Xudoning huzuri ramzi sifatida ma'bad qurilgandi. Endi esa bu ma'bad vayron qilindi.

Xudo O'ziga itoat qiluvchilarni marhamatlashi, doimiy ravishda Unga itoatsizlik qiluvchilarni esa jazolashi haqida bergen va'dasini hech qachon buzmaydi. (Qonunlar 28:1–2, 15)

Eski Ahdda Xudo O'z va'dasida turganini qanday ko'ramiz? [17]

Xudo gunohni jazolashi kerak, ammo hayratlanarlisi shundaki, Xudo nafaqat adolatli, balki shafqatli hamdir.

Yahudo xalqi surgun qilinganidan yetmish yil o'tgach, nima yuz berdi? (2-Solnomalar 36:20–23) [18]

Xudo, shuningdek, Dovudning nasllarini himoya qildi. Xudo Dovudga va'da qilib, uning naslidan *Masih* kelib chiqishini va U abadiy hukmronlik qiladigan komil Shoh bo'lishini aytgandi. Xalq asirlikdan Yahudo yurtiga qaytib kelganida Dovud avlodidan Zarubabel ham ular bilan birga edi.

Ammo undan keyin ham Xudoning xalqi hech qachon begona xalqlarning nazoratidan ozod bo'la olmagan (*Iso Masih* dunyoga kelishidan taxminan yuz yil oldingi qisqa bir davrdan tashqari). Ular ozodlikni, o'z yurtiga va yaxshi podshohga ega bo'ladigan, dushmanlaridan qutulib osoyishta hayot kechiradigan kunlar kelishini va chinakamiga Xudoga sajda qiladigan ma'badlari bo'lishini orzu qilib yashaganlar.

Yangi Ahd

Iso nimani o'rnatish uchun keldi? (**Mark 1:14–15**) [19]

Bu shohlikning Shohi kim? (**Matto 2:2**) [20]

Matto 12:42-oyatda *Iso* qanday tasvirlangan? [21]

Iso davrida yashagan yahudiylar *Masihni*, ya'ni Xudo yuborishni va'da qilgan Shohni va Uning shohligi Sulaymon shohligidek ulug'vor bo'lishini kutardilar. Biroq Isoning shohligi Sulaymon shohligidan ham a'loroqdir. Isoning Shohligida cheksiz tinchlik, tunganmas boylik va quvonch bo'ladi!

Isoning ajoyib shohligiga qanday kira olamiz? [22]


Hayotingizning qaysi sohalarida Shoh Isoga bo'ysunmayapsiz?

Javoblar

- 1 – Dovud.
- 2 – U Xudoni sevardi.
- 3 – Payg‘ambar va hakam.
- 4 – Birinchi shoh.
- 5 – Isroilning ikkinchi shohi va eng buyuk shohi.
- 6 – Uning O‘g‘li Sulaymon.
- 7 – Ma‘bad qurdi.
- 8 – Xudo uni dunyodagi eng dono va eng badavlat odam qildi.
- 9 – Xudo uning shohligini juda badavlat va osoyishta qildi.
- 10 – U begona xalqlardan ko‘pgina ayollarga uylangan va keyin ularning xudolariga sajda qilgan.
- 11 – Isroil.
- 12 – Yahudo.
- 13 – 20 ta shohning bari yomon edi.
- 14 – Ossuriyaliklar.
- 15 – Ba’zilari yaxshi, ba’zilari esa yomon shoh bo‘lishgan.
- 16 – Bobilliklar.
- 17 – Xudo O‘ziga itoat qiluvchilarni marhamatlaydi. U isroilliklarga ozodlik, yurt, shoh, dushmanlardan xoli osoyishta hayot va Xudoga sajda qila olishlari uchun ma‘bad berdi. O‘ziga doimiy ravishda itoatsizlik qiladiganlarni esa Xudo bu ne’matlardan mahrum qilib jazolaydi.
- 18 – Yangi shoh — Fors shohi Kurush isroilliklarga vataniga qaytib borib, Ma‘badni qayta qurishlari mumkinligini aytdi.
- 19 – Xudoning Shohligini.
- 20 – Iso.
- 21 – *Sulaymondan ham buyukroq bir Zot.*
- 22 – Shoh Isoga itoat qilish orqali.

18-dars:

Dovud — eng buyuk shoh



Dovud qachon tug'ilgan? [1]

Shoh Dovud hukmronligidan keyin Xudo O'z xalqiga gapirish uchun ko'plab payg'ambarlarni yubordi.

Muqaddas Kalom tarkibidagi kitoblarni yozgan payg'ambarlar Isodan oldingi 800–400-yillar orasida yashaganlar. Miloddan oldingi 400-yildan keyin Xudo boshqa payg'ambar yubormay qo'ygan.

Muqaddas Kitobimizdagi bitiklarni yozgan payg'ambarlarni Xudo qaysi yillarda yuborgan edi? [2]

Xudo O'z xalqini Masihg'a, ya'ni vaqtি kelganda O'zi yuboradigan Shohga tayyorlash uchun Dovudni ishlatgan. Dovudning hayoti Masihnинг tasviri bo'lган va Xudo unga Masihg'a ishora qiluvchi g'ayrioddiy va'dalar bergen.

Dovud Masihning tasviri edi

1. U Baytlahmda tug'ildi

Dovud qayerda tug'ilgan? (1-Shohlar 17:12) [3]

Isoning tug'ilishidan 700 yil oldin yashagan Mixo payg'ambarning so'ziga ko'ra, bir kun Xudoning Masihi qayerdan kelishi kerak edi? (**Mixo 5:2**) [4]

Yangi Ahdda, Iso qayerda tug'ilgan? (**Luqo 2:4–7**) [5]

2. U Xudoning xalqini qutqardi

1-Shohlar kitobi 17:48–53-oyatlarda, Dovud bahaybat Filist jangchisi Go'liyotni o'ldirishi orqali Isroil xalqi uchun nima qildi? [6]

Yangi Ahdda, Iso xochdag'i o'limi orqali O'ziga imon keltiradiganlar uchun nima qildi? (**Yuhanno 3:16–17; Kolosaliklarga 1:22; Ibroniylarga 2:14**) [7]

Demak, Dovud, Ibtido 3:15 da Xudo va'da qilgan — shaytonning boshini ezadigan Masihning tasviri edi.

3. U ko'p azob-uqubat chekkan Xudoning moy surtib tanlaganidir

Eski Ahdda kimlarning boshiga moy surtilgan? (**Levilar 21:10; 1-Shohlar 10:1**) [8]

Shoh Shoul ko'p yillar davomida Dovudni quvg'in qilgan (bu haqda 1-Shohlar 18–31-boblarda o'qishingiz mumkin). O'sha davr mobaynida Dovud juda ko'p Zabur sanolarini yozgan va bu sanolar Masih haqidagi bashoratlarga aylangan.

Masih so'zi «moylangan» degan ma'noni anglatadi. Yangi Ahdda Iso Masih Xudo va'da qilgan Shoh yoki moylangan Zotdir. U xochda bizning o'rnimizga azob chekib, o'lim ko'rgan Masihdir.

Dovud qanday azob chekkan? [9]

Azob-uqubatlar ichida Dovud nima yozgan? [10]

Iso qanday azob chekkan? [11]

4. U buyuk shoh bo'ldi

Oxir-oqibat Dovud Isroilning eng buyuk shohi bo'ldi. Hukmronligining so'nggi yillariga kelib, Isroil yerlari sharqda Furot daryosidan g'arbda Misrgacha cho'zilib bordi.

Yangi Ahdda, Iso — butun dunyoga hukmronlik qiladigan shohlarning Shohi! (**Filippiliklarga 2:9–11**)

Dovud va Iso qanday shoh edilar? [12]

Dovud qaysi to'rt jihatdan Masihnning tasviri edi? [13]

1.

2.

3.

4.

Masihga ishora qiluvchi va'dalar

2-Shohlar 7:1–16 ni o'qing.

Shu paytgacha hech qanday ma'bad yo'q edi va isroilliklar Xudoga Muqaddas chodirda sajda qilishardi.

Lekin bu bo'limda Dovud nima qilmoqchi? [14]

Nima uchun? [15]

Egamiz Dovuddan mamnun bo'lsa-da, Uning rejasi boshqacha edi. Xudo bu ma'badni Dovudning o'g'li — Sulaymon qurishini xohladi.

Biroq, Xudo Dovudga uchta ajoyib va'da bergen:

10-oyatda Xudo nimani va'da qildi? [16]

Xudo ularga abadiy huzur-halovatda yashaydigan va bu halovatni hech kim buzolmaydigan bir makon berishni xohlardi. Ammo bilamizki, Isroil xalqi Xudoga qarshi isyon qilishda davom etaverdi.

Axir Xudovand qanday qilib bu xalqqa abadiy huzur-halovat yerini bersin? Axir ular Xudoni o'zlarining Egasi sifatida xohlamaydilar-ku!

O'shanda payg'ambarlar shuni anglab yeta boshladilarki, abadiy huzur-halovat makoni haqidagi va'dalar ajoyib kelajakka — Masih keladigan kunlarga ishora qilayotgan edi (Masalan: Ishayo 60:11).

15-oyatda Xudo nimani va'da qildi? [17]

Dovudning o'g'li Xudoga ma'bad quradi. Ma'bad — Xudo O'z xalqi bilan birga yashaydigan joy.

Biroq Xudo Unga qarshi har doim isyon ko'taradigan odamlar bilan qanday yashay olsin?! O'shanda payg'ambarlar yana shuni anglay boshladilarki, bu va'dalar ham Masihning huzuri toabad odamlar orasida bo'ladigan kunlarga ishora qilmoqda edi (Masalan: Hizqiyol 48:35).

Xudo 12,13 va 16-oyatlarda nimani va'da qildi? [18]

Yurtni boshqarayotgan shohlar tobora yomonlashib borayotgan bir paytda, bu va'dalar qanday amalga oshishi mumkin?

O'shanda payg'ambarlar shuni anglab yeta boshladilarki, bu va'dalar Dovud naslidan kelib chiqadigan benuqson Shoh — Masihning Shohligiga ishora qilmoqda edi. (Masalan: Ishayo 9:6–7)

Xudo Dovudga qanday uchta narsani va'da qildi? [19]

1.

2.

3.

Iso Dovudning naslidan kelib chiqdi. U Xudo va'da qilgan abadiy Shohdir! U bizni O'zining huzur-halovatli makoniga olib boradi va u yerda biz Iso bilan abadiy yashaymiz!

Yuhanno 14:1–3: *Iso shogirdlariga dedi:*

— *Yuragingiz siqilmasin. Xudoga ishoning, Menga ham ishoning! Otam Xudoning uyida maskan ko'p. Shunday bo'lmaganda edi, sizlarga bularni aytib o'tirmagan bo'lardim. Men sizlarga joy tayyorlagani ketyapman. Men borib sizlarga joy tayyorlayman-u, sizlarni O'zim bilan olib ketgani kelaman. Toki Men bo'lgan joyda sizlar ham bo'linglar. Men boradigan joyga olib boradigan yo'lni sizlar bilasizlar.*

Iso bu oyatlarda nima va'da qiladi? [20]

Shuningday, Vahiy kitobida ham o'sha makon haqida o'qiymiz:

Vahiy 21:3–4: «*Xudoning maskani insonlar orasidadir!*
U endi odamlar orasida yashaydi,
Ular Xudoning xalqi bo'ladi.
Xudoning O'zi ular bilan birga bo'ladi».

Abadiy huzur-halovat maskanida kim biz bilan birga yashaydi? [21]

Shunday ekan, Xudoga qarshi isyon qilgan Isroil xalqi kabi bo'lmaylik! Xudo ularni ana shu sababdan jazolashga majbur bo'ldi.

Qo'limizdan kelganicha Xudoni mammun qilishga harakat qilaylik. Hamda Iso Masihning qayta kelishiga tayyor turaylik. Shunda U bizni abadiy huzur-halovat maskaniga olib boradi!

Qanaqa yo'llar bilan Xudoga qarshi isyon qilyapsiz? Qaysidir o'y-hayollariningiz yoki aytgan so'zlariningiz va hatti-harakatlariningiz bilan Xudoni ranjityapsizmi?

Unday bo'lsa nima qilishimiz kerak? Tavba qilishimiz kerak!

Qo'shimcha ma'lumot: Ma'bad xuddi Adan bog'iga o'xshardi

Muqaddas chodir, keyinroq esa Ma'bad, Xudoning xalqiga Adan bog'ini eslatardi.

- Adan bog'i **chiroqli daraxtlar va gullarga** to'la bo'lgan. Ma'bad ham o'sha boqqa o'xshatib bezatilgan. Ma'bad ichida gullar va anor tasvirlari chizilgan va naqsh qilib o'yib chiqilgan (3-Shohlar 7:16–20).
- Adan bog'ida **oltin va qimmatbaho toshlar** bo'lganiday, Ma'bad ham oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan (3-Shohlar 7:48–50; 2-Solnomalar 3:6).
- **Xudo** Adan bog'ida **maskan qilganiday**, Muqaddas chodir/Ma'bad xalqning orasida bo'lganida, Xudo ham O'z xalqi orasida «maskan qilgan» (Levilar 26:11–12).
- **Chiqish Adan bog'inining sharqiy tomonida** bo'lganiday, Ma'baddan chiqish ham sharq tomonda bo'lgan (Hizqiyol 47:1).
- Xuddi **karublar Adan bog'inining kirishini qo'riqlaganday** (Ibtido 3:24), Ma'bad pardalari ustiga ham karublar surati solingan (2-Solnomalar 3:14). Bu karublar odamlar Eng Muqaddas Xonaga kirmasliklari uchun, Xudo u yerni himoya qilishining ramzi bo'lgan. Ahd Sandig'i ustida ham ikkita oltin karublar qo'yilgan edi. Bu ham bo'lsa Xudo odamlar yaqinlasha olmaydigan darajada juda muqaddas ekanining ramzi bo'lgan.
- Adan bog'idan bir **daryo** oqib o'tgan. Bu daryo butun dunyoga hayot baxsh etuvchi to'rtta irmoqqa bo'lingan. Hizqiyol kitobining 47-bobida, Egamiz Xudo kelajak haqida vahiy yuborib, yangi Ma'baddan oqib o'tadigan daryo barchaga hayot bag'ishlashini aytgan.

Ma'bad qaysi jihatlari bilan Xudoning xalqiga Adan bog'ini eslatgan? [22]

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.

Javoblar

- 1 – Miloddan (Isoning tug‘ilishidan) taxminan 1000 yil oldin.
- 2 – Eramizdan 800–400 yil oldin.
- 3 – Baytlahm degan shaharchada.
- 4 – Baytlahmdan.
- 5 – Baytlahmda.
- 6 – Ularni filistliklardan qutqardi.
- 7 – Iso ularni o‘limdan, gunohdan va shaytondan xalos qildi!
- 8 – Shohlar va oliy ruhoniylarning.
- 9 – Shoh Shoul uni yillar davomida ta’qib qilgan.
- 10 – Dovud juda ko‘p Zabur sanolarini yozgan. Bu sanolarda Masih haqida bashorat qilingan.
- 11 – U bizning o‘rnimizga xochda o‘lim ko‘rdi.
- 12 – Dovud Isroiuning eng buyuk shohi edi. Iso esa shohlarning Shohidir! U vaqt-soati kelib, butun dunyo ustidan hukmronlik qiladi!
- 13 – 1) Dovud Baytlahmda tug‘ildi;
2) Xudoning xalqini qutqardi;
3) moylangan shoh bo‘lishiga qaramay, ko‘p azob chekdi;
4) Isroiuning eng buyuk shohi bo‘ldi.
- 14 – Xudo uchun ulkan va chiroyli ma’bad qurishni istar edi.
- 15 – Buni qilish orqali Xudoni ulug‘lamoqchi edi.
- 16 – Abadiy huzur-halovat maskani va’da qildi.
- 17 – Xudo hech qachon ularni sevishdan to‘xtamaydi; Xudo ular bilan abadiy birga bo‘ladi.
- 18 – Dovudning naslidan kelib chiqadigan va Isroiuning abadiy shohi bo‘ladigan bir Shoh va’da qildi.
- 19 – Abadiy huzur-halovat maskani;
ular bilan abadiy birga bo‘lishini;
Dovudning naslidan kelib chiqadigan va Isroiuning abadiy shohi bo‘ladigan Shoh va’da qildi.
- 20 – Iso kelib, bizni Otasining uyiga (abadiy huzur-halovat maskanimizga) olib boradi.
- 21 – Xudoning O‘zil!
- 22 – 1) U yerda chiroyli daraxtlaru gullar,
2) oltin va qimmatbaho toshlar bo‘lgan;
3) u yer Xudoning maskani bo‘lgan;
4) chiqish sharqiy tomonda bo‘lgan;
5) Karublar Adan bog‘ining kirishini qo‘riqlaganlar;
6) daryo (kelajak haqidagi vahiyda) dunyoga hayot baxsh etadi.

19-dars:

Hikmat kitoblari: Ayub



Muqaddas Kitobda 5 ta hikmat kitobi mavjud bo'lib, ular: *Ayub*, *Zabur*, *Sulaymonning hikmatlari*, *Voiz*, va *Qo'shiq*.

Bu beshta kitob Xudoni mamnun qilishimiz va boshqalarga baraka bo'lishimiz uchun donolik bilan yashashimizga yordam beradi.

Bu kitoblarda ko'plab she'r va qo'shiqlar o'rinni olgan. Qo'shiq va she'rlar qalbimizga chuqur ta'sir qiladi. Odatda ular eng samimiyy his-tuyg'ularimizni ifoda qilishga yordam beradi. Xudo yuragimizga his-tuyg'ular bergan, lekin ko'pincha ular yashirin qolib ketadi. Zabur sanolari bizga yuragimiz tubidagi his-tuyg'ularni ko'rishga va ularni tilga keltirib, Xudoga to'kishga yordam beradi. Bunday qilsak, Xudo bizga tasalli va shifo berishga hamda qayta tiklashga qodir bo'ladi.

Ushbu beshta hikmat kitobida azob-uqubat, sevgi va donolikka qanday ega bo'lish kabi odamlar boshdan o'tkazadigan ko'plab narsalar haqida yozilgan. Bu kitoblar bizni hamisha Xudoga va Uning sodiq sevgisiga yo'naltiradi.

Xudo bu kitoblar orqali biz bilan gaplashishni yaxshi ko'radi!

Beshta hikmat kitobi qaysilar? [1]

Ayub

Ayub kitobi azob-uqubat chekkan Ayub haqidadir. Bu kitobni tushunish uchun uni to'liq o'qib chiqish kerak.

1-va 2-boblarini o'qing.

Ayubning ko'p narsasini yo'qotgani aytiladi. U nimalarni yo'qotgan? [2]

Biz uchun o'rnak

1. **1:21** da u nima deydi? [3]

Buni o'z so'zlariningiz bilan aytib bering.

Shubhasiz, u bizlar uchun ajoyib o'rnak bo'la oladi, ya'ni har qanday vaziyatda — hatto har turli qiyinchiliklarni boshdan o'tkazayotganimizda ham — Xudoni ulug'lashni o'rganishimiz lozim.

2. 2-bob, 10-oyatda u nima deydi? [4]

Buni o'z so'zlariningiz bilan aytib bera olasizmi?

Xudo bizga bergen hamma narsani — xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin — kamtarlik bilan qabul qilishimiz kerak.

3. Lekin Ayub mukammal inson bo'lмаган. U Xudodan g'azablangan.

Ayub Xudodan nima so'raydi? (3:11) [5]

Bu ham biz uchun yaxshi o'rnak, ya'ni o'z his-tuyg'ularimiz haqida Xudoga ochiq aytishimiz kerak. Xudo bizni tushunadi va bizdan yuragimizda borini ochiqchasiga Unga aytishimizni istaydi. Azob tortayotganimiz bois, Xudodan yuz o'girishimizni U xohlama ydi. Ayub dard va iztiroblarida Xudoga ishonishni o'rgangan.

Qaysi uch holatda Ayub biz uchun o'rnak bo'ladi? [6]

1.

2.

3.

Xudoga savollar

Ayub nima sababdan azob chekayotganini bilishni xohlaydi. Xudo uning savollariga javob bermaydi. Biroq keyinroq, 38–41-boblarda, Xudo Ayubga quyun orasidan zohir bo'lib gapiradi va bu Ayub uchun yetarli edi.

Xudo gapirganida, bizning savollarimizga javob berishi shart emasligini anglaymiz. Hamma narsa Xudoning nazorati ostida. Xudo hammaning ustidan hukmronlik qiladi. Shunday ekan, hamma narsani tushunib yetishimiz shart emas, biroq, hamma narsada Xudoga ishonishimiz shart. Yaxshi kunda ham, yomon kunda ham Unga ishonsak, Xudo bizdan mamnun bo'ladi.

Biz Xudodan nima kutishimiz kerak? [7]

Xudo bizdan nima kutadi? [8]

Baxtli yakun

Ayub 42:7–17-oyatlarni o'qing.

Eski Ahd kitoblarida bu dunyodan o'tgandan keyin nimalar bo'lishi haqida unchalik aniq yoritilmagan. Bu oyatlar Ayubning chekkan azob-uqubatlaridan keyin Xudo uni qanday barakatlaganini ko'rsatadi. Yangi

Ahdda, Xudo yerdagi hayotimizda bu kabi baxtli yakunlarni va'da qilmaganini ko'ramiz. Biz uchun bu bobda aytilgan narsalar tasavvur qila olishimizdan ham ko'rkmorq bo'lgan Samoviy Vatanning tasviridir! (Vahiy 21:1-4 va 22:1-5)

Ayubning so'nggi kunlari nimaning tasviri? [9]

Qo'shimcha

Faqat bir joyda Ayub vaqt kelib, ehtimol qayta tirilganidan keyin, Xudoni ko'rishga umidi borlini aytadi.

Ayub 19:25-27 ni o'qing.

Gunoh va azob

Ayubning do'stlarining aytishicha, odam azob cheksa, bu uning gunoh qilganidan dalolat beradi. Biroq Ayub o'zining solih odam ekanini va chekayotgan azoblarining sababi gunoh emasligini bilardi. Kitobning ko'p qismida Ayub do'stlari bilan bu xususda bahslashadi.

Ushbu kitob bizga azob-uqubatlar har doim ham gunoh qilganimiz bois kelmasligini o'rgatadi. Iso hech qachon gunoh qilmagan, biroq U rad etildi, haqsizliklarga uchradi va eng shafqatsiz o'limni boshdan kechirdi. Iso bizning barcha azoblarimizga chek qo'yish uchun O'zi azob chekdi!

Bu qachon sodir bo'ladi? [10]

Shu bilan birga, bilamizki, Xudo azob-uqubatlarni biz uchun yaxshilikka ishlatadi. Masalan:

Yoqub 1:2-4: Xudo hayotimizda bo'ladigan sinovlarni qanday qilib yaxshilikka ishlatadi? [11]

Azob chekkanimizda biz tanlov oldida turamiz: yo xafa bo'lib yuragimizni tosh qilish, yoki bu azobni Isoga yanayam ko'proq o'xshashimiz uchun berilgan imkoniyat sifatida ko'rish.

Ibroniylarga maktub 13:5 da Xudo bizga nima va'da qilgan? [12]

Agar biron kishi azob chekayotgan bo'lsa, bu uning gunoh qilganini anglatadimi? [13]

Hech qachon va hech bir noto'g'ri ish qilmaganiga qaramay, azob chekkan kishini misol keltiring. [14]

Qachon boshqa hech ham azob-uqubat bo'lmaydi? [15]

Xudo qanday qilib bizning barcha qiyinchiliklarimizni yaxshilikka ishlatadi? [16]

Qiynalganimizda qanday tanlov oldida qolamiz? [17]

Ibroniylarga maktub 13:5 da Xudo bizga nimani va'da qilgan? [18]

Hayotimizdagi barcha qiyinchiliklarda Egamiz bizga inoyat ko'rsatsin!

Ayub kitobi orqali Xudo sizga nimani o'rgatdi?

Javoblar

- 1 – Ayub, Zabur, Sulaymonning hikmatlari, Voiz, Qo'shiq.
- 2 – Bor bisotini, farzandlarini va keyinroq sog'ligini.
- 3 – U shunday dedi: «Onamning qornidan yalang'och tushgandim, dunyodan ham yalang'och ketaman. Hamma narsamni Xudo bergan edi, Xudoning O'zi olib qo'ydi. Egamning nomiga hamdu sanolar bo'lsin!»
- 4 – Xudoning qo'lidan yaxshi narsalarni qabul qilamizu, yomonlarini olmaymizmi?
- 5 – Nima uchun meni bu dunyoga keltirding?
- 6 – 1) Har turli qiyinchiliklarni boshdan o'tkazayotganimizda ham Xudoni ulug'lashni o'rganishimiz kerak; 2) Xudo bizga bergan hamma narsani — yaxshi va yomonni — kamtarlik bilan qabul qilishimiz kerak; 3) O'z his-tuyg'ularimizni Xudoga ochiq aytishimiz kerak.
- 7 – Xudo bizning barcha savollarimizga javob bermasligi mumkin, lekin Uni qidirgan paytimiz, O'zini bizga namoyon qiladi.
- 8 – Yaxshi kunda ham, yomon kunda ham biz Xudoga ishonishimiz kerak.
- 9 – Samoviy Vatanni.
- 10 – Iso bizni Samoviy Vatanimizga olib ketish uchun qaytib kelganida.
- 11 – Imonimiz sinalishidan sabr-toqat kelib chiqadi.
- 12 – Sizlarni tashlab ketmayman, sizlarni tark etmayman.
- 13 – Yo'q.
- 14 – Iso.
- 15 – Iso bizni Samoviy Vatanimizga olib ketish uchun qaytib kelganida.
- 16 – Imonimiz sinovi matonatni hosil qiladi. Matonatimiz o'sib borib, biz hech qanday nuqson siz, yetuk va barkamol bo'lishimiz kerak.
- 17 – Yo xafa bo'lib yuragimizni tosh qilish, yoki bularni Isoga yanada ko'proq o'xshashimiz uchun berilgan imkoniyat deb bilish.
- 18 – Sizlarni tashlab ketmayman, sizlarni tark etmayman.

20-dars:

Hikmat kitoblari: Zabur



Bilasizmi...?

- Zabur Muqaddas Kalomdag'i eng katta kitobdir.
- Unda 150 ta sano bor.
- Zaburdagi sanolar 700 yil davomida yozilgan.
- Zabur sanolarining aksariyatini shoh Dovud yozgan. Qolganlarini esa Muso, Sulaymon va boshqa ko'plab kishilar yozib qoldirganlar.
- Yangi Ahd mualliflari Eski Ahd kitoblari orasida eng ko'p Zabur oyatlaridan iqtibos (sitata) keltirishgan. Yangi Ahddning faqat 4 tasidan tashqari qolgan barcha kitoblarida Zabur oyatlaridan iqtiboslar bor.
- Masih haqidagi payg'ambar bashoratlari Eski Ahddagi boshqa kitoblarga ko'ra ko'proq Zabur kitobida yozilgan.
- Yangi Ahdda yozilishicha, Zabur sanolari yahudiylarning, shu jumladan Isoning ham, qo'shiq kitobi bo'lgan. Agar bu qo'shiqlarni Iso kuylagan bo'lsa, biz ham kuylashimiz lozim.
- Sanolardagi asosiy mavzuni tushunish uchun esa ularni bir necha marta o'qishimiz kerak.

Zabur kitobida nechta sano bor? [1]

Zabur kitobidagi sanolarning ko'p qismini kim yozgan? [2]

Yangi Ahdda kim Zaburni qo'shiq kitobi sifatida ishlatgan? [3]

Sanolardagi asosiy mavzuni qanday anglab olamiz? [4]

Sanolarning uchta asosiy turi:

1. Xudoni **ulug'lash** uchun foydalanishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina sanolar bor. **99-Zaburni** o'qing.
2. Xudoga qilgan ishlari uchun **minnatdorchilik bildirishda** ishlatishimiz mumkin bo'lgan ko'p sanolar bor. **114-Zaburni** o'qib chiqing. Bu sano o'lim xavfidan xalos qilgan Xudoga shukrona qo'shig'idir.

3. Hayotning qo‘rqinchli ekanini his qilganimizda, Xudoga **iltijo qilish** uchun foydalanishimiz mumkin bo‘lgan ko‘plab sanolar mavjud. Masalan, muallif ushbu satrlarni yozganida, nimalarni his qilgan?

87:19: «*Yaqin do’stilarimdan meni ayirding,
Ularga meni jirkanch qilding,
Qamalib qolganman, xalos bo’la olmayman.*» [5]

Zabur sanolarini o‘qiganimizda, muallif bu sanoni yozayotganda nimalarni his qilgani haqida o‘ylab ko‘raylik. Ba’zan biz ham o‘zimizni shunday his qilamizmi?

Xudoni ulug‘lashda, Unga minnatdorchilik bildirganimizda va Unga iltijo qilishda Zaburdagi so‘zlardan foydalanishimiz mumkin!

Xudo bizga har qanday vaziyat va kechinmalarni izhor qilishimizga yetadigan so‘zlarni Zabur sanolari orqali beradi.

Zaburdan qanday uchta asosiy maqsadda foydalanishimiz mumkin? [6]

1.

2.

3.

Zabur bizga Isoni bilib olishga yordam beradi

1. Shoh Dovud o‘z sanolarida Masihga ishora qilganini yodda tutishimiz lozim. Ko‘p hollarda Dovud boshdan kechirgan vaziyatlar Isoga ishora qiladi.

Masalan:

- Uning azoblari. Dovudning o‘z azoblarini tasvirlash usuliga qarasak, ular uning bardoshi yetishidan ko‘ra og‘irroq azoblar ekanini ko‘ramiz. **Zabur 21:13–19** ni o‘qing — xochga mixlanishning naqadar hayratlanarli ta’rifi; bu ham bo‘lsa, hali odamlar xochga mixlash jazo usulini ixtiro qilmaslaridan yuzlab yillar oldin yozilgan!
- To‘g‘ri, Dovud buyuk shoh bo‘lgan. Biroq ba’zida sanolardagi ta’riflar Dovudga ishora qilishdan juda uzoqda ekanini ko‘rish mumkin. **Zabur 2:6–9** ni o‘qing — bu sano butun dunyoning Shohi bo‘ladigan Masihni tasvirlaydi!

2. Zaburda Xudo haqida o‘qiganlarimiz Isoning kimligini ko‘rsatadi.

Masalan: **Zabur 102:2–3** ni o‘qing. 3-oyatda Xudo nima qiladi? [7]

Mark 2:1–12 bilan qiyoslang. Iso haqida nima yozilgan? [8]

Yana bitta misol: **Zabur 22:1** ni o'qing. Xudo kim? [9]

Yuhamno 10:11 ni o'qing. Iso haqida nima yozilgan? [10]

Qanday qilib Dovudning hayoti Masihga ishora qilganiga ikkita misol keltiring. [11]

1.

2.

Zaburda Ota-Xudo haqida aytilgan so'zlar O'g'il-Xudoga ham tegishli ekanligiga ikkita misol keltiring. [12]

1.

2.

Zabur sanolari bizni Isoga yetaklasin!

Zaburdagi eng sevimli sanongiz qaysi? Nima uchun u sizga yoqadi? [13]

Qo'shimcha

Zaburdagi ba'zi oyatlarda muallif Xudodan o'zining dushmanlarini hukm qilishini, ya'ni dushmanlarining boshiga yomon narsalar kelishini istaydi. Masalan, **Zabur 108**.

Yangi Ahdda qasos haqida nimani o'rganamiz? **Rimliklar 12:17–19** ga qarang. [14]




Odamlar Xudoning xalqini quvg'in qilganlarida, bizning vazifamiz qasos olish emas, aksincha, ibodat qilish va shu tobda ichimizda nimalarni his qilayotganimiz haqida Xudoga ochiq aytishdir. Odamlar Xudoning farzandlarini quvg'in qilganida, U bizdan ko'ra ko'proq g'azablanadi. Iso tez orada qaytib keladi va barcha yovuz odamlarni adolat bilan hukm qiladi!

Javoblar

- 1 – 150 ta.
- 2 – Shoh Dovud.
- 3 – Iso.
- 4 – Bir necha marta o'qish kerak.
- 5 – Uning fikricha, hayot bundan ham yomonroq bo'lishi mumkin emas. Endi uning do'stlari yo'q, faqat zulmat bor!
- 6 – 1) Xudoni ulug'lash uchun,
2) Unga minnatdorchilik bildirish uchun va
3) Unga iltijo qilish uchun ishlatsizimiz mumkin!
- 7 – Hamma gunohlarimni U kechiradi, Barcha xastaliklarimga U shifo beradi.
- 8 – Iso uning gunohlarini kechirdi va uni shifoladi.
- 9 – Mening cho'ponim
- 10 – Iso — yaxshi cho'pon
- 11 – 1) U azob chekkan, va
2) buyuk shoh bo'lgan
- 12 – 1) Bizning Qutqaruvchimiz va
2) yaxshi cho'pon.
- 13 – Masalan, 22-Zabur: Sodiq Xudo bizni yetaklaydi, bizga g'amxo'rlik qiladi va bizga kerak bo'lgan kuchni beradi. Bizning vazifamiz Unga ergashishdir!
- 14 – Hech kimga yomonlik evaziga yomonlik qaytarmasligimiz kerak. Qasos ham olmaylik, balki, Xudoning g'azabiga yo'l qo'yib beraylik.

21-dars:

90-Zabur



Ushbu sanoni o‘qib chiqing.

Bu Zabur sanosi Shoh uchun, ya’ni Masih uchun, shu bilan bирgalikda, bizlar uchun berilgan va’dalarni o‘z ichiga oladi!

Xudovand bizning qal’amizdir

Odamlar nimalar haqida qayg‘urishadi? [1]

Zabur 90:2 da muallif Xudo haqida nima deydi? [2]

Qal’a — urush paytlarida xavfsiz bo‘lgan joy. Biz unda yashirinamiz va bexatar bo‘lamiz.

4-oyatda Xudo nimaga qiyoslanadi? Xudoning xalqi nimaga qiyoslanadi? [3]

Xuddi tovuq o‘z jo‘jalarini qanotlari ostida himoya qilganiday, Xudo ham bizni xavf-xatardan himoya qiladi.

5–6-oyatlarni o‘qing. Xudoning tabiatи haqida mulohaza yuritib, Uning kim ekani haqida o‘zimizga eslatib tursak, buning qanday ta’siri bo‘ladи? [4]

7–8-oyatlarni o‘qing. Ushbu oyatlar Xudo fosiqlarni hukm qilishini, O‘z xalqini esa himoya qilishini tasvirlaydi. Bu Iso dunyonи hukm qilish uchun qaytib keladigan qiyomat kunini anglatadi. O’sha kuni Xudoning hokimiyatiga bo‘ysunmaganlar abadiy jazoga mahkum bo‘ladilar.

Xudoga va Xudo tanlagan Shoh — Masihning hokimiyatiga itoat qilganlarga nima bo‘ladи? (8-oyat) [5]

Shunday qilib, Xudoning tabiatи haqida mulohaza yuritib, Uning kim ekani haqida o‘zimizga eslatib tursak, buning qanday ta’siri bo‘ladи? [6]

Masih bilan iblis orasidagi kurash

Iblis Masihni mag'lub etishga harakat qiladi

Iblis Adan bog'i davridan beri Masihning kelishidan qo'rqardi (Ibtido 3:15). Iso dunyoga kelganida, iblis bor kuchi bilan Uni o'ldirishga harakat qildi (Matto 2:13–16). Buni uddalay olmagach, Isoni muvaffaqiyatsizlikka yo'liqtirish uchun jon-jahdi bilan kurashdi.

Matto 4:5–7 ga ko'ra, iblis 90-Zabur sanosidagi oyatlarni qanday ishlatgan? [7]

Nima uchun Iso iblisga agar ma'bad tepasidan O'zini pastga otsa, Xudo Uni saqlab qolishini isbotlashni xohlamadi? (Matto 4:7) [8]

Bundan tashqari, shayton bizga nimaiki demasin, hech qachon uning aytganini qilmasligimiz kerak!

Matto 4:11 ni o'qing. Zabur 90:11 da Xudo va'da qilgan farishtalarning kelib, Isoga xizmat qilganini ko'ramiz.

Masih iblisni yengadi

Zabur 90:13: Ilon yoki ajdarho iblisni tasvirlaydi. Sherlar esa, zarar yetkazmoqchi bo'lganlarni anglatadi (Zabur 21:14).

Ibtido kitobi 3:15 da Xudo ilon shaklida ko'ringan shaytonga nima dedi? [9]

Momo Havoning avlodi shaytonni yengadi, lekin bu asnoda O'zi ham azob chekadi.

Zabur 90:13 da Masih nima qiladi? [10]

U iblisni va uning malaylarini yengadi!

Xo'sh, Masihning vazifasi nimadan iborat edi? [11]

Muammolar kelganda

15–16-oyatlarda Xudo unga nimani va'da qiladi? [12]

Xudoning unga va'dalari:

- u bilan birga bo'lish;
- uni qutqarish;
- uni hurmatga sazovor qilish;
- unga uzoq umr berish;
- va unga najot berish.

Filippiliklar 2:8–11 ni o'qing. Xudo Masihga bergan va'dalarini bajardimi? [13]

Xudo Isoni **azoblari va o'limi orqali** qutqardi. Isoning o'limi Xudo Unga g'amxo'rlik qilmaganini bildirmaydi. Aksincha, Xudo bu qayg'ular **ichida** U bilan birga edi. Xudo Uni qutqardi (o'likdan tiriltirdi). Uni hurmatga sazovor qildi. Iso endi abadiy tirik. Isoning Xudoga bo'lgan itoati orqali Xudo ko'p odamlarga najot olib keldi!

13-oyat bizga Masihning nima qilishini aytadi? [14]

Isoga umid bog'lagan ekanmiz, endi shaytondan va uning jinlaridan qo'rmasligimiz kerak.

15-oyat bizga Xudo haqida nima deydi? [15]

Xudo O'z farishtalari bilan bizni kunning har daqiqasida himoya qiladi! Ammo, Muqaddas Kitobda aytishicha, ba'zida Xudo yomon narsalar sodir bo'lishiga yo'l qo'yib beradi.

«Isoga ergashayotganingiz uchun endi hech qanday muammongiz bo'lmaydi», deb aytadiganlarga quloq solmang.

Yuhanno 16:33 da Iso O'z shogirdlariga nima dedi? [16]

Muammolarimiz bo'ladi, biroq Iso bizga O'zining tinchligini beradi.

Rimliklarga maktub 8:38–39 da Xudo bizga qanday ajoyib va'dani bergan? [17]

Isoga ergashsak, hech narsa bizni Xudoning sevgisidan mahrum qila olmaydi!

Shunday ekan, Isoning izdoshlari muammolarga duch kelishadimi? [18]

Rimliklarga maktub 8:38–39 da Xudo bizga qanday va'da bergan? [19]

Xudoning rejalari

Iso 90-Zaburni yaxshi bilardi. **Luqo 22:42** ga ko'ra, o'limidan oldingi kecha, Zaytun tog'ida Iso nima deb ibodat qildi? [20]

Xudo bizni yovuzlikdan asray olishini, biroq ba'zan biz uchun rejalari buyukroq bo'lishi mumkinligini Iso tushunardi.

Luqo 22:43 ni o'qing. Xudo Isoga kuch ato etish uchun bir farishtasini yubordi.

Kuddi shu singari, Xudo bizni ham yovuzlikdan asray olishini, biroq ba'zida biz uchun rejalari buyukroq bo'lishini bilamiz. Agar Xudo bizdan muammolarga bardosh qilishni kutayotgan bo'lsa, shuni bilishimiz kerakki, har doim bizni qo'llab quvvatlash uchun O'zining farishtalarini yuboradi!

Rimliklarga maktub 8:28–29-oyatlarda Xudo bizning muammolarimizni qanday ishlatishi haqida nimani bilib olamiz? [21]

Shunday qilib, Xudo nega hayotimizda qiyinchiliklarga yo'l qo'yib beradi? [22]

Abadiy Hayot

Zabur 90:16 da Xudo nimalarni va'da qiladi? [23]

Eski Ahd o'limdan keyingi hayot haqida juda oz ma'lumot beradi. Eski Ahdda uzoq umr Xudoning marhamatiga ishora bo'lgan.

Yangi Ahdda Xudo bizga bu dunyo uchun uzoq umr va'da qilmaydi, biroq afzalrog'ini, ya'ni tasavvurimizga ham sig'maydigan darajada ajoyib, abadiy hayotda U bilan birga yashashni va'da qiladi!

Iso bizni gunohdan, o'limdan va shaytondan xalos qildi! U bizga abadiy hayot sovg'a qildi! Endi biron bir narsadan qo'rqishimiz kerak emas!

To'g'ri, har doim ham Xudoning rejalarini ko'ra olmaymiz, lekin bizning vazifamiz, Iso Xudoga ishonganidek, Xudoga ishonishdir.

Xudo bizga g'amxo'rlik qilishni, hayotimiz bo'yicha biz bilan birga bo'lishni va abadiy hayot berishni va'da qilgan. Shunday ekan, hech narsadan qo'rqlig'imiz!

Xudo bizga nimalarni va'da qilgan? [24]

Bizning vazifamiz nimadan iborat? [25]

90-Zaburning qaysi oyatini ko'proq eslab qolishim kerak deb o'ylaysiz?

Javoblar

- 1 – Odamlar sog‘ligi haqida, kelajaklari haqida, imtihonlar haqida, farzandlari va eng ko‘p pul haqida qayg‘urishadi.
- 2 – Xudovand panohim va qal’amdir.
- 3 – Xudo kuchli ona qushga qiyoslangan, biz esa ojiz jo‘jalarga.
- 4 – Biz hech narsadan qo‘rqmaymiz.
- 5 – Xudo ularni bexatar saqlaydi.
- 6 – Hech narsadan qo‘rqmaydigan bo‘lamiz.
- 7 – Iblis 11–12-oyatlarni Isoni vasvasaga solish maqsadida ishlatgan, ya’ni Isoga ma’bad tepasidan O‘zini pastga otib, shu tarzda Xudoning O‘g‘li ekanini barchaga isbotlashini aytgan.
- 8 – Xudoni sinash noto‘g‘ri.
- 9 – *Dushmanlik paydo qilaman sen bilan xotin o‘rtasida,*
Sening zoting bilan uning zoti orasida.
Uning zoti ezib tashlaydi sening boshingni,
Sen chaqib olasan uning tovonini.
- 10 – Masihning vazifasi sher va zaharli ilon ustidan bosib o‘tish, yirtqich sher va ilonni oyog‘i bilan ezish edi.
- 11 – Iblisni yengishdan iborat.
- 12 – «*U iltijo qilganda Men javob beraman,*
Og‘ir kunlarida u bilan birga bo‘laman,
Uni qutqarib, unga izzat ko‘rsataman.
Uzoq umr berib, uni mammun qilaman,
Unga najot beraman».
- 13 – Ha!
- 14 – Xudoning Masihi shayton ustidan g‘alaba qildi! Shunday ekan, Xudoning xalqi har qanday yovuzlikdan bexatar bo‘la oladi!
- 15 – Xudo bizning iltijolarimizni eshitadi va og‘ir kunda biz bilan birga bo‘lishni va’da qiladi.
- 16 – *Men tufayli xotirjam bo‘lishingiz uchun bularni sizlarga aytdim. Dunyoda qayg‘u-alam chekasizlar.*
Lekin dadil bo‘linglar, Men dunyoni yengdim.
- 17 – *O‘lim ham, hayot ham, farishtalaru jinlar ham, hech qanday g‘ayritabiyy kuchlar ham, hozirgiyu kelgusi hodisalar ham, balandliklari chuqurliklar ham, yaratilgan bironta mavjudot ham bizni Rabbimiz Iso Masih shaxsidagi Xudoning mehr-muhabbatidan judo qilishga qodir emas.*
- 18 – Ha!
- 19 – Hech qanday narsa bizni Xudoning sevgisidan judo qila olmaydi!
- 20 – Ey Ota! Qaniyi, bu azob kosasini Mendan uzoqlashtirsang! Ammo Mening xohishim emas, Sening xohishing bajo bo‘lsin.
- 21 – Xudo muammolarimizdan bizni yanada ko‘proq Isoga o‘xshatish maqsadida foydalanadi.
- 22 – Xudo muammolarimizdan bizni yanada ko‘proq Isoga o‘xshatish maqsadida foydalanadi.
- 23 – *Uzoq umr berib, uni mammun qilaman, Unga najot beraman.*
- 24 – Xudo bizga g‘amxo‘rlik qilishni, butun hayotimiz davomida biz bilan birga bo‘lishni va abadiy hayot berishni va’da qilgan.
- 25 – Xudoga ishonish va qo‘rqmaslik!

22-dars:

Hikmat kitoblari: Sulaymonning hikmatlari, Voiz va Sulaymonning go'zal qo'shig'i



Sulaymonning hikmatlari kitobi

1:2 ni o'qing. Bu kitobning maqsadi nima? (O'z so'zlaringiz bilan ayting.) [1]

Kimga donolik kerak? [2]

1–9-boblar haqida qisqacha ma'lumot

Dastlabki 9 ta bob bizni hikmatli so'zlarga qulqoq tutishga chaqiradi.

1:7 ni o'qing. Donolikning boshi nima? [3]

Kim donolik va nasihatdan nafratlanadi? [4]

Aksariyat oyatlarda ikki toifadagi odamlar haqida so'z boradi: donolar va ahmoqlar. Biz qaysi biriga tegishli bo'lamiz: donolargami yoki ahmoqlargami?!

1:8–9 ni o'qing. O'g'il nima qilishi kerak? [5]

4:14 ni o'qing. O'g'il nima qilmasligi kerak? [6]

Bizni Xudodan uzoqlashtiradigan begona ovozlarni emas, balki donolikning ovozini tinglashimiz kerak.

3:5–6 ni o'qing. Nima qilishni bilmaganimizda, qanday yo'l tutishimiz kerak? [7]

Xudoga itoat qilib, Undan donolik so'raganimizda, U bizni to'g'ri va yaxshi yo'ldan yetaklaydi. Bu haqda 22-Zaburda ham yozilgan. Xudovand — mening Cho'ponim, U meni to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Bu kitobda qanday ikkita toifadagi odamlar haqida so'z yuritiladi? [8]

10–31-boblар haqida qisqacha ma'lumot

To'qqizta oyatdan keyin turli mavzularda oyatlar bor. Odatda bu oyatlar barchamiz bilishimiz kerak bo'lgan narsalar haqida gapiradi. Masalan: pul, ish, og'zimizdan chiqadigan so'zlar, uy, do'stlik, oila, hokimiyat va hayot.

Keling, birini misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

14:1 ni o'qing. Dono xotin nima qiladi? [9]

Bu nima degani? [10]

Nodon xotin nima qiladi? [11]

Bu nima degani? [12]

Bu erkaklarga ham tegishli!

10–31-boblarda qanday mavzular haqida gap boradi? [13]

Va'dalar emas

Bu kitobdagi oyatlar bizga berilgan va'dalar emas, balki muallif o'z hayotida guvoh bo'lgan narsalardir. Ular har doim ham sodir bo'lmasa-da, lekin odatda sodir bo'lib turadigan narsalarni tasvirlaydi.

Masalan, mana bu oyatga qaraylik:

Sulaymonning hikmatlari kitobi 13:25: *Solih qorni to'yib ovqat yeydi,
fosiq esa och qoladi.*

Solihlarning har doim ham yeyishga ovqati bo'ladimi? [14]

Fosiqlar har doim ham nonga zor bo'ladimi? [15]

Bilamizki, solihlar ba'zan och qoladilar. Bunga deyarli har doim odamlarning gunohlari sabab bo'ladi. Masalan, urushlar yoki hukumatlarning ochko'zligi yoki bo'lmasa oilada kimdir butun oilaning tirikchiligi uchun kerak bo'lgan pullarni ichkilikka sarflab yubordi va hakazo. Biz hali ham Xudoga qarshi isyon ko'targan dunyoda yashaymiz!

Odatda bu oyatlar to'g'ridir: Eski Ahdda, oddiy vaziyatlarda solihlik baraka olib keladi. Qonunsizlik esa baxtsizlik keltiradi. Eski Ahdda shuni ko'ramizki, bu yerda aytilgan baraka va jazo abadiyatdagi, ya'ni Iso Masih qaytib kelganida bizni kutayotgan abadiy marhamat va abadiy jazo haqida aytilgan. Bizning umidimiz bu dunyoning moddiy narsalariga asoslangan emas.

Hayotning bu yerda tasvirlanganlarga o'xshamasligi bizga shuni eslatadiki, **biz bu oyatlar ro'yobga chiqadigan o'sha kunni intiqlik bilan kutib yashamoqdamiz**. O'shanda barcha solihlar to'q bo'ladilar! Bu qachon sodir bo'ladi? [16]

Ayni damda hayotimizga to'g'ri kelmaydiganday ko'ringan bu oyatlar ushbu kitobning buyuk hikmatlaridan saboq olishimizga xalal bermasin!

Hayotda bu kitobning biron bir oyatiga mos kelmaydigan vaziyatga duch kelsak, nimani esda tutishimiz kerak? [17]

Bu kitobda sizga eng ko'p yoqqan oyat qaysi?



Voiz kitobi

Voiz kitobi 1:1–14 ni o'qing.

Voiz kitobida hayotning ma'nosi muhokama qilinadi.

Kitobning nima haqda ekanini anglash uchun uni to'liq o'qib chiqish kerak.

Asosiy mavzu: **Xudosiz hayotimizning ma'nosi yo'q**: Ishlashning nima keragi bor? Yaxshi inson bo'lishdan nima foyda? Odamlarga yaxshilik qilishdan nima foyda?

Muallif hayotda hamma narsa behuda va shamolning orqasidan quvishday ekanini takror-takror aytadi (masalan 1:14). Sizningcha, bu nima degani? [18]

Kitobning oxirrog'iga kelib, muallif shunday xulosa qiladi:

Voiz kitobi 8:15: *Shuning uchun men bu hayotdan rohat olishni maslahat beraman. Bu dunyoda odamlarga yeyish, ichish va xursand bo'lishdan boshqa yaxshiroq narsa yo'qdir. Xudo insonga bergen bu dunyodagi hayoti davomida qiladigan mehnatida shodlik u bilan bo'ladi.*

Egamiz bizdan U bergen hayotdan rohatlanib yashashimizni xohlaydi!

Biroq ba'zida hayotimiz behudaday bo'lib ko'rindi: har kuni ishga borib kelamiz, har kuni bir xil narsani qilaveramiz.

Ammo hayotdagi bo'shliqlar bizni Iso Masih qayta keladigan kunga ko'z tikishga undashi kerak. Samoviy Vatanimizda hayot ma'noga to'la, ajoyib va hayratlanarli bo'ladi! Bu dunyo haqiqiy vatanimiz emas!

Hayotning behudaligi bizni nimaga ko'z tikib yashashga undashi kerak? [19]



Sulaymonning go'zal qo'shig'i kitobi

Sevgi qo'shiqlari erkak va ayol orasidagi sevgini ifodalaydi.

Erkak va uning xotini orasidagi yaxshi munosabatlar Xudodan berilgan qimmatbaho sovg'adir. Bu bizga Xudoning bizga bo'lgan sevgisini ham eslatadi!

Efesliklarga maktub 5:22–33 ni o'qing. Er-xotin orasidagi nikoh bizga nimani ko'rsatadi? [20]

Vahiy kitobi 19:6–8 ni o'qing. Kuyov kim? Kelin-chi? [21]

Qo'shiq 2:16: *Sevgilim menikidir, men esa unikiman.*

Bu haqiqat Iso bilan bizning oramizdagi munosabatga ham tegishli!

Bizni sevadigan biron kimsa yo'qligini his qilganimizda, Iso bizni sevishini unutmaylik. Hech kim hech qachon bizni Iso kabi seva olmaydi! Iso bilan vaqt o'tkazganimizda, U bizni sevgisiga to'ldiradi. Ana o'shanda biz ham Uning sevgisini atrofimizdagi insonlarga ko'rsata olamiz.

Qo'shiq 4:1: *Qanday go'zalsan, ey sevgilim,
Qanchalik go'zalsan!*

Tashqi ko'rinishdan jozibador emasman deb his qilganimizda, shuni unutmaylikki, Iso uchun har doim chiroylimiz! Qanchalik chiroyli ekanimizni anglab yetganimizda, boshqalarga ham ularning naqadar chiroyli ekanliklarini ularni sevish, g'amxo'rlik va hurmat-ehtirom ko'rsatish orqali namoyon qila olamiz.

Iso sizga nima demoqda? [22]

Erning ayoliga bo'lgan muhabbati bizga nimani eslatishi kerak? [23]

Nikoh nimani tasvirlaydi? [24]

Kim bizni eng yaxshi turmush o'rtog'idan ham ko'proq sevadi? [25]

Ushbu darsda Xudo haqida nimani bilib oldik?

Javoblar

- 1 – Bizga dono va fahm-idrokli bo'lishga yordam beradi.
- 2 – Barchamizga hikmat kerak!
- 3 – Egamizdan qo'rqish.
- 4 – Ahmoqlar.
- 5 – Otasining nasihatlariga qulq solish, onasining o'gitlarini rad etmaslik.
- 6 – Gunohkorlar bilan yurmaslik, ularning qilganini qilmaslik kerak.
- 7 – Egamizga butun qalbingiz bilan ishonib, sizga yo'l ko'rsatishini so'rang.
- 8 – Dono va ahmoq.
- 9 – O'z uyini quradi.
- 10 – Uning barcha fikrlari, so'zлari va ishlari butun oilasiga quvonch va birlik keltiradi.
- 11 – O'z qo'llari bilan buzadi.
- 12 – Uning barcha fikrlari, so'zлari va ishlari butun oilasiga baxtsizlik va bo'linish keltiradi.
- 13 – Pul, ish, og'zimizdan chiqadigan so'zlar, uy, do'stlik, oila, hokimiyat, hayot va boshqalar.
- 14 – Yo'q.
- 15 – Yo'q.
- 16 – Iso bizni osmondagи uyimizga olib ketgani kelganida.
- 17 – Ushbu oyatlар ro'yobga chiqadigan kunni kutib yashayotganimizni unutmasligimiz kerak. O'sha kunda Xudovand O'z xalqi bo'lgan bizlarni tasavvur qilganimizdan ham ortiqroq barakalaydi!
- 18 – Hayotimiz Xudosiz hech qanday ma'noga ega emas, behuda va mazmunsizdir.
- 19 – Isoning qaytib kelishiga.
- 20 – Odamlar orasidagi nikoh Iso va Uning jamoati o'rtaSIDAGI yaqin munosabatga ishora qiladi.
- 21 – Iso va jamoat.
- 22 – *Qanday go'zalsan, ey sevgilim,*
Qanchalik go'zalsan!
- 23 – Xudoning bizga bo'lgan sevgisini!
- 24 – Iso va Uning kelini bo'lgan imonlilar jamoatining nikohi.
- 25 – Iso!

23-dars:

Isroilning va Yahudoning payg'ambarlari



Muqaddas Kalomda 5 ta hikmat kitobidan keyin payg'ambarlar kitoblari keladi.

Eski Ahdda payg'ambar kim bo'lgan?

Payg'ambar Xudoning xabarini aytish uchun Xudo tomonidan tanlangan kishidir. Eski Ahdda payg'ambarlarning ko'pchiligi asosan Xudoning xalqiga xitob qilishgan. Faqat ba'zilarigina (masalan, Yunus payg'ambar) Xudoning xabarini boshqa xalqlarga yetkazganlar.

Soxta payg'ambar Xudoning emas, balki o'zi o'ylab chiqargan xabarni xalqqa gapiradi. Haqiqiy payg'ambar esa Xudodan nimani eshitsa, o'shani gapiradi va uning aytganlari amalga oshadi.

Eski Ahdda payg'ambar kim bo'lgan? [1]

Xudo nima uchun payg'ambarlarni yuborgan?

Xudo payg'ambarlarni quyidagi maqsadlarda yuborgan:

1. O'z xalqini **ogohlantirish** uchun. Chunki ular Xudoning amrlariga itoat qilmasdilar.
2. Xudo nafaqt O'z xalqini, balki boshqa xalqlarni ham **hukm qilishini va jazolashini** aytish uchun.
3. Xudo O'z xalqini, shuningdek, boshqa xalqlarni ham **barakalashini** aytish uchun.

Qaysi uchta sababga ko'ra Xudo O'z xalqiga payg'ambarlarni yuborgan? [2]

Shuningday, payg'ambarlar orqali Xudo O'z xalqiga ajoyib va'dalarni bergan:

- Surgundan keyin Xudo O'z xalqini yana **Quddusga** qaytarib olib keladi.
- **Xalqni gunohlaridan qutqarish uchun** Xudo ularga Qutqaruvchi yuboradi.
- Xudo O'z xalqini **jannatdagi uyiga** olib boradi.

Bu va'dalar ko'pincha uchta alohida voqeа emas, balki bitta voqeа kabi ifodalanadi.

Xudo O'z xalqiga qanday ajoyib va'dalarni bergan? [3]

Payg'ambarlar kimga gapirganlar?

Xo'sheya, Amos va **Yunus** Isroil xalqiga gapirganlar.

Ilyos va **Elishay** ham Isroilning payg'ambarlari edilar, ammo ular kitob yozmaganlar.

Boshqa ko'plab payg'ambarlar Yahudo xalqiga gapirganlar.

Isroil xalqiga xitob qilgan bir payg'ambarni misol keltiring. [4]

Qaysi ikkita muhim payg'ambar kitob yozmagan? [5]

Xudoning boshqa payg'ambarlari qaysi xalqqa gapirishgan? [6]

Ular qachon gapirganlar?

Ularning olib kelgan xabarlarini tushunish uchun, ular qachon gapirganlarini bilishimiz kerak.


1. Ba'zi payg'ambarlar **Xudo O'z xalqini surgun qilishidan oldin** gapirganlar. Masalan, Ishayo va Yeremiyo.
2. Ba'zi payg'ambarlar surgun davrida, Xudoning xalqi **Bobilda yashayotgan paytda** gapirganlar. Masalan, Doniyor va Xizqiyol.
3. Yana boshqalari **Xudoning xalqi surgundan Quddusga qaytib kelganidan keyin** gapirganlar. Masalan, Xaggey, Zakariyo va Malaki — Eski Ahdning oxirgi uchta kitobi.

Ularning aytganlari haqiqatan amalga oshdi!

Surgundan oldin bashorat qilgan payg'amlardan birini misol keltiring. [7]

Surgunda paytida xalqqa xitob qilgan payg'ambarlardan birini misol keltiring. [8]

Surgundan keyingi davrda xalqqa xitob qilgan payg'ambardan birini misol keltiring. [9]



4 ta sana

Yuqoridagi xronologik jadvalga qarang.

1. Iso tug'ilishidan oldingi **722**-yilda ossuriyaliklar Isroil xalqini Ossuriyaga olib ketishdi. Shundan keyin Isroil xalqi haqida biron ma'lumot bo'lmadı.
2. **150 yil o'tgach, (Iso tug'ilishidan oldingi 586-yilda)**, bobilliklar Yahudo xalqini mag'lub etishdi, ma'badni vayron qilib, Xudoning xalqini Bobilga olib ketishdi.
3. **70 yil keyin (Isodan oldingi taxminan 500-yillarda)** Fors imperiyasi Bobil imperiyasini mag'lub qildi. Fors shohi Kurush Xudoning xalqiga agar xohlasalar, Quddusga qaytib borishlari mumkinligini aytdi.

Ammo ko'p o'tmay Xudoning xalqi Unga yana sadoqatsizlik qila boshladi. Undan keyingi 400 yil mobaynida Xudo hech qanday payg'ambar yubormadi.

Xudoga sodiq bo'lganlarning bari Muqaddas Bitiklarni o'qib o'rganishardi. O'qib o'rganganlari orqali esa bir kun kelib Xudo ularni qutqaradigan Masihni yuborishini bilib olishgan edi.

4. **Taxminan eramizning boshlanish yillarida** Iso tug'ildi.

Xudoning Eski Ahddagi barcha va'dalarini amalga oshiradigan Zot U edi!

Bizni abadiy uyimizga olib boradigan ham U edi!

Qachon ossuriyaliklar Xudoning xalqini Ossuriyaga olib ketishdi? [10]

Qachon bobilliklar Yahudo xalqini mag'lub qilib, Xudoning ma'badini ham buzib, xalqni Bobilga olib ketishdi? [11]

Qachon Xudoning xalqiga vataniga qaytishga ruxsat berildi? [12]

Iso qachon tug'ilgan? [13]

Xudoning Eski Ahddagi barcha va'dalarini kim amalga oshiradi? [14]

Surgun

Buni Adan bog'ida sodir bo'lganlarning takrori deyish mumkin.

Adan bog'ida nima bo'lgan edi? [15]

Xuddi shunday, Xudoning xalqi gunoh qilganida, Xudo ularni yurtidan va O'zining huzuridan quvib chiqardi.

Ular surgundan nafaqat jismoniy yurtlariga, balki Xudoning huzuriga qaytishlari kerak edi.

Muqaddas Kalomning asosiy mavzusi biz — insonlar qanday qilib Xudoning huzuridagi hayotga, ya'ni Adan bog'iga qayta olishimiz haqidadir.

Bu xususda Vahiy kitobida o'qiyimiz.

Vahiy kitobi 21:3: *Men taxtdan baland bir ovoz kelganini eshitdim. O'sha ovoz dedi:
«Xudoning maskani insonlar orasidadir!
U endi odamlar orasida yashaydi,
Ular Xudoning xalqi bo'ladilar.
Xudoning O'zi ular bilan birga bo'ladi».*

Nihoyat, biz qachon Xudoning huzuridagi hayotga qaytamiz? [16]

Muqaddas Kitobning asosiy mavzusi nima? [17]

Biz qanday qilib Xudo bilan hozirgi va abadiyatdagi munosabatlarimizni tiklashimiz mumkin?
(Yuhanno kitobi 6:40) [18]

Yangi Ahd

Iso o'likdan qayta tirilgandan keyin, Uni taniy olmagan ba'zi shogirdlari bilan gaplashdi.

Iso ularga dedi: «Bunchalik befahm bo'lmasangizlar?! Payg'ambarlarning gaplariga ishonish nega sizlar uchun shunchalik qiyin?! Axir, Masih ulug'lanishidan oldin bu azoblarni boshdan kechirishi kerak edi-ku!» Keyin Musodan tortib, barcha Payg'ambarlar bitiklarida O'zi haqida yozilgan so'zlarning hammasini Iso ularga tushuntirdi. (Luqo kitobi 24:25–27)

Iso payg'ambarlar haqida nima dedi? [19]

Uning o'limi va tirlishi Xudoning O'ziga qarshi isyon qilgan dunyoni qutqarish uchun tuzgan rejasining bir qismi edi.

Ishayo kitobi 55:12 ni o'qing. Xudoga kelganlarga Ishayo payg'ambar nima deydi? [20]

O'z hayotingizni Yaratgan Egangizga va Uning Masihiba ishonib topshirishdan kattaroq baxt yo'q!

Xudo bugun ham payg'ambarlar kitoblari orqali bizlarga gapirmoqda!

Shunday ekan, payg'ambarlar kitoblarini o'qishga vaqt ajrating!

Uyga vazifa

Ishayo kitobi 40–55-boblarni o'qing.

U Masihbida nimalar deganiga e'tibor bering.

Ushbu darsda Xudo haqida nimani bilib oldik?

Javoblar

- 1 – Payg'ambar Xudoning xabarini yetkazish uchun Xudo tomonidan tanlangan kishidir.
- 2 – O'z xalqini ogohlantirish uchun;
Xudo nafaqat O'z xalqini, balki boshqa xalqlarni ham hukm qilishini va jazolashini aytish uchun.
Xudo O'z xalqini, shuningday, boshqa xalqlarni ham barakalashini aytish uchun.
- 3 – Surgundan keyin Xudo O'z xalqini Quddusga qaytarib olib keladi.
Xudo xalqni gunohlaridan qutqaradigan Qutqaruvchi yuboradi.
Xudo O'z xalqini samodagi uyiga — jannatga olib boradi.
- 4 – Xo'sheya, Amos va Yunus.
- 5 – Ilyos va Elishay.
- 6 – Yahudo xalqiga.
- 7 – Ishayo va Yeremiyo.
- 8 – Doniyor va Hizqiyol.
- 9 – Xaggey, Zakariyo va Malaki.
- 10 – Eramizdan oldingi 722-yilda.
- 11 – Eramizdan oldingi 586-yilda.
- 12 – Isoning tug'ilishidan taxminan 500 yil oldin.
- 13 – Taxminan eramizning boshlanish yillarida.
- 14 – Iso!
- 15 – Odam Ota va Momo Havo gunoh qilganida, Xudo ularni Adan bog'idan va O'z huzuridan haydab yuborgan edi.
- 16 – Iso Masih qaytib kelganida, O'zi bilan abadiy birga yashashimiz uchun bizni Samoviy Vatanga olib boradi.
- 17 – Qanday qilib Xudoning huzuridagi hayotga, ya'ni Adan bog'iga qayta olishimiz haqida.
- 18 – Biz Iso Masihga va Uning biz uchun qilgan ishlariga ishonishimiz kerak.
- 19 – Payg'ambarlar Masih haqida, jumladan, Uning o'limi va qayta tirlishi haqida ko'p narsalarni aytishgan.
- 20 – *Ha, siz xursand bo'lib borasiz,*
Sog'-omon qaytib kelasiz.
Oldingizda tog'lar, tepaliklar
Sevinch ila hayqiradi,
Daladagi hamma daraxtlar qarsak chaladi.

24-dars:

Ishayo payg'ambar



Ishayo Dovuddan 300 yil keyin (Iso kelishidan 700 yil oldin) yashagan bo'lib, u paytda Xudoning xalqi ikki yurtga bo'linib ketgan edi? Bu ikki yurtning nomlari nima edi? [1]

Ishayo payg'ambar Yahudo xalqiga xitob qilgan.

Ossuriya imperiyasi tez orada Isroilni bosib oladi va Yahudoni ham qo'lga olishga harakat qiladi. U allaqachon Yahudo yurtidagi ba'zi shaharlarni egallab olgan edi. Bu judayam dahshatli kunlar edi.

Xudo O'z xalqiga ta'na qiladi

Ishayo 1:1–2:5 ni o'qing.

Nega Xudo O'z xalqidan g'azablandi? (**1:1–4**) [2]

1:5–9 da Ishayo aytadi: «Nega Xudoning jazosini ko'rmaysiz? Biz Xudoga qarshi isyon qilganimiz bois yurtimiz vayron bo'lgan».

Ular qanday azob chekayotgandilar? (7-oyat) [3]

Xudo ularning dindorligi haqida nima deydi? (**1:10–15**) [4]

Xudo nima uchun O'z xalqining ibodatlarini eshitmagan? (**1:15**) [5]

1:21–23 da Xudo O'z xalqini xotini sifatida tasvirlaydi. (Ishayo 54:5)

21-oyatda Xudo Quddusni qanday tasvirlaydi? [6]

24-oyatda Xudo O'z xalqini qanday tasvirlaydi? [7]

Xudo O'z xalqiga qarshi kurashmoqchi!

Xudo bularning barini nima uchun aytyapti? [8]

Muqaddas Kitobning boshidan oxirigacha Xudo muqaddas ekanini va gunohni jazolashi kerakligini ko'ramiz. Lekin U O'z xalqini sevadi va har doim ularni kechirishni xohlaydi.

Xudo ularga nima qilishlari kerakligini aytmoqda? (**1:16–20**) [9]

Xudo rahmdil Xudodir!

Xudo ularni kechirishni va poklashni xohlaydi. Xudo ularni barakalashni xohlaydi.

Biroq bilamizki, Xudoning xalqi tavba qilmagan. Shunday ekan, oxir-oqibat Xudo nima qildi? [10]

Lekin Xudo ulardan butunlay yuz o'girmadi.

Ishayo payg'ambar kitobida Xudo O'z xalqini surgundan keyin Quddusga qaytarib olib kelishini va'da qiladi. (40-bobni va 43:1–7-oyatlarni o'qidingizmi?)

Xalqini Quddusga qaytarib olib kelish va'dasi ularning Quddusga qaytishidan ko'ra yanada a'loroq bo'lgan boshqa narsani ham tasvirlashini ko'ramiz. Ya'ni, bu va'da Adan bog'ida bo'lganidek, Xudo O'z xalqi bilan munosabatini qayta tiklaydigan vaqtini — Yangi Quddusni tasvirlaydi.

Quddus qanday ko'rinishga ega? (**2:1–4**) [11]

Bu **Vahiy kitobi 21:22–27** da yozilganlarga o'xshaydi.

Ishayo kitobida Masih



Ishayo Masih haqida boshqa payg'ambarlarga qaraganda ko'proq gapiradi.

Ishayo 52:13–53:12 ni o'qing. Bu azob chekkan Xudoning quli haqida.

Ushbu she'riy parcha beshta qismidan iborat bo'lib, uning eng muhim ma'nosi o'rta qismidadir.

- A. **52:13–15:** Xalqlarga kechirim berish uchun Qulim azob chekadi. Shunda U yuksaladi.
- B. **53:1–3:** Qulim rad etiladi, toptaladi, oxir-oqibat o'limga topshiriladi.
- V. **53:4–6: O'limining sababi bizga Xudo bilan tinchlik olib kelish edi.**
- B. **53:7–9:** Qulim rad etiladi, toptaladi, oxir-oqibat o'limga topshiriladi.
- A. **53:10–12:** Xalqlarga kechirim berish uchun Qulim azob chekadi. Shunda U yuksaladi.

She'rning qaysi qismi eng muhim? [12]

Xudo O'z xalqiga ularning gunohlari uchun o'ladigan va keyin yuksaladigan Masihni yuborishini aniq aytgan edi. U azob-uqubat chekkanidan keyin shon-shuhuratga ega bo'ladi.

Ishayo 53:5: *Uning yaralari bizga shifo berdi*

Ko'pchilik bu oyatni noto'g'ri ishlatishadi. Eski Ahd oyatlarini to'g'ri tushunish uchun biz ikkita narsaga qarashimiz kerak:

1. Bu oyatlarni ular yozilgan kontekstda (bobda) o'qishimiz kerak. Ya'ni, oyatni to'g'ri tushunish uchun undan oldingi va keyingi oyatlarni o'qishimiz kerak bo'ladi.

Biz nimadan shifo olganmiz? [13]

2. Bu oyat haqida Yangi Ahdda ham aytildimi? Iso Masih bu mavzuda biron narsa o'rgatganmi? Shularni ham bilib olishimiz kerak.

1-Butrus 2:24–25: *U gunohlarimizni O'ziga oldi, a'zoi badani yog'ochda azob chekdi. Shu tu'fayli biz gunoh uchun o'lganmiz va solih hayot kechira olamiz.* **Uning yaralaridan biz shifo topdik.** *Ilgari sizlar adashib yurgan cho'ponsiz qo'ylarga o'xshar edingizlar, endi esa jonlaringizning posboni bo'lgan Cho'ponga qaytib keldingizlar.*

«Uning yaralaridan biz shifo topdik», deyish bilan Butrus nimani nazarda tutgan edi? [14]

Iso gunohni kasallik sifatida ham ta'riflagan.

Luqo 5:31–32: *Iso ularga shunday javob berdi:*

- *Sog'lar emas, xastalar tabibga muhtojdir. Men solihlarni emas, gunohkorlarni tavbaga chaqirgani kelganman.*

Iso «xastalar» deganda kimlarni nazarda tutgan edi? [15]

Shunday qilib, bu oyatga qaragan holda, quyidagi xulosaga kelamiz: Iso bizning tanaviy kasalliklarimizga shifo berishga va'da bermaydi. Bu oyat undan ham muhimroq narsa haqida gapiradi. U bizga gunohlarimiz kechirilishini va'da beradi. O'sha Qul bizning Xudo bilan munosabatlarimizni abadii tiklaydi!

Xudo bizning ibodatlarimizga javob berishni yaxshi ko'radi. Uning har narsaga qodir ekanini bilamiz. U shifo bergenida, biz buyuk tasalli topamiz.

Bugun U bizga najotni (kechirim va U bilan yangi munosabatni) va'da qiladi. Butunlay sog'lom tanani esa Yangi Quddusda berishni va'da qilgan. (**1-Korinfliklar 15:42–44**)

Xudo yerdagi hayotimizda har doim ham shifo bermasligi mumkin (**2-Korinfliklar 12:7–10** Xudo Pavlusni shifolamadi!)

Shunday qilib, bu oyatni Xudo bizni shifolashi shart deyish uchun ishlata olmaymiz.

«Uning yaralaridan biz shifo topdik» nimani anglatadi? [16]

Ushbu kitobdan qaysi oyatni eslab qolishni xohlaysiz? Bugun kim bilan bu haqda bo'lishmoqchisiz?

Javoblar

- 1 – Yahudo va Isroiil.
- 2 – Ular Xudoga qarshi isyon qildilar.
- 3 – Ularning shaharlari vayron bo'lgan, hosili o'g'irlab ketilgan edi.
- 4 – Xudo ularning dindorligidan nafratlanadi. Qubonliklarini ham qabul qilmaydi, chunki ular Xudoning qonunlariga itoat qilmaydilar.
- 5 – *Qo'llaringiz qonga botgandir.* — Ular bir-birlarini o'ldirardilar! Xudo bunday yovuz odamlarning ibodatlarini eshitmaydi.
- 6 – Fohisha kabi!
- 7 – Dushmanlari kabi!
- 8 – Chunki Uning xalqi tavba qilmadi.
- 9 – Ular tavba qilishlari va Xudoga qaytishlari kerak.
- 10 – Xudo ularni surgun qildi.
- 11 – Bu tog'larning eng yuksagi (eng muhim) bo'lib, barcha xalqlar unga kelib, Xudo yo'lida yashashni o'rGANADILAR va hamma tinchlikda yashaydi.
- 12 – O'limining sababi bizga Xudo bilan tinchlik olib kelish edi.
- 13 – Gunohlarimizdan shifo topganmiz.
- 14 – Biz kechirildik, chunki Iso biz uchun o'ldi.
- 15 – Gunohkorlarni.
- 16 – Bizning gunohlarimiz kechiriladi va bu Qul bizning Xudo bilan munosabatimizni abadiy tiklaydi.

25-dars:

Naximiyo




Vaziyat

Isoning tug'ilishidan oldingi **586**-yilda Bobil Yahudiya xalqini mag'lub etdi, ma'badni vayron qilib, Xudoning xalqini Bobilga olib ketdi.

70 yil o'tgach, Fors imperiyasi Bobil imperiyasi ustidan g'alaba qozondi. Bu taxminan eramizdan avvalgi **500**-yil bo'lgan.

Fors shohi Kurush Xudoning xalqiga agar xohlasalar, Quddusga qaytib borishlari va ma'badni qayta tiklashlari mumkinligini aytdi.



Surgun!

2-Solnomalar kitobi 36:15–23 ni o'qing.

Xudoning xalqi Uning yuborgan payg'ambarlariga qanday javob bergenlar? [1]

Yahudo xalqiga nima bo'ldi? [2]

Ma'baddagi ashyolarga nima bo'ldi? [3]

Ma'badga nima bo'ldi? [4]

Quddus devorlariga nima bo'ldi? [5]

Xudoning shahrini qayta qurish

Ezra kitobida yozilganidek, surgundan keyin Xudoning xalqidan ba'zilari Quddusga qaytib kelib, ikkinchi Ma'badi qurganlar.

Naximiyo kitobida esa bundan keyin sodir bo'lgan voqealarni o'qiymiz. Bu Isoning tug'ilishidan oldingi **445**-yillarga to'g'ri keladi.

Naximiyo kitobining **birinchi bobini** o'qing.

Naximiyo nimani eshitdi? (**3-oyat**) [6]

Naximiyo nima uchun qattiq xafa bo'ldi deb o'ylaysiz? (**4-oyat**) [7]

Bu vaziyatda go'yoki Yahudoning Xudosi kuchsiz va shuning uchun O'z xalqini himoya qila olmayotgandek ko'rindi.

Naximiyo Xudo haqida nimalarni bilardi? (**5-oyat**) [8]

Naximiyoning ibodatida hayratlanarli narsa nima edi? (**6–7-oyatlar**) [9]

Naximiyoning Masihga o'xshash tarafi bor edi. U o'zi aybdor bo'lmasa ham, xalqning ayb-gunohlari uchun uyalardi. U bu gunohlarga xuddi o'zining gunohlaridek munosabat ko'rsatdi. Ishayo kitobi 53:5–6 da Egamizning Quli haqida ham shu narsalarni o'qiymiz.

Naximiyo Tavrotdan nimani bilar edi? (**8–9-oyatlar**) [10]

Bu ishlarning barini Xudo qilganini Naximiyo ko'rib turardi, biroq bular yetarli emasdi. Xudoga hali ham ehtirom ko'rsatilmayotgandi.

Naximiyo yaxshi va obro'li ishga ega bo'lib, uning hayoti qulay va sokin edi. U Quddusda bo'lib o'tayotgan narsalar haqida qayg'urmasa ham bo'lardi. Lekin, boshqa tomondan, Xudo uni Quddus shahrini, ayniqsa devorlarini qurish uchun ishlatishni xohlayotganini bilardi. Quddus — Xudoning shahri, Xudo O'z xalqi orasida — Ma'badda ular bilan birga yashashni va'da qilgan shahar edi (1:9).

Xuddi shunga o'xshab, hayotingizning yaxshi ekanini va hozir qayerda bo'lsangiz o'sha yerda doimiy qolishingizni o'ylash oson. Ammo, agar boshqa shaharga ishlagani ketgan bo'lsangiz, shuni esda tutingki, Xudo sizni o'z yurtingizda imonlilar jamoatini ochish uchun ishlatishni xohlaydi!

Naximiyo nafaqat vayron bo'lgan shaharni qayta qurdi, balki Xudoning vayron bo'lgan xalqini qayta tiklashga ham hissa qo'shdi.

Ular qay tarzda vayron bo'lishgandi? [11]

Ular tushkunlikka tushgandilar.

Shunday qilib, Naximiyo shahar devorlarini va xalqning Xudoga bo'lgan imonini qayta tiklash uchun Xudoning xalqiga rahbarlik qilib, Quddusga tomon yo'l oldi.

Yaxshi rahbar

Naximiyo kitobining to'rtinchi bobini o'qing.

Naximiyo xalqni qanday yetaklab borgani haqida nimalarni bilamiz? Uning o'z xalqiga qanday rahbarlik qilganiga oid 7 ta dalil keltiring. [12]

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

Yaxshi rahbar bo'lish oson ish emas. Quddus devorlarini qayta qurish davri mobaynida Naximiyo har turli muammolarga, po'pisa va haqoratlarga duch keldi. Ammo Xudo unga xalqni boshqarishga yordam berdi, shunda ish davom etdi va yakunlandi!

Devor haqida nimani o'qiymiz? (**6:15**) [13]

Naximiyo nafaqat shahar haqida, balki odamlarning Xudo bilan munosabati haqida ham qayg'urardi.

Ezra nima qildi? (**8:1–3**) [14]

Odamlar nima qilishdi? (**10:28–29**) [15]

Bu Xudoning xalqi uchun yangi bir boshlang'ich edi! Ular Xudoning so'zini tingladilar va Unga itoat qilishga va'da berdilar.

Naximiyo bugun ham jamoat yo'lboschchilari uchun ajoyib namunadir!

Eski Ahdning oxiri

Bu davr Eski Ahdning deyarli oxiri edi.

Ibtido kitobi 12:1–7 da Xudo Ibrohimga nimalarni va'da qilgan edi? [16]

Eski Ahdning oxiriga kelib, Xudo Ibrohimga bergan va'dalarini qay darajada amalga oshirgandi? [17]

Muammo nimada? [18]

Ilgari Xudoning xalqi kuchli edi, son jihatdan ham ko'p va o'z yurtiga ega edilar. Endi esa ular ojiz, soni ham ancha kamayib ketgan va begona shohning qo'li ostidalar.

Xudoning xalqi umidni qayerdan topa oladi? [19]

Muqaddas Bitiklarni o'qiganlar umid borligini bilardilar. Ular bir kun kelib, Xudo Masihni yuborishini tushunardilar. Masih kelganida esa:

- ularning yuraklarini o'zgartiradi (Hizqiyol 36:26)
- gunohlaridan qutqaradi (Ishayo 53:5–6)
- va barcha xalqlar ustidan abadiy hukmronlik qiladi. (Doniyor 7:13–14)

Masih olib keladigan umid qanaqa? [20]

Masih Xudoning Ibrohimga bergan va'dalarini amalga oshiradi!

Eski Ahd bizni Yangi Ahdga qanday hozirlashini tushuntirib bera olasizmi?

Javoblar

- 1 – Ular payg‘ambarlarga quloq solmadilar.
- 2 – O‘ldirildi yoki surgunga olib ketildi.
- 3 – Bobilga olib ketildi.
- 4 – Yonib kul bo‘ldi.
- 5 – Buzib tashlandi.
- 6 – Asirlikni boshdan o‘tkazib, Yahudo viloyatiga qaytib kelgan yahudiylar og‘ir qayg‘u va sharmandalik ichida edilar: Quddusning devori vayron bo‘lib ketgan, darvozalari esa yoqilgandi.
- 7 – Xudoning shahri vayron qilingan, odamlar esa Xudoni hurmat qilmaydilar.
- 8 – «*Ey Samoviy Xudo — Egam! Sen buyuk va haybatli Xudosan. Seni sevib, amrlaringga rioya qilgan bandalaringga ahdingni sodiq saqlaysan».*
- 9 – Uning o‘zi Xudoga sadoqatsizlik qilmagan bo‘lsa ham, «ular» deb aytmay, «biz» deb Xudoga ibodat qiladi.
- 10 – Xudo O‘z xalqini agar sodiq qolmasalar, jazolashi haqida ogohlantirganini Naximiyo bilardi. Xudo O‘z xalqini surgundan qaytarib olib kelishni va’da qilganini ham bilardi.
- 11 – Ular gunohlari bois surgun qilingandilar. Qaytib kelgan bo‘lsalar-da, Xudoning shahrini qayta qurmadilar va Xudoni ulug‘lamadilar.
- 12 –
 - 1) Naximiyo o‘ziga qarshi chiqqanlarga quloq solmadi.
 - 2) Xudoga ibodat qildi.
 - 3) oqilona amaliy qarorlar qabul qildi (erkaklarning yarmi ishlar, qolgan yarmi esa ishlayotganlarni qo‘riqlardi).
 - 4) Odamlarga yordam kerak bo‘lib qolsa, nima qilish kerakligini rejalashtirdi (kimgadir yordam kerak bo‘lsa, karnay chalinardi).
 - 5) Odamlarga Xudoning kimligini eslatib, dalda berardi.
 - 6) O‘ziga maqtov izlamadi, Xudoning nomi ulug‘lanishini istadi. (1:11 ga ham qarang.)
 - 7) O‘z qo‘llari bilan mehnat qilib, yaxshi o‘rnak bo‘ldi.
- 13 – Devor 52 kun ichida qurib bitkazildi!
- 14 – Tavrot kitobini xalqqa o‘qib berdi.
- 15 – Xudoga itoat qilishga so‘z berishdi.
- 16 – Xalq, yer va u orqali barcha odamlar barakalanishini.
- 17 – Xudo Ibrohimning avlodlaridan katta xalq vujudga keltirdi, ularga yer berdi va boshqa xalqlarga nur bo‘lishlari uchun mukammal qonunlar berdi.
- 18 – Xudoning xalqi begona xudolarga sajda qilib, Xudoning amrlariga bo‘ysunmaganlari uchun hamma narsani barbob qildilar.
- 19 – Xudoning Kalomiga!
- 20 – Ularning yuraklarini o‘zgartiradi. (Hizqiyol 36:26)
Ularni gunohlaridan qutqaradi. (Ishayo 53:5–6)
Va barcha xalqlar ustidan abadiy hukmronlik qiladi. (Doniyor 7:13–14)

26-dars:

8 ta rasmda Muqaddas Kitobdagi tarixiy hikoyalar

Muqaddas Kitob tarixini ko'rib chiqish uchun ushbu rasmlardan foydalanamiz. Bu rasmlar yordamida Muqaddas Kitobni to'liq tushuntirib bera olamiz.



Avvalo, birinchi rasm haqida o'qiymiz. Keyin guruhdan bir kishi o'qimasdan ushbu ma'lumotni takrorlab aytib berishi kerak. Keyin esa ikkinchi rasm haqida o'qiymiz va yana kimdir uni takror aytib beradi. Shu tarzda oxirgi rasmgacha davom etamiz. Oxirigacha borgandan keyin, yana ketma-ket, lekin bu safar o'qimasdan, 8 ta rasm haqida takrorlab aytib beramiz.

1. Yaratilish



Xudovand hamma narsani yaxshi qilib yaratdi. U dastlabki odamlar — Odam Ato va Momo Havo bilan Adan bog'i deb atalgan go'zal bog'da vaqt o'tkazar edi.

2. Gunohning paydo bo'lishi



Odam Ato va Momo Havo Xudoga itoat qilmay, shaytonning gapiga kirdilar. Shunday qilib, ular Xudoning marhamatidan va abadiy hayotdan mahrum bo'ldilar. Rasmdagi ko'rsatkich (strelka) Xudo ularni O'z huzuridan va Adan bog'idan haydab yuborganini ko'rsatadi.

O'shandan beri odamlar Xudo bilan yana aloqa o'rnatishni orzu qiladilar.

3. Va'da



Xudo Ibrohimga va'da berib, uni O'zi uchun tanlaydigan **xalq**ning otasi qilishini aytди. Xudo Ibrohimga o'sha xalq uchun (O'zi ularning orasida ular bilan birga bo'lish uchun) bir **yurt** va'da qildi. Xudo yana Ibrohimga barcha xalqlarni u orqali **barakalashini** va'da berdi.

Rasmdagi toj Xudoning O'zi ularning yaxshi Shohi bo'lishini ifodalaydi. Kamalak esa Xudo O'z va'dalariga sodiq ekanini bildiradi (Ibtido 9:13–16). Unga har doim ishonish mumkin!



4. Chiqish

Xudoning xalqi begona yurtga — Misrga ketdilar va u yerda qul bo'ldilar. (Piramidalar Misrni ifodalaydi.)

Ko'rsatkich belgisi (strelka) Xudo O'z xalqini Misr qulligidan xalos qilganini anglatadi.



5. O'lka

Xudo O'z xalqini va'da qilingan yurtga olib keldi. Ular o'sha yurtda yashaydigan o'ta yovuz kan'onliklarni mag'lub etdilar.

Xudo O'z xalqini barakaladi. Lekin ular begona xudolarga sig'inib ketdilar. Xudo ularni ko'p marotaba ogohlantirdi va oxiri boshqa yurtga surgun qildi. Keyin Xudo ularni va'da qilingan yurtga qaytarib olib keldi, lekin ular haliyam Xudoning qonunlariga bo'yusunmay, gunoh qilishda davom etaverdilar.

Ularni gunohlaridan xalos qiladigan Qutqaruvchi kerak edi. Ularni to'g'ri boshqaradigan Shoh kerak edi. Xudo vaqt-soati kelganda o'sha zotni, ya'ni *Masihni* yuborishni va'da qildi.

Ularning hammasi ham Xudoni unutib yubormagan edi. Iso dunyoga kelganida, Yahudiya Rim imperiyasining bir qismi edi. Xudoga sodiq odamlar Xudo yuborishni va'da qilgan Qutqaruvchini va Shohni haliyam kutib yashayotgandilar. Masalan, Shimo'n va Hanna (Luqo 2:25–38).



6. Iso Masih

Xudo Najotkor yuborish haqidagi va'dasining ustidan chiqdi! Masih Iso xochda gunohlarimiz uchun bir marta va abadiy qurban bo'lish uchun keldi. Keyin U o'limdan tirildi. Bu esa Iso o'limni yengganini ko'rsatadi! Shunday ekan, biz yana Xudo bilan yarasha olamiz.



7. Isoning qayta kelishi

Hozir Iso samoda.

Ko'rsatkich belgisi Iso dunyoga yakun keltirish va barchani qilmishiga yarasha hukm qilish uchun qaytib kelishini bildiradi.



8. Samoviy Vatan

Shundan keyin biz va'da qilingan, yangi va boqiy yurtda — Samoviy Vatanda Xudo bilan birga yashaymiz!

Eski Ahd bizga nima uchun Qutqaruvchiga muhtoj ekanimizni ko'rsatadi. Eski Ahd barchamizning gunohkor ekanimizni ochib beradi. Bizning yuraklarimiz yovuz va buzilgan!

Xudoni yaxshiroq tanib bilishimiz uchun Eski Ahdni ham, Yangi Ahdni ham, ya’ni butun Muqaddas Kitobni to‘liq o‘qishimiz juda muhim.

**Bu hafta mana shu rasmlar haqida aytib berishingiz mumkin bo’lgan biron kishini
Xudo yuborsin, deb bir-biringiz uchun ibodat qiling.**

27-dars:

Xudo bu dunyoga Inson qiyofasida keldi



Matto bilan Luqo Xushxabar kitoblarining boshida Isoning tug‘ilishi haqida yozganlar.

Uning ota-onasi

Matto 1:18–25 ni o‘qing.

18-oyatda siz uchun hayratlanarli bo‘lgan nimani ko‘rdingiz? [1]

Bu tarixda faqat bir bor sodir bo‘lgan narsa!

Uning onasi inson edi, lekin jismoniy otasi yo‘q edi. Bu — Xudoning mo‘jizasi. Iso 100 foiz inson va 100 foiz Xudo edi. Iso yer yuziga kelgan Xudoning O‘zidir!

Xushxabar kitoblarida Isoning haqiqatan inson bo‘lganiga doir qanday dalillar ko‘ramiz? Quyidagi oyatlarga qarang:

Matto 21:18, Yuhanno 19:28, Yuhanno 4:6, Mark 4:38, 11:35, Yuhanno 19:34, Yuhanno 19:33. [2]

Xushxabar kitoblarida Isoning haqiqatan Xudo bo‘lganiga doir qanday dalillar ko‘ramiz? Quyidagi oyatlarga qarang:

Mark 1:33–34, Mark 5:41–42, Mark 6:48, Mark 4:39. [3]

Isoning bokira qizdan tug‘ilgani haqidagi fakt bizga Iso haqida nimani aytadi? [4]

Ishayo 7:14 da, Ishayo payg‘ambar nimani bashorat qilgan edi? [5]

Xudo Isoning tug‘ilishidan yuzlab yil oldin Masihning bokira qizdan tug‘ilishini va’da qilgan edi!

Uning tug‘ilgan joyi

Luqo 2:1–20 ni o‘qing.

Isoning ota-onasi qayerda yashardi? [6]

Iso qayerda tug‘ildi? (4–6-oyatlar) [7]

Agar ota-onasi Nosirada yashagan bo‘lsa, Iso nima uchun Baytlahmda tug‘ildi? [8]

Muqaddas Kitobda yana kim Baytlahmda tug‘ilgan? (**1-Shohlar 17:12**) [9]

2-Shohlar 7:12–13,16 da Xudo Dovudga nimani va’da qilgan edi? [10]

Matto 1:1–16 da Isoning nasabnomasi yozilgan. 6-oyatda qaysi ajdodlarining ismlari berilgan? [11]

Ko‘p yillar davomida Dovud naslidan shoh chiqmagan.

Luqo 2:10–11 da farishtalar cho‘ponlarga nima deyishdi? [12]

Miko kitobi 5:2 da Miko payg‘ambar qanday bashorat qilgan edi? [13]

Isoning qayerda tug‘ilgani nima uchun ahamiyatli? [14]

Hatto tug‘ilgan joyi ham Isoning Masih ekanining isbotidir!

Iso bizga o‘rnak!

Ibroniylarga maktub 4:15 ni o‘qing.

Isoning inson bo‘lgani sizni qanday ruhlantiradi? [15]

Iso dunyoda yashagan barcha odamlardan nimasi bilan farq qiladi? [16]

U inson bo'lish qanchalik qiyinligini tushunishda davom etmoqda. Ammo Uning hayoti biz uchun mukammal o'rnakdir.

Isoning xislatlarini **Galatiyaliklarga maktub 5:22–23-oyatlardagi** Muqaddas Ruhning samaralari ro'yxatida ko'rish mumkin. Isoning tabiati qanaqa bo'lgan? [17]

Isoga ergashganimizda, tobora Unga o'xhash bo'lib boramiz. Odamlar sizning hayotingizda Isoning borligini ko'ra olishadimi? Hayotingizning qaysi sohalarida o'zgarishingiz uchun Isodan yordam so'rashingiz kerak?

Javoblar

- 1 – Maryam bokira qiz bo'lishiga qaramay, Muqaddas Ruh orqali homilador bo'ldi.
- 2 – Qorni ochdi, chanqadi, charchadi, uxladi, yig'ladi, qoni oqdi va oxiri o'ldi.
- 3 – jinlarni quvib chiqardi, xastalarga shifo berdi, o'liklarni tiriltirdi, suv ustida yurdi, bo'ronni tinchitdi.
- 4 – U to'liq odam edi va to'liq Xudo edi!
- 5 – Bokira qiz homilador bo'lib, o'g'il tug'adi va Uning ismini Immanuil qo'yadi. Immanuil «Xudo biz bilan» degan ma'noni bildiradi.
- 6 – Nosiralik.
- 7 – Baytlahmda.
- 8 – Chunki Uning ota-onasi aholi ro'yxatidan o'tish uchun Baytlahmga borishlari kerak edi.
- 9 – Shoh Dovud.
- 10 – Xudo O'z O'g'lining taxtini abadiy mustahkam qiladi. Dovud naslidan bo'lgan Shoh taxtda abadiy o'tiradi.
- 11 – Essay, shoh Dovud va shoh Sulaymon.
- 12 – *Bugun Dovud shahrida sizlar uchun Najotkor tug'ildi. U Masihdir!*
- 13 – Ulug' Hukmdor Baytlahmda tug'ilishi kerak edi.
- 14 – Chunki bu joy Xudo Masihning tug'ilishini aytgan joy edi.
- 15 – U bizning ojizliklarimizni va vasvasalarimizni tushunadi.
- 16 – Iso biron marta ham gunoh qilmagan!
- 17 – U muhabbat, sevinch, xotirjamlik, sabr-toqat, mehribonlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o'zini tutab ilish kabi xislatlarga to'la bo'lgan.

28-dars:

Masih



Masih O'z xizmatini boshlaydi

Mark bayon etgan Xushxabar kitobi Isoning hayoti haqida yozilgan to'rtta Xushxabarning birinchisi edi.

Birinchi bobda nimalar sodir bo'lganini ko'rib chiqaylik.

Mark 1:1: Mark Isoni kim deb aytadi? [1]

Mark 1:11: Iso suvgaga cho'mdirilganida, Xudo Uni nima deb atagan? [2]

Mark 1:16–20: Iso bu odamlarga «Ortimdan yuringlar», deb aytganida, ular nima qilishdi? [3]

Mark 1:22: Odamlar Isoning ta'limoti haqida qanday fikrda bo'lganlar? [4]

Mark 1:24: Yovuz ruh Isoni kim deb atagan? [5]

Mark 1:25–26: Iso yovuz ruhga odamdan chiqib ketishni buyurganida nima bo'ldi? [6]

Mark 1:32–34: Iso nima qildi? [7]

Birinchi bobdayoq Isoning qilgan ishlari Uning haqiqatan Xudoning O'g'li — Masih ekanini isbotlaganini ko'ramiz!

Iso O'zi katta bo'lgan shaharga kelganida, u yerda nimalar sodir bo'lganini Luqo Xushxabarining to'rtinchi bobida o'qiymiz.

Eski Ahdda tasvirlangan Odam

Luqo 4:14–21 ni o'qing.

Eski Ahd davrida Xudoning xalqi kimni kutayotgan edi? [8]

U nima qiladi? (**Ibtido 3:15**) [9]

U yana nima qiladi? (**Ibtido 12:3**) [10]

Ushbu parchada, o'sha yerdagi odamlar Isoning O'z shahriga qaytib kelganidan hayajonlanishadi. Nima uchun? [11]

Keyin ular shanba kuni yahudiylarning sinagogasida to'planishdi. Ular Isodan ularga ta'lif berishini so'radilar.

Iso qaysi payg'ambarning kitobidan o'qidi? [12]

Bu parcha Muqaddas Ruhga ega bo'lgan va ajoyib ishlarni qilish uchun Xudo tomonidan moylangan kishi haqida gapiradi.

Eski Ahdda qanday holatlarda odamlarning boshiga moy surtilgan? [13]

Xudoning moylangani bo'lish Xudo uni alohida vazifaga tayin etganini bildiradi. Ishayo bashorat qilib, bir kun Xudoning Moylangani kelishini va U kelganda, boshqa hech kim bajara olmaydigan maxsus vazifani bajarishini aytgan edi.

18–19-oyatlar da Bu yerda Xudoning moylangani to'rt xil yo'l bilan tasvirlangan insonlar uchun kelishi aytildi. Ular kimlar? [14]

1.

2.

3.

4.

Iso bu so'zlar bilan nimani nazarda tutgani haqida o'ylab ko'raylik.

Yo'qsillar

Iso Xushxabar kitoblarining yana ikkita joyida yo'qsillar/kambag'allar haqida gapiradi.

Luqo 6:20–21: «*Ey kambag'allar, sizlar baxtlisiz!*
Xudoning Shohligi sizlarnikidir.
Ey hozir och bo'lganlar, baxtlisiz!
Sizlar to'q bo'lasizlar.
Ey yig'layotganlar, baxtlisiz!
Sizlar quvonib kulasizlar».

Matto 5:3: *Ruhan kambag'al bo'lganlar baxtlidir,*
Chunki Osmon Shohligi ularnikidir.

Unda, Xushxabar kitoblarida, kambag'allar/yo'qsillar kimlar? [15]

Ko'pincha aynan kambag'allar Xudoga muhtoj ekanliklarini boylardan ko'ra ko'proq anglab yetadilar!

Zindondagilar



Eski Ahdda ko'ramizki, Xudoning xalqi gunoh qilishdan va Xudoga qarshi isyon ko'tarishdan to'xtamagan. Ular ozod emasdilar, har doim gunohga qul bo'lganlar.

Xo'sh, kim ularni «zindon»ga tashlagan? [16]

Ammo Ishayo aytayotgan Odam ularni haqiqatan ozod qiladi! U ularni iblisning qo'li ostidan va gunohdan qutqaradi!

Ko'rlar

Yuhanno 9-bobda Iso ko'rni shifolaydi. 39-oyatda U nima deydi? [17]

Unda ko'rlar kimlar? [18]

Ular o'zlarini yaxshi odam deb o'ylaydilar. Iso esa ularga gunohkor va Xudoga qarshi isyonkor ekanliklarini ko'rsatdi.

Asirlar

Agar sizga zulm qilishsa, bu nimani bildiradi? [19]

Kimlar zolim podshohning qo'li ostida azob chekadi? [20]

Kimdir ularni ozod qilmaguncha, hamma shaytonning hukmronligi ostida azob chekadi. Shayton zolim podshohdir!

Yo'qsillar kimga muhtoj? [21]

Gunohga qul bo'lganlar kimga muhtoj? [22]

Ko‘rlar kimga muhtoj? [23]

Asirlar kimga muhtoj? [24]

Iso ularga 21-oyatda nima dedi? [25]

Uzoq kutilgan Qutqaruvchi va Masih keldi!

Xudo O‘zining Ibrohimga bergen va’dalarini amalgalash oshirdi!

Iso — Xudo va’da qilgan Odam!

Iso O‘zining kim ekanini bizga isbotlash uchun ko‘p mo‘jizalar ko‘rsatdi, ko‘plab xastalarga shifo berdi.


Lekin U bizga mo‘jizalardan ham a’lороq narsani berish uchun keldi. U bizni gunoh, o‘lim va shaytondan ozod qilish uchun keldi!

Bu eng ajoyib xushxabar edi!

Iso nima uchun keldi? [26]

Xalq Uni qabul qildimi?

Luqo 4:28–30 ni o‘qing.



Odamlar Isoning va’ziga qanday munosabat ko‘rsatishdi? [27]

Bu dunyo ikkiga, ya’ni Xudoning O‘g‘lini yaxshi ko‘radiganlarga va Undan nafratlanadiganlarga bo‘lingan. Isoni sevganimiz uchun odamlar bizdan nafratlansalar, hayron bo‘lmashligimiz kerak.

Agar Iso Xudo va’da qilgan Najotkor bo‘lsa, U hamma narsaga arziydi, hatto insonlarning bizdan nafratlanishiga ham.


Iso kim? Bugun U haqida nimalarni bilib oldik?

Javoblar

- 1 – Masih, Xudoning O‘g‘li.
- 2 – *U sevikli O‘g‘limdir, Undan mammunman.*
- 3 – Ular hamma narsani qoldirib, Isoning ortidan ergashdilar.
- 4 – Ular Isoning ta’limotidan hayratda qolganlar.
- 5 – *Sen Xudoning Azizisan.*
- 6 – Odamni tark etdi.
- 7 – Ko‘p bemorlarni shifoladi, jinlarni quvib chiqardi.
- 8 – Ular Najotkor Masihni kutganlar.
- 9 – Shaytonni yengadi.
- 10 – Jamiki xalqlarni barakalaydi.
- 11 – Chunki ular Iso haqida va qilgan mo‘jizalari haqida ko‘p eshitgandilar.
- 12 – Ishayo payg‘ambarning kitobidan o‘qidi (61-bob).
- 13 – Kimnidir shoh yoki oliy ruhoniy qilib tayinlashganida.
- 14 – 1) Yo‘qsillar,
2) zindondagilar,
3) ko‘rlar,
4) asirlar.
- 15 – Bu ularning puli yo‘q degan ma’noni bildirmaydi, balki Xudoga muhtoj ekanliklarini tushungan odamlar ma’nosini bildiradi. Ular kamtarin odamlar.
- 16 – Iblis.
- 17 – *Ko‘rlar ko‘rsin, ko‘zi ochiqlar esa ko‘r bo‘lsin deb, Men bu dunyoni hukm qilgani kelganman, — dedi Iso.*
- 18 – Xudoning kechirimiga muhtoj ekanlarini bilmaydigan odamlar.
- 19 – Demak, siz zolim podshohning qo‘li ostida azob tortyapsiz.
- 20 – Barcha odamlar!
- 21 – Ularga haqiqiy boylikni beradigan Zotga.
- 22 – Ularni shayton qulligidan ozod qiladigan Zotga.
- 23 – Gunohkor ekanliklarini ko‘rish uchun ko‘zlarini ochadigan Zotga.
- 24 – Ularga yaxshi podshoh kerak.
- 25 – *Sizlar eshitgan bu kalom shu bugun bajo bo‘ldi.*
- 26 – U bizni gunoh, o‘lim va shaytondan qutqarib, ozod qilgani keldi!
- 27 – Odamlar Unga ishonmadilar. Uning aytganlarini qabul qila olmadilar. Uni o‘ldirishga harakat qildilar!

29-dars:

Dahshatli fojiami yoki Xudoning rejasi amalga oshdimi?



Isoning o'limi dahshatli fojia bo'lganmi? U shuncha ko'p yaxshiliklar qilayotib, bevaqt o'lim ko'rdi.

Ba'zi odamlar Iso xochda o'lman, odamlarning ko'ziga shunday ko'ringan, deyishadi. Yana ba'zilari esa aslida Uning o'rniда boshqasi bo'lgan, Xudo o'sha odamni Isoga o'xshatib qo'ygan, deyishadi. Biroq bularning hech biri Xudoning xislatlari haqida biz bilgan narsalarga to'g'ri kelmaydi. Xudo odamlarni aldarmaydi! Iso O'zining o'rniда boshqa birovning o'lishiga qarab turarmidi?

Yana ba'zilar Isoni xochdan tushirishganida aslida haliyam tirik bo'lganini, o'lmanini va salqin qabrda o'ziga kelganini aytishadi. Biroq bilamizki, rimliklar odam o'ldirishda mohir bo'lganlar. Ular birovning o'lgan yoki o'lmanligini aniq ajrata olishgan. Biror kishi xochda qatl etilganida, uning jon bergen yoki bermagani aniq bo'lgan. Chunki nafas ola olish uchun inson gavdasini ko'tarishi kerak. Xochda o'layotganda esa nafas olish uchun gavdasini qaytib ko'tarolmagan. Xochga mixlash hozirgacha o'ylab topilgan eng shafqatsiz o'lim jazosi bo'lgan.

Yuhanno 19:34 ni o'qing. Askar Isoning o'lganiga ishonch hosil qilish uchun nima qildi? [1]

Isoning o'rniда boshqasi o'lgan, Xudo uni Isoga o'xshatib qo'ygan, deydigan odamlarga qanday javob berishimiz mumkin? [2]

Iso aslida xochda o'lmay qolgan, qabrga qo'yilgandan keyin o'ziga kelgan, deydigan odamlarga qanday javob bera olamiz? [3]

Iso shogirdlariga O'z o'limi haqida aytdi

Shuningdek, Iso O'zining qanday o'lishini aniq bilgan.

Luqo 9:18–20 ni o'qing.

Iso ko'pgina mo'jizalar ko'rsatib, hech kimnikiga o'xshamagan hokimiyat bilan xalqqa ta'lim bergandan keyin, shogirdlariga savol berdi. Ulardan nimani so'radi? (20-oyat) [4]

Butrus qanday javob berdi? [5]

Yahudiya o'sha davrda Rim imperiyasining bir qismi bo'lган. Isoning shogirdlari Uning shoh bo'lishini va ularni shafqatsiz rimliklardan ozod qilishini xohlardilar.

Luqo 9:21–22 ni o'qing.

Iso O'z shogirdlariga nima dedi? [6]

Bu qanday bo'lishi mumkin? Agar Iso o'ldiriladigan bo'lsa, qanday qilib g'olib shoh bo'la oladi? Shogirdlar uchun bu narsani qabul qilish shunchalik qiyin ediki, Iso ularga buni uch marta aytishiga to'g'ri keldi. (Luqo kitobi 9:44–45 va 18:31–34)

Shogirdlar Isoni Xudo O'z xalqiga yuborishga va'da qilgan shoh ekanini anglab yetgandilar. Ammo Uning qanaqa shoh bo'lishini anglamagandilar. Ular va'da qilingan Shoh azob chekishi kerakligini tushunmasdilar.

Eski Ahdda Masihning o'limi haqida juda kam aytilgan. Payg'ambar bashoratlarining aksariyati Uning qudrati va Xudoning xalqiga najot keltirishi haqida aytadi.

Masalan, **Zabur 2:6–8** ni o'qing.

Xudo O'zi tanlagan shohga nima beradi? [7]

Luqo 9:21–22 da Iso dunyoga nima maqsadda kelganini aytdi. U nima dedi? [8]

Nega shogirdlari uchun Isoning o'ldirilishini tushunish bunchalik qiyin bo'lgan? [9]

Bu narsa odamni hayratga soladi!

Eski Ahddagi qurbanliklar bizni Masihning o'limiga tayyorlaydi

Qurbanliklar haqidagi dars esingizdam? Nima uchun Xudoning xalqi qurbanliklar keltirishi kerak edi? [10]

Ibroniylarga maktub 10:1–4 ni o'qing.

Odamlarning Eski Ahdda qilgan qurbanliklarida qanday muammo bor edi? [11]

Qurbanliklarning qanday foydasi bor edi? (3-oyat) [12]

Bizga gunohlarimizdan butunlay va abadiy tozalaydigan qurbanlik kerak.

Eski Ahddagi bashoratlar bizni Isoning o'limiga tayyorlaydi

Eski Ahddagi qaysi bashoratlar bizga Masihning o'lishi kerakligi haqida aytadi? [13]

Ishayo 53:5–6 ni o'qing.

Iso kelishidan yuzlab yillar oldin, Xudo Ishayo payg'ambar orqali nima dedi? [14]

Zabur 21:15–19 ni o'qing.

Bu sizga nimani eslatadi? [15]

Xochga mixlash jazosi ixtiro qilinishidan yuzlab yillar oldin yozilgan Zabur 21 da aslida xochdag'i o'lim tasvirlangan. Biz endi bilamizki, bu so'zlar Masih haqidagi bashorat bo'lgan.

Masihning o'limi eng boshdanoq Xudoning rejasi edi!

Xudoningadolatli rejasi

Rimliklarga maktub 3:21–26 ni o'qing.

Isoga ishonganlarga Xudoning solihligi berilganiga nima guvohlik beradi? (**21–22-oyatlar**) [16]

Biz qanday qutqarildik? (**23–25-oyatlar**) [17]

Isoning o'limi gunohlarimizning to'lovini to'lash va kechirilishimiz uchun yagona mukammal qurbanlik edi! Abadiy hayotga ega bo'lishning boshqa yo'li yo'q!

Rimliklarga maktubi 6:23 ni o'qing.

Gunohning oqibati nima? [18]

Biroq, Xudo bizga nima beradi? [19]

Dunyodagi eng ajoyib xabar budir!

Shunday qilib, bugun nimani o'rgandik?


Iso nima uchun keldi? Xudo nima uchun Masihni yubordi?

Javoblar

- 1 – Isoning biqinini nayza bilan teshdi.
- 2 – Biroq bu Xudoning xislatlari haqida biz bilgan narsalarga to‘g‘ri kelmaydi. Xudo odamlarni aldamaydi! Iso O‘zining o‘rnida boshqa birovning o‘lishiga qarab turarmidi?
- 3 – Rimliklar odam o‘ldirishda mohir bo‘lganlar. Ular birovning o‘lgan yoki o‘lmaganligini aniq ajrata olishgan. Biror kishi xochda qatl etilganida, uning jon bergen yoki bermagani aniq ko‘rinib turgan. Chunki nafas ola olish uchun inson gavdasini ko‘tarishi kerak. Xochda o‘layotganda esa nafas olish uchun gavdasini qaytib ko‘tarolmagan.
- 4 – «*Sizlar-chi, Meni kim deb bilasiz?*»
- 5 – Siz Xudo yuborgan Masihsiz! Eski Ahdda Xudo va’da qilgan Masih!
- 6 – U o‘ldiriladi, ammo uchinchi kuni qayta tiriladi.
- 7 – Butun dunyon!
- 8 – Iso o‘lish va keyin qayta tirilish uchun kelganini aytdi.
- 9 – Agar Iso o‘ldiriladigan bo‘lsa, qanday qilib g‘olib shoh bo‘la oladi?
- 10 – Xudo muqaddas bo‘lgani uchun, Unga qarshi isyon qilganlarni jazolashi kerak. Qonunsiz ish qilganimizda, gunoh qilganimizda, Xudoga qarshi isyon qilgan bo‘lamiz. O‘z shohiga xiyonat qilgan kishi o‘limga loyiq bo‘lganiday, biz ham gunohlarimiz uchun o‘limga loyiqmiz. Biroq Eski Ahdda Xudo O‘z xalqiga inoyat ko‘rsatib, qurbanlik keltirish orqali gunohlariga kechirim olishga imkoniyat bergen. Faqatgina qoni bizning gunohlarimizni qoplay oladi.
- 11 – Hayvon qurbanliklari bizni Xudo oldida oqlash uchun yetarli emas.
- 12 – Ular gunohlarimizni esga solib turadi. Ular odamlarga gunohlari o‘limga loyiq ekanini ko‘rsatib turgan.
- 13 – Ishayo payg‘ambarning kitobi 53:5–6.
- 14 – Xudo Masih bizning gunohlarimiz uchun qurbanlik sifatida o‘lishini aytdi. U barcha gunohlarimizni oladi!
- 15 – Isoning xochga mixlanishini.
- 16 – Tavrot va Payg‘ambar kitoblari.
- 17 – Isoning qurbanligi orqali.
- 18 – O‘lim.
- 19 – Abadiy hayot!

30-dars:

Isoning qayta tirilishi va osmonga ko'tarilishi



Isoning qayta tirilishi

Luqo 24:1–12 ni o'qing.

Isoning shogirdlari va Unga ergashgan ayollar Isoning qayta tirilishiga umid qilmaganlar. Ular hatto Isoning tirilishini kutmagan ham edi!

Ayollar nega Isoning qabriga ketdilar? [1]

Ularni nima hayratga soldi? [2]

Farishtalar ayollarga nima dedi? (5–7-oyatlar) [3]

Iso shogirdlarini olib Quddus tomonga ketayotganida, O'zining xochda o'ldirilishini, lekin uchinchi kuni qayta tirilishini odindan aytgan edi (Luqo 9:22). Bu ular uchun kutilmagan narsa bo'lmasligi kerak edi!

Isoning o'lidan tirliganiga qanday ishonch hosil qilishimiz mumkin?

- Agar jasad o'g'irlab ketilgan bo'lsa, u holda kafan ham qabrda qolmasligi kerak edi. Jasadni olib, kafanni tashlab ketmagan bo'lishardi (Luqo 24:12).
- Rimlik va yahudiy rahbarlar Isoning qayta tirilmaganini isbotlash uchun Uning jasadini ko'rsatishlari kerak edi. Lekin ular jasadni topa olmaganlar.

- 40 kun mobaynida Iso ko'plab odamlarga ko'ringan. Qanchadan-qancha guvohlar bor edi! (1-Korinfliklar 15:3–8)

Iso o'likdan tirilganiga qanday uchta dalil orqali ishonch hosil qila olamiz? [4]

- 1.
- 2.
- 3.

Luqo 24:36–43 ni o'qing.

Iso hali ham jismoniy tanaga ega ekanini ko'rsatish uchun nima qildi? [5]

Biroq qaysi narsa Isodagi o'zgarishni ko'rsatar edi? [6]

Qaysi jihatdan Isoning tanasi tirilganidan keyin o'zgarmagan? Qaysi jihatdan o'zgargan? [7]

Isoning tirilishi bizga nimani ko'rsatadi?

- 1. Iso o'limni yengdi!** U o'ldi va qayta tirildi.

Masih o'lim kuchini yo'q qildi! (2-Timo'tiy 1:10)

- 2. Iso shaytonni yengdi!** O odamlarni shayton qulligidan ozod qila oladi!

O'zining g'olibona yurishida ularning tutqun ekanligini namoyish etib, sharmanda qildi.
(Kolosaliklarga maktub 2:15)

- 3. Iso gunohlarimizning evazini to'ladi va Xudo buni qabul qildi!**

Masihning to'kilgan qoni orqali Xudo bizni kechirib, gunohlarimizdan ozod qildi.
(Efesliklarga maktub 1:7)

- 4. Iso Masih Unga imon keltirganlarga abadiy hayot beradi!**

Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O'zining yagona O'g'lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birontasi halok bo'lmasin, balki abadiy hayotga ega bo'lsin. (Yuhanno 3:16)

Bu eng ajoyib xabar!

Isoning qayta tirlishi bizga qanday to'rtta narsani ko'rsatadi? [8]

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

Isoning osmonga ko'tarilishi

Havoriylar kitobi 1:1–11 ni o'qing.

Iso o'limdan qayta tirliganidan keyin 40 kun davomida nima qildi? (3-oyat) [9]

Iso O'z shogirdlariga nimani va'da qildi? (5-oyat) [10]

Keyin ularning vazifasi nimadan iborat bo'ladi? (8-oyat) [11]

Shundan so'ng Isoga nima bo'ldi? (9-oyat) [12]

11-oyatda, farishta shogirdlarga nima dedi? [13]

Iso qaytib keladi!

Isoning osmonga ko'tarilishi bizga nimani ko'rsatadi?

Isoning osmonga ko'tarilishi bizga 4 ta narsani ko'rsatadi:

1. Xudo Isoni eng yuqori joyga yuksaltirdi.

Shuning uchun Xudo Uni eng yuqoriga yuksaltirdi va Unga har qanday ismdan yuqori ismnini ato etdi. Toki Isoning oldida yerusmondag'i va yer ostidagi borliq jon tiz cho'ksin! (Filippiliklarga maktub 2:9–10)

2. Iso tez orada dunyoni hukm qilish uchun qaytib keladi.

Biz hammadan ko'ra ko'proq Isodan qo'rqliшимиз kerak!

Xudo huzurida hamda tirigu o'liklarni hukm qiladigan Iso Masih huzurida, Uning kelishi va hukmronligi haqi, senga qat'iy buyuraman. (2-Timo'tiy 4:1)

3. Hozir Iso biz uchun shafoat qilmoqda.

Bizni kim mahkum qilar ekan?! Axir, o'lib, tirligan, Xudoning o'ng tomonida o'tirgan Iso Masihning O'zi biz uchun shafoat qilmoqda-ku! (Rimliklarga kitobi 8:34)

U Ota-Xudoga shunday deydi: «[Sizning ismingiz] — Sening qimmatli farzanding. Uning bu gunohini kechirgin. Mening qonim uni qoplagan. U bu gunohni boshqa qilmasligi uchun va hayoti orqali Seni ulug'lashi uchun, Biz uni Muqaddas Ruhga to'ldiramiz».

4. Biz o'limdan keyin ham jismoniy tanaga ega bo'lamiz.

1-Korinfliklarga 15:35–46 ni o'qing.

O'limdan keyin ham bizning tanamiz bo'ladi, lekin ular hozirgi tanamizdan qanday farq qiladi? [14]

Biz mukammal ruhiy tanalarda abadiy yashaymiz!

Isoning osmonga ko'tarilishi bizga nimani ko'rsatadi? [15]

1.

2.

3.

4.

Iso bizga ham Xudoning huzuriga kirishga imkon yaratdi. Hozir imon bilan, kelajakda esa chinakamiga Xudo huzurida bo'lamiz!

Iso Masihning o'likdan tirlishi va osmonga ko'tarilishi — dunyodagi eng ajoyib xabar! Bu haqda kim bilan bo'lisha olasiz?

Bugun nimani o'rgandingiz?

Javoblar

- 1 – Yahudiylarning odatiga ko'ra, ayollar Isoning jasadiga xushbo'y moylar surtish uchun bordilar.
- 2 – Qabr bo'sh edi!
- 3 – *Nega siz tirikni o'liklar orasidan qidiryapsizlar? U bu yerda yo'q, U tirildi! Hali Jalilada bo'lgan paytida sizlarga nima deganini eslanglar. U sizga: «Inson O'g'li gunohkor odamlar qo'lliga tutib beriladi, xochga mixlanadi, uchinchi kuni esa tiriladi», degan edi-ku.*
- 4 – 1) Agar Isoning jasadi o'g'irlab ketilgan bo'lsa, u holda kafan ham qabrdaga qolmasligi kerak edi. Jasadni olib, kafanni tashlab ketmagan bo'lishardi.
2) Rimlik va yahudiy rahbarlar Isoning tirilmaganini isbotlash uchun Uning jasadini ko'rsatishlari kerak edi. Biroq ular jasadni topa olmadilar.
3) 40 kun mobaynida Iso ko'p odamlarga ko'rindi. Qanchadan qancha odamlar buning guvoysi bo'ldi!
- 5 – U biroz baliq yedi.
- 6 – U eshik ochmasdan paydo bo'lar va g'oyib bo'lardi!
- 7 – U jismoniy tanalar uchun zarur bo'lganidek ovqat yeya olardi. Lekin bir zumda zohir bo'lib, yana g'oyib ham bo'la olardi.
- 8 – 1) Iso o'limni yengdi! U o'ldi va tirildi!
2) Iso shaytonni yengdi!
3) Iso gunohlarimizning evazini to'ladi va Xudo buni qabul qildi!
4) Iso O'ziga imon keltirganlarga abadiy hayot beradi!
- 9 – Iso azob chekib o'lgandan keyin, bir qancha ishonchli dalillar orqali shogirdlariga tirilganini ko'rsatdi.
- 10 – Ular Muqaddas Ruhga cho'mdiriladilar.
- 11 – Yer yuzining hamma burchaklarida Isoning shohidlari bo'ladi.
- 12 – U osmonga ko'tarildi.
- 13 – *Iso osmonga ko'tarilganini o'z ko'zingiz bilan ko'rdingizlar. U osmonga qanday ko'tarilgan bo'lsa, xuddi shunday qaytib keladi.*
- 14 – Ular abadiy bo'ladi, ularda hech qanday muammo bo'lmaydi, chiroyli va abadiy bo'ladi. Xudo bilan munosabatimiz hech qachon buzilmaydi!
- 15 – 1) Xudo Isoni eng yuqoriga yuksaltirdi.
2) Iso tez orada dunyoni hukm qilish uchun qaytib keladi.
3) Hozir Iso biz uchun shafoat qilmoqda.
4) Biz o'limdan keyin mukammal tanaga ega bo'lamiz.

31-dars:

Muqaddas Ruh



Eski Ahdda Muqaddas Ruh haqida nimalarni o'rganamiz?

1. Eski Ahdda Muqaddas Ruh haqida ilk marotaba qachon o'qiyimiz? [1]

Muqaddas Ruh eng boshidanoq faoliyatda bo'lgan!

2. Eski Ahd davrida Muqaddas Ruh alohida sabablarga ko'ra, alohida tanlangan odamlarga kelgan.

1-Shohlar kitobi 16:13 da U kimga kelgan? [2]

3. Shuningdek, Xudo Muqaddas Ruhni payg'ambarlarga bergen va bu orqali ular Xudoning so'zini Xudoning xalqiga yetkaza olishgan.

2-Butrus 1:20–21 ni o'qing. Payg'ambarlar Xudoning So'zini odamlarga qanday yetkazishgan? [3]

4. Biroq Egamiz Uning butun xalqi bir kun kelib Muqaddas Ruhni qabul qilishini va'da qildi. Yo'el payg'ambarga ko'ra (**Yo'el payg'ambarning kitobi 2:28**) bu qanday sodir bo'ladi? [4]

Eski Ahdda Muqaddas Ruh haqida nimalarni o'rganishimiz mumkin? [5]

1.

2.

3.

4.

Yangi Ahdda Muqaddas Ruh haqida nimalarni o'rganamiz?

Havoriyalar 1:8: Muqaddas Ruh shogirdlarga nima qilishlari uchun kuch beradi? [6]

Ular hammaga Iso haqida aytib berishlari kerak!

Havoriyalar 2:1–24: Muqaddas Ruh kelib ularni to'ldirganida nima sodir bo'ldi? [7]

Havoriyalar 2:41: O'sha kuni imonga kelganlarning soni qancha edi? [8]

Bu voqealarda Hosil bayramida sodir bo'lgan bo'lib, bu kun «elliginchi kun» deb ham ataladi. Chunki u Fisih bayramidan 50 kun o'tgach sodir bo'lgan. Ba'zi jamoatlar Xudoning o'sha kungi qilgan ishiga alohida hurmat ko'rsatgan holda o'zlarini «Ellikkunchilar» (patidesatniki yoki Pentecostal) deb atashadi.

Havoriyalar 2:38: Kimlar Muqaddas Ruh in'omini oladi? [9]

Muqaddas Ruh barcha imonlilarning ichida yashaydi. Siz Muqaddas Ruhsiz imonli bo'la olmaysiz! (Efyesliklarga 1:13)

Muqaddas Ruhning faoliyati

Rimliklarga maktub 8:16 ga ko'ra Muqaddas Ruh nima qiladi? [10]

Rimliklarga maktub 8:26 ga ko'ra Muqaddas Ruh nima qiladi? [11]

Galatiyaliklarga maktub 5:22–23 ga ko'ra Muqaddas Ruh qanday faoliyat ko'rsatadi? [12]

Havoriyalar faoliyati 1:8 ga ko'ra Muqaddas Ruh nima qiladi? [13]

Korinfliklarga 1-maktub 12:7–11 da Muqaddas Ruh nima qiladi? [14]

Korinfliklarga 1-maktub 12:13 da Muqaddas Ruh nima qiladi? [15]

Muqaddas Ruh bizni birlashtiradi, aslo ajratmaydi. Oxirgi yillarda ko'plab imonlilar Muqaddas Ruhning faoliyatini farqli tushunganlari bois bo'linib ketganlari Xudoni xafa qiladi.

Agar boshqa imonlilarni sevmayotgan bo'lsak, bu Muqaddas Ruhning hayotimizda ishlashiga yo'l qo'yib bermayotganimizni ko'satadi.

Qo'shimcha fikr

Korinfliklarga 1-maktub 14:1–3 ni o'qing.

Pavlus bizga ko'proq qaysi in'omga intilishimizni maslahat beradi? [16]

Bu qanday in'om? (37-oyat) [17]

Barchamiz uchun tegishli bo'lgan eng muhim vazifa bir-birimizga o'git-nasihat qilish, dalda berish va yupatishdir.

Shunday qilib, Muqaddas Ruhning qaysi ishlarni qilishi haqida o'rgandik? [18]

1.

2.

3.

4.

5.

6.

Muqaddas Ruhga to'lgan insonning hayoti qanday bo'ladi?

Galatiyaliklarga maktub 5:22–23 ni o'qing.

Muqaddas Ruhga to'la odamning hayoti qanday bo'ladi? [19]

Bizning hayotimizda shunday samaralar bormi? Agar bo'lmasa, nima qilishimiz kerak? (**Luqo 11:13** ni o'qing.) [20]

Efesliklarga maktub 4:30 ni o'qing.

Nima qilganimizda yoki qanday hollarda Muqaddas Ruhni xafa qilamiz? Misollar keltiring. [21]

G‘iybat

G‘iybat — biz uchun katta muammo. G‘iybat kimningdir obro‘siga va jamoatga putur yetkazishi mumkin. Ehtimol siz boshqalar ularni g‘iybat qilgani uchun jamoatga kelmay qo‘ygan odamlarni bilarsiz. G‘iybat qilmaslik uchun bir-birimizga qanday yordam bera olamiz? Agar kimdir g‘iybat qilishni boshlasa, unga nima deyishimiz mumkin? [22]



Biz Muqaddas Ruhni xafa qilishimiz emas, balki mamnun qilishimiz kerak!

Isoning nuri bo‘la olishimiz va atrofimizdagi barcha insonlar bizdan baraka topishi uchun har kuni Xudodan Muqaddas Ruhiga to‘ldirishini so‘raylik!



Bugun nimalarni o‘rgandingiz?

Javoblar

- 1 – Ibtido kitobi 1:2.
- 2 – Dovudga.
- 3 – Bu payg‘ambarlar Muqaddas Ruh tomonidan boshqarilib, Xudoning so‘zlarini gapirganlar.
- 4 – So‘ngra O‘z Ruhimni yog‘diraman har bir inson ustiga.
Vahiyalar keladi yigitlaringizga.
Bashoratlar qilar sizning o‘g‘il-qizlaringiz.
Karomatli tushlar ko‘rar qariyalaringiz.
- 5 – 1) Muqaddas Ruh eng boshidanoq faoliyatda bo‘lgan!
2) Eski Ahd davrida Muqaddas Ruh alohida sabablarga ko‘ra, alohida tanlangan odamlarga kelgan.
3) Shuningdek, Xudo Muqaddas Ruhini payg‘ambarlarga bergen va bu orqali ular Xudoning so‘zini Xudoning xalqiga yetkaza olishgan.
4) Biroq Egamiz Uning butun xalqi bir kun kelib Muqaddas Ruhni qabul qilishini va’da qilgan.
- 6 – Quddusdan boshlab to dunyoning eng olis yerlarigacha Isoning shohidlari bo‘lish.
- 7 – Xudo qo‘rquvda qolgan shogirdlarni jasoratl shohidlarga aylantirdi. O‘sha kuni ular Quddusga tashrif buyurganlarning barchasiga Xushxabarni o‘z tillarida tushuntirib berishga muvaffaq bo‘ldilar.
- 8 – Uch ming kishi.
- 9 – Barcha imonlilar — gunohlariga tavba qilib suvgaga cho‘mdirilganlarning bari.
- 10 – Muqaddas Ruh bizlarning Xudoga tegishli ekanimiz va Uning farzandlari ekanimiz haqida guvohlik berib turadi.
- 11 – Muqaddas Ruh ibodat qilishda bizga yordam beradi.
- 12 – Isoga o‘xshashimiz uchun Muqaddas Ruh bizning yuraklarimizni va tabiatimizni o‘zgartiradi.
- 13 – Iso haqida hammaga aytishimiz uchun Muqaddas Ruh bizga kuch beradi.
- 14 – Jamoatda bir-birimizga xizmat qila olishimiz uchun Muqaddas Ruh har birimizga in’omlar beradi.
- 15 – Muqaddas Ruh bizlarni birlashtiradi.
- 16 – Bashoratgo‘ylik in’omi.
- 17 – Biz odamlarga ularni kuchlantirish, dalda va tasalli berish uchun Xudoning so‘zlarini gapiramiz.
- 18 – 1) Muqaddas Ruh bizlarning Xudoga tegishli ekanimiz va Uning farzandlari ekanimiz haqida guvohlik berib turadi;
2) Muqaddas Ruh bizga ibodat qilishda yordam beradi;
3) Isoga o‘xshashimiz uchun Muqaddas Ruh yuraklarimizni va tabiatimizni o‘zgartiradi;
4) Hammaga Iso haqida aytishimiz uchun Muqaddas Ruh bizga kuch beradi;
5) Jamoatda bir-birimizga xizmat qila olishimiz uchun Muqaddas Ruh har birimizga in’omlar beradi;
6) Muqaddas Ruh bizlarni birlashtiradi.
- 19 – Bunday odam sevgiga, quvonchga, tinchlikka, sabr-toqatga, ezgulikka, sadoqatga, ishonchga, muloyimlikka to‘lgan bo‘ladi va o‘zini tuta biladi.
- 20 – Xudodan bizga O‘z Muqaddas Ruhini berishini so‘rashimiz kerak!
- 21 – Misollar quyidagicha bo‘lishi mumkin: yomon ishlarni qilsak, yolg‘on gapirsak, yomon so‘zlar aytib, g‘iybat qilsak yoki internetda bo‘lmag‘ur narsalarni tomosha qilsak, Muqaddas Ruhni xafa qilgan bo‘lamiz.
- 22 – Xafa bo‘lmang, lekin men g‘iybat eshitishni xohlamatayman. Agar o‘sha odam oramizda bo‘lganida aytolmaydiganlaringizni menga ham aytmang. Eshitmasam, shunda u gapni boshqalarga ham yetkazmayman!

32-dars:

Jamoat



Jamoat qanday boshlangan?

Havoriyarning faoliyati kitobi **2:36–37** ni o'qing (Bu parcha havoriyalar Muqaddas Ruhni qabul qilganlaridan keyin Butrus aytgan va'zning oxiri).

Ular Xudoning Eski Ahdda va'da qilgan Masihiga nima qildilar? (**36-oyat**) [1]

Buni eshitganlarida ular qanday munosabat bildirdilar? (**37-oyat**) [2]

Butrus ularga qanday ikkita narsani qilishlari kerakligini aytdi? (**38-oyat**) [3]

1.

2.

«Tavba qilish» nima degani? [4]

Suvga cho'mdirilish nimaning ramzi? [5]

Bu, shuningdek, barchaga bizning Isoga ergashayotganimizni va imonlilar oilasiga, ya'ni jamoatga a'zo bo'layotganimizni ko'rsatadi.

Suvga cho'mdirilish katta jasorat talab qiladi, ayniqsa, oilamiz va do'stlarimiz qarshi bo'lsalar.

Kim Muqaddas Ruhni qabul qiladi? (**38–39-oyatlar**) [6]

Jamoatning o'sishi

Havoriyarning faoliyati 1:15: O'sha kungacha imonlilarning soni nechta edi? [7]

Havoriyarning faoliyati 2:40–41: O'sha kuni ertalab ular qo'rqib qolgan shogirdlarning kichik guruhidan iborat bo'lgan bo'lalar, kechqurunga borib, qancha kishi imonlilar safiga qo'shildi? [8]

Bu jamoatning boshlanishi edi!

Jamoat nima qiladi?

Havoriyarning faoliyati Kitobi 2:42–47 ni o'qing.

Jamoat — bino emas, balki oila!

Jamoatning boshlanishi o'ziga xos davr bo'lgan. Har kuni bir-birimiz bilan ko'rishib tura olmasak ham, biz baribir bir oilamiz. Iso O'ziga ergashuvchilarning yashirin va sirli tarzda ergashishlarini istamaydi. Biz bir-birimizga kerakmiz. Shuning uchun ham birga yig'ilib turishimiz kerak.

42-oyatda imonlilar qaysi 4 ta narsani qildilar? [9]

1.

2.

3.

4.

«Ular havoriyarning ta'llimotini o'rganishga o'zlarini bag'ishladilar» — bunga o'z hayotimizda qanday amal qilishimiz mumkin? [10]

Xudoning So'zini har kuni o'qiysizmi? Xudo haqida imkonim boricha ko'proq bilishni istaysizmi?

«Ular birodarlikka o'zlarini bag'ishladilar» — bunga o'z hayotimizda qanday amal qilishimiz mumkin? [11]

Siz bunga amal qilasizmi?

Ular nima uchun non sindirishga o'zlarini bag'ishlaganlar? [12]

Imonlilar uchun Qutlug' Kechlikni (non sindirishni) o'tkazib turish juda muhimdir.

Odamlar biz haqimizda ular har doim ibodatda bo'ladilar, deb ayta oladimi?

Xudo boshqalarni ham O'z Shohligiga olib kelishi uchun qanchalik ibodat qilyapmiz?

Chaqiriq

Siz har kun necha daqiqa yoki necha soat telefonda vaqt o'tkazasiz (gplashish yoki internet tarmoqlarini ko'rish uchun)? Kuniga necha daqiqa yoki soatingizni ibodat qilishga va Muqaddas Kitobni o'qishga sarflaysiz? Qaysi muhimroq?



Isoning nomi bilan ibodat qilish nimani anglatadi?



Iso nomi bilan ibodat qilish degani — bu gunohlarimiz bizni Xudodan uzoqlashtirishini tan olganimizni bildiradi. Inson o'zicha Ota Xudoning oldida turishga haqli emas. Lekin biz Xudoning huzuriga kyela olamiz, chunki Iso O'zining xochda to'kilgan muqaddas qoni orqali bizni kechirdi. Shunday ekan, endi Xudo Uning oldida solih bo'lgan farzandlarining ibodatlarini eshitadi. Bu judayam ajoyib imtiyozdir!

Shuningdek, Isoning nomi bilan ibodat qilishimiz Uning irodasiga bo'y sunishimizni ham anglatadi.

44–45-oyatlarda imonlilarning nimalar qilgani haqida yozilgan? [13]

(Bu haqda ozgina vaqtdan keyin yana gplashamiz.)

46–47-oyatlarda imonlilarning yana nima qilgani haqida yozilgan? [14]

Xudoga hamdu sano aytganimizda, bu Uni quvontiradi va bizni ham baxтиyor qiladi!

Jamoatdagи imonlilar soni qanchalik tez o'sayotgandi? [15]

Xudo bizning jamoatimizda ham shunday qilsin!

O'sha kunlar haqiqatan ajoyib kunlar bo'lgan!

Jamoatimizda qanday qilib bir-birimiz uchun fidokor bo'la olamiz?

Jamoatda bir-birimizga sevgi ko'rsatishning yo'llari haqida qanday fikrlaringiz bor? Kamida 7 ta misol keltiring! [16]

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

Jamoat rahbarlari siz uchun ibodat qilishlari uchun muammolaringizni ular bilan bo'lishishga tortinmang. Bu ularning ruhini ko'taradi, chunki bu narsa sizning ularga ishonishingizni ko'rsatadi hamda ibodatlariga Xudoning qanday javob berayotganini ko'rib quvonadilar. Shuningdek, o'z va'zlari orqali jamoatga yaxshiroq ta'lim bera oladilar.

Xudo har kuni jamoatimizda imonlilarning sonini ko'paytirsin!

Chaqiriq

Yangi Ahdni o'qiganimizda, ko'p o'tmay jamoatlarda muammolar paydo bo'la boshlaganini ko'ramiz. Nuqson siz jamoatning o'zi yo'q! Yangi Quddusga yetib bormagunimizcha bekamu ko'st jamoat bo'lmaydi!

Shunga qaramay, keling, yanada ko'proq odamlar hayotimizda Xudoni ko'ra olishlari uchun va so'zlarimiz orqali Isoning kimligini bilib olishlari uchun qo'limizdan kelgan hamma narsani qilaylik!

Qo'shimcha o'r ganish: Pul

Pul jamoat a'zolari orasida ko'p muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Keling, Pavlusning pul haqida nimalar deganini ko'rib chiqamiz.



- **Timo'tiyga 1-maktub 6:10** da Pavlus pul haqida nima degan? [17]

Agar Xudodan ko'ra pulni ko'proq sevsak, nima qilamiz? [18]

- **1-Korinfliklarga maktubi 16:2** da Pavlus pul haqida nima degan? [19]

Pavlus ularni nimani odat qilishga undaydi? [20]

- **2-Salonikaliklarga maktubi 3:10** da Pavlus pul haqida nima degan? [21]

Bu nima degani? [22]

- **Rimliklarga Kitobi 13:8** da Pavlus pul haqida nima degan? [23]

Bu biz uchun nimani anglatadi? [24]

Vaqtida qaytarilmagan qarzlar do'stlikka va jamoatga zarar yetkazadi!

Pavlusdan pul masalasida nimalarni o'rganamiz? [25]

1.

2.

3.

4.

Kelishilgan vaqt ichida qaytarolsangizgina qarz oling. Agar haqiqatan ham moddiy ahvolingiz bo'yicha yordamga muhtoj bo'lsangiz, bu haqda cho'poningiz bilan gaplapping. Pul yetishmovchiliqi bilan bog'liq muammolarining bo'lsa, buning uyaladigan joyi yo'q. Biroq, pul sababli jamoatga va do'stligimizga putur yetkazsak, bu uyat bo'ladi.

Biz boshqalarga yaxshilik qilishimiz kerak. Boshqalarni aldash gunohdir.

Pul haqidagi tushunchalarингiz bilan bog'liq o'zgartirishingiz kerak bo'lgan nimadir bormi?

Javoblar

- 1 – Ular Uni xochda o'ldirdilar.
- 2 – Ular juda xafa, ko'ngillari g'ash edi.
- 3 – 1) Tavba qilinglar!
2) Iso Masihning nomi bilan suvgaga cho'minglar.
- 4 – Xudoga qulqoq solmaganliklari uchun kechirim so'rashlari kerak. Xudo yuborgan Masihga ergashishni boshlashlari kerak.
- 5 – Iso bizning gunohlarimizni yuvganini, biz o'zimiz uchun o'lganimizni va endi Iso uchun yashashimizni ko'rsatuvchi ramz.
- 6 – Xudo tomonidan chaqirilgan barcha insonlar. Gunohlariga tavba qilib, suvgaga cho'mdirilgan barcha imonlilar.
- 7 – 120 ta.
- 8 – Uch mingga yaqin odam.
- 9 – Ular:
1) havoriylarning ta'limotini o'rganishga o'zlarini bag'ishladilar;
2) birodarlikka o'zlarini bag'ishladilar;
3) Rabbimiz Isoni xotirlab non sindirishga o'zlarini bag'ishladilar;
4) ibodatga o'zlarini bag'ishladilar.
- 10 – Xudoning So'zini o'qiyimiz, o'qiganlarimiz ustida fikr yuritamiz, birgalikda muhokama qilamiz va ibodat qilamiz. Bu narsalarni ham mustaqil ravishda, ham boshqa imonlilar bilan birga qilishimiz kerak
- 11 – Bir-birimizni sevamiz va bir-birimiz uchun g'amxo'rlik qilamiz. Birga yig'ilib turamiz.
- 12 – Buni Isoning o'limini eslab turish uchun qilganlar, ya'ni Iso gunohlarimiz kechirilishi uchun o'ldi!
- 13 – Ular juda saxiy va fidoyi edilar.
- 14 – Ular Xudoni ulug'lar edilar.
- 15 – Har kuni!
- 16 – Misollar:
1) Jamoatdagagi boshqa imonlilarga qo'ng'iroq qilish;
2) Sms yozish;
3) Vaqt bo'lganida uchrashish;
4) Har hafta jamoatga kelish! Bu boshqalarni sizni jamoatda ko'rishga undaydi!
5) Bir-birimizga yordam berishga tayyor bo'lish, masalan, agar kimdir kasal bo'lsa yoki farzandi dunyoga kelsa, ularni borib ko'rish;
6) Boshqalar uchun ibodat qilish;
7) Boshqalar bilan Muqaddas Kitobdan o'rganganlaringizni bo'lishish. Xudoning So'zini qancha ko'p bilsak, boshqalarga marhamat bo'lishimiz uchun Xudo bizdan shuncha ko'p foydalanadi.
- 17 – Pulni sevish — bu barcha yovuzliklarning ildizi.
- 18 – Pullarimizni Xudoni mamnun qilish uchun emas, balki o'zimizni xursand qilish uchun sarflaymiz.
- 19 – *Haftaning birinchi kuni har bir odam o'z daromadiga mos ravishda bir miqdor pulni olib qo'yisin, toki oldingizga borganimda pul yig'ishga hojat bo'lmasin.*
- 20 – Muntazam ravishda bir miqdor pulni ajratib qo'ying, shunda pul berishga tayyor bo'lasiz.
- 21 – *Kim ishlashni istamasa, o'sha odam yemasin ham!*
- 22 – Dangasa va ishslashni istamaganga pul ham bermang.
- 23 – *Bir-biringizga nisbatan sevgidan boshqa hech bir narsada qarzdor bo'l manglar, chunki yaqinini sevgan kishi Xudoning qonunini baho keltirgan bo'ladi.*
- 24 – Biz qarzimizni iloji boricha tezroq qaytarishimiz kerak!
- 25 – 1) Xudo beradigan pullarni to'g'ri sarflashimiz uchun bizga Xudodan donolik kerak;
2) Saxiy bo'lishga tayyor bo'ling;
3) Biz boshqalarni yalqov va bekorchi bo'lishga undashni xohlasmaymiz;
4) Do'stlikka va jamoatga putur yetkazmaslik uchun tezda qarzlarni to'lab qutulishimiz kerak!

33-dars:

Xushxabarni boshqalarga aytish



Barcha xalqlar

Ibtido kitobi 12:1–7 da Xudo Ibrohimga nimalarni va'da qilgan? [1]

Ikki ming yil o'tib, hozir ham Xudo O'z va'dalariga sodiq ekanini ko'ryapmiz!

Xudo Eski Ahdda O'zi va'da qilgan Masihni qanday yuborganini ko'rib o'tdik. Endi esa Masih haqida eshitadigan vaqtadir, toki barcha xalqlar U orqali najot topsinlar.

Matto kitobi 28:18–20 da Iso shogirdlariga nima deydi? [2]

Havoriyarning faoliyati kitobi 1:8 ni o'qing. Qanday qilib shogirdlar hamma xalqlardan shogird orttira oladilar? [3]

Bu ish hali tugamadi; Iso haqida hali ham eshitmagan xalqlar bor. O'z ona tilida Muqaddas Kitobga ega bo'lмаган одамлар бор. Hatto ularning tilida gapiradigan bironta ham imonli yo'q. Misol uchun, Dog'istonda (Каспий дengizi bo'yida) bunday odamlar guruhlari juda ko'p.

Barcha xalqlarning Iso haqida eshitishi — bu bizning vazifamiz!

Havoriyarning faoliyati kitobida bu jarayon qanday boshlanganini ko'ramiz.

Quddusdan

Iso O'z shogirdlariga qayerlarda Uning guvohlari bo'lishlarini aytdi? (**Havoriyarning faoliyati 1:8**) [4]

Ushbu oyatda yozilgan joylar haqida fikr yuritib ko'raylik.

1. Quddusda

Havoriyarning faoliyati kitobida 12 ta shogird «havoriylar» (ya'ni «yuborilganlar») deb atalganlar.

Yahudo Isoga xoinlik qilgani va o'zini o'ldirgani sababli boshqa havoriylar uning o'rniغا kimni tanladilar?
(Havoriyarning faoliyati 1:26) [5]

Ilk jamoatning birinchi yo'lboschchilari bo'lgan atigi 12 ta havoriy bor edi.

Keyinchalik yana kim havoriylar safiga qo'shildi? **(1-Korinfliklar 1:1)** [6]

Havoriyarning faoliyati 6:7 ni o'qing. Dastlab ular qayerda va'z aytdilar? [7]

Lekin Yahudo hukumati va Yahudiya shohi havoriylarga qarshi edi.

Havoriyarning faoliyati 5:17–20 da ular nima qildilar? [8]

7:59–60 da-chi? [9]

5:41–42 da havoriylar nima qildilar? [10]

Ko'plab odamlar Isoga imon keltirdilar!

2. Butun Yahudiya va Samariya bo'ylab


Havoriyarning faoliyati 8:2–5: Qattiq quvg'in davrida nimalar yuz berdi? [11]

Xaritaga qarang. Samariya — Quddusdan shimolda joylashgan hudud.

3. Butun dunyo

Havoriyarning faoliyati 10-bobni o'qing.

Xudo Butrusga nimani o'rgatdi? [12]



Masih haqidagi Xushxabar g'ayriyahudiylar uchun ham yuborilganini anglab yetgan vaqtlar ilk imonlilar uchun juda muhim davr bo'lgan.

Havoriyarning faoliyati 11:19–21: Imonlilar qayerga ketdilar? [13]


Xaritaga qarang.

Finikiya — hozirgi Livan.

Kipr — hozirgi Turkiyadan janubda joylashgan katta orol.

Antioxiya — hozirgi Turkiyaning janubiy-sharqi qismi bo'lib, bugungi kundagi nomi Antakiya.

Juda ko'plab yahudiylar va g'ayriyahudiylar Isoga imon keltirayotgan edi!



Sayohatlar davom etadi

Havoriyarlarning faoliyati 13–20 boblarda Pavlus va boshqa imonlilarning hozirgi Turkiya va Yunoniston (Gretsiya) hududlaridagi sayohatlari va ko'plab jamoatlar ochgani haqida o'qiyimiz. Keyinchalik Pavlus bu jamoatlarga yana borgan.

Havoriyarlarning faoliyati kitobida, barcha xalqlarga Iso Masih haqidagi Xushxabarni yetkazish jarayonining boshlanganini ko'ramiz.

Bizlar bu jarayonni qanday davom ettira olamiz?

Iso Masih haqida hech qachon eshitmagan odamlarga Xushxabarni qanday aytamiz?

Havoriyalar kitobida boshlangan vazifani davom ettira olishingiz uchun qanday fikrlaringiz bor? [14]



Bu vazifani davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun bir-biringiz uchun ibodat qiling!

Javoblar

- 1 – Xudo Ibrohimga undan buyuk xalq yaratishni, yurt berishni va u orqali yer yuzidagi barcha xalqlar marhamatlanishini va'da qildi.
- 2 – Boringlar va barcha xalqlardan shogird orttiringlar, ularni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvg'a cho'mdiringlar.
- 3 – Muqaddas Ruh buni qilish uchun ularga kuch beradi.
- 4 – Quddusda, butun Yahudiya va Samariyada va dunyoning eng olis yerlarida
- 5 – Mattiyani.
- 6 – Pavlus.
- 7 – Quddusda.
- 8 – Ular havoriylardan ba'zilarini qamoqxonaga tashladilar.
- 9 – Stefanni o'ldirdilar.
- 10 – Ular Iso haqidagi Xushxabarni aytishda davom etdilar!
- 11 – Ko'p imonlilar Quddusdan qochib chiqdilar va Quddusning shimoliga, shuningdek, Yahudiya va Samariyaga bordilar.
- 12 – Avvaliga ular Iso haqida faqatgina yahudiylarga aytishardi, endi esa boshqa xalqlarga (yahudiylar «majusiylar» deb ataydigan xalqlarga) ham aytishlari kerak edi. Bu xalqlar yahudiy bo'limgani uchun Eski Ahdni bilmasdilar va Yagona Xudoga sajda qilmasdilar.
- 13 – Finikiya, Kipr va Antioxiyagacha.
- 14 – G'oyalar quyidagilardan iborat:
 - Iso haqida hech qachon eshitmagan xalqlar uchun ibodat qiling (sizning yurtingizdag'i va boshqa yurtlarda);
 - Oilangiz, do'stlaringiz va qo'shnilaringizga Iso haqidagi Xushxabarni aytar ekansiz, bir-biringizni qo'llab-quvvatlab turish uchun do'stlaringiz bilan birga ibodat qilib turing;
 - Muqaddas Kitobdagi voqealarni boshqalarga ishonch bilan tushuntira olishingiz uchun ularni bir-biringizga tushuntirib mashq qiling;
 - Atrofingizdagilarga Isoning sevgisini qanday qilib amalda ko'rsatishingiz mumkinligi haqda o'ylang;
 - Xudo sizdan odamlarning Iso haqida eshitish imkoniyati bo'limgan joyga ko'chib o'tishingizni so'rayaptimi?

34-dars:

Yangi Ahd maktublari



Imonlilarda hali Yangi Ahd kitoblari yo'q edi. Ular hayotda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishardi va Isoga to'g'ri ergashishlari uchun ularga donolik kerak edi.

Yangi Ahddaa 21 maktub bor. Jamoatlar bepoyon hududlar bo'ylab tarqalib ketgani sababli, havoriyalar uzoqlardagi bu jamoatlarni qo'llab-quvvatlab turish maqsadida, ularga maktublar yozishgan.

Bu maktublarni olgan jamoatlar ularni qo'lida ko'chirib yozganlar va boshqa jamoatlar ham o'sha maktublardagi hikmatlardan foydalana olishlari uchun ularga yuborganlar.

Yangi Ahdning tarkibi o'zgartirilganmi?

Ayrim odamlar, Yangi Ahd maktublari o'zgartirilgan, deb aytadilar. Lekin bunday bo'lishi mumkin emasdi, chunki Xushxabar va maktublar o'z ko'zlarini bilan ko'rgan guvohlar tomonidan va ularni bilgan kishilar tomonidan yozilgan. Ular ilk imonlilar tomonidan haqiqat deb qabul qilingan va juda keng hududga tarqatilgan. Bu nusxalarning hammasini yig'ishtirib olib, so'ngra boshqa bir yangicha fikrni tarqatish mumkin emas edi va ilk imonlilar o'zlarini haqiqat deb hisoblagan narsalarni hech kimning o'zgartirishiga yo'l qo'yagan bo'lishardi!



Yangi Ahdning 24.000 dan ortiq qo'lyozma parchalari topilgan. Bu qo'lyozmalarning 230 tasi Muhammad dunyoga kelishidan oldingi davrga tegishli. Qo'lyozmalarning bu qismi muhim, chunki ular Yangi Ahdning o'zgarmaganidan dalolat beradi!

Nima uchun Yangi Ahd bitiklarining o'zgartirilgan bo'lishi mumkin emas? [1]

Maktublar:

- imonlilarni imonda sodiq qolishga undash maqsadida, ularga **Iso haqida va U bergan najot haqida o'rgatgan;**

- agar imonlilar noto‘g’ri narsalarga ishonib qolsalar, haqiqatni bilib olishlari uchun ularning **xatolarini tuzatgan**;
- imonlilarga Xudoga ma’qul bo‘lish uchun **qanday qilib to‘g’ri yashash kerakligini o‘rgatgan**.

Mualliflarning bu maktublarni yozishdan qanday uchta maqsadi bo‘lgan? [2]

1.

2.

3.

Bu maktublarning mualliflari kimlar?

Yoqub, Butrus, Yuhanno, va Yahudo imonlilarni ruhlantirib turish uchun maktublar yozganlar.

Pavlus jamoatlarga 9 ta va alohida shaxslarga 4 ta maktub yozgan. Jamoatlarni to‘g’ri boshqarishga yordam berish uchun **Timo‘tiyga** ikkita va **Titusga** bitta maktub, hamda **Filimo‘nga** bitta shaxsiy maktub yozgan.

Ibroniylarga yozilgan maktubning muallifi kim ekanini bilmaymiz, lekin ko‘pchilik bu maktubni Pavlus yoki uning safdoshlaridan biri (masalan: Barnabo yoki Apollo) yozgan deb hisoblashadi.

Yangi Ahddagi maktublarning aksariyatini kim yozgan? [3]

Bu maktublarni qanday tushuna olamiz?

Maktublardagi biron bir parchani tushunishimizga yordam berishi uchun o‘zimizga bu 4 savolni berishimiz mumkin:

1. Bu maktub yozilganida, jamoatlarda qanday **muammolar** mayjud bo‘lgan?
2. Qaysi **ibora yoki so‘zlar takrorlanyapti**? Ko‘pchilik takrorlanuvchi iboralarni belgilab qo‘yishni yaxshi ko‘radi.
3. **Asosiy mavzu** nima va muallif ularga nimani o‘rgatishni xohlaydi? Buni oddiyroq shaklda yana qanday aytish mumkin?
4. Bu jamoat nimasini bilan **bizning jamoatga** o‘xshaydi? Bizning qiyinchiliklarimiz nimasini bilan ularnikiga o‘xshaydi? Bu parchadagi qaysi muhim g‘oya bizning bugungi jamoatimizga taalluqli?

Qaysi 4 savol bizga Yangi Ahd maktublarini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi? [4]

1.

2.

3.

4.

Endi Kolosaliklarga maktubdan ayrim oyatlarni o'rganamiz.

Kolosaliklarga maktub 1:9–20 ni o'qing.

1. Taxmin qilib ko'ring: **Ularda qanday muammolar bo'lgan? [5]**

Soxta ustozlar ularga imonlilar bilmagan boshqa ta'llimotlar ham borligini va Iso bilan munosabat yetarli emasligini aytganlar.

2. **Qaysi ibora yoki so'zlar takrorlanyapti? [6]**

«*hamma/butun*» (va shu ma'nodagi so'zlar) qaysi iboralarda ishlatilgan? [7]

Pavlus ularga, Xudo bilan munosabat va abadiy hayot uchun Masihda **hamma narsaga** egamiz, deb aytmoqchi bo'lgan!

3. **Asosiy mavzu nima va muallif ularga nimani o'rgatishni xohlagan? [8]**

4. **Bu jamoat nimasi bilan bizning jamoatimizga o'xshaydi? Bizning qiyinchiliklarimiz nimasi bilan ularnikiga o'xhash? Bu parchadagi qaysi muhim g'oya bizning bugungi jamoatimizga tegishli? [9]**

Bizga Iso yetarli emas, bizga Undan keyin kelgan yana bir payg'ambar kerak, deydigan odamlarga biz nima deya olamiz? [10]

Qo'shimcha

Maktublarni (yoki Muqaddas Kitobdan xohlagan parchani) o'rganishning yana bitta yo'li — o'qigan parsha yuzasidan o'zingizga quyidagi 5 ta savolni berish. Keling, buni birgalikda ko'ramiz.

1. **Bu parsha bizga Xudo haqida (Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh haqida) nima deydi? [11]**

2. **Bu parsha bizga odamlar haqida nima deydi? [12]**

3. Bu parchada itoat qilishimiz kerak bo‘lgan buyruq yoki ogohlantirish, o‘rnak oladigan namuna bormi? [13]

4. Bu parcha orqali Xudo bizga nimani o‘rgatadi? [14]

5. Men buni kim bilan bo‘lisha olaman? [15]

Xudo bilan munosabat va abadiy hayot uchun Isoda **hamma narsaga** egamiz!

Uyga vazifa

Keyingi darsda birga o‘rgana olishimiz uchun Salonikaliklarga 1-maktubni o‘qib chiqing.

Javoblar

- 1 – Chunki Maktublar va Xushxabar kitoblari o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan guvohlar tomonidan yoki guvohlar hayotligida yozilgan. Ular ilk imonlilar tomonidan haqiqat deb qabul qilingan va juda keng hududga tarqatilgan. Bu nusxalarning hammasini yig‘ishtirib olib, so‘ngra boshqa bir yangicha fikrni tarqatish mumkin emas edi va ilk imonlilar o‘zlari haqiqat deb hisoblagan narsalarni hech kimning o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymagan bo‘lishardi!
- 2 – 1) imonlilarni imonda sodiq qolishga undash uchun ularga Iso haqida va U bergan najot haqida o‘rgatgan;
2) imonlilar noto‘g‘ri narsalarga ishonganlarida, haqiqatni bilishlari uchun ularning xatolarini tuzatgan;
3) imonlilarga Xudoga ma’qul bo‘lish uchun qanday qilib to‘g‘ri yashash kerakligini o‘rgatgan.
- 3 – Pavlus.
- 4 – 1) Ularda qanday muammolar bor edi?
2) Asosiy mavzu nima va muallif ularga nimani o‘rgatmoqchi?
3) Qaysi ibora va so‘zlar takrorlangan?
4) Bu jamoat nimasi bilan bizning jamoatga o‘xshash? Bizning qiyinchiliklarimiz qaysi jihatdan ularning qiyinchiliklariga o‘xshash?
- 5 – Ehtimol, ular Iso yetarli emas, deb o‘ylaganlar.

6 – «*hamma narsa/butun*» va shu ma'nodagi so'zlar takrorlangan.

7 – *Qodir Xudoni yanada ko'proq bilib borib.*

Hamma narsada Uni mammun qiladilar.

U barcha yaratilganlardan ustun.

Osmondag'i va yerdagi hamma narsa, ko'rindigan va ko'rinnmaydigan hamma narsa U orqali yaratilgan.

Hamma narsa U orqali va U uchun yaratilgan.

Butun borliq U tufayli mustahkam turibdi.

U hamma narsaning boshidir.

Hamma narsadan ustun bo'lishi uchun.

Borliq mavjudotni U orqali O'zi bilan yarashtirish uchun, xochda to'kilgan qon orqali O'zi yaratganlari bilan tinchlik o'rnatdi.

8 – Iso Xudoning O'zidan kichik emas (15-oyat), U barcha ko'rindigan va ko'rinnmaydigan narsalar ustidan hokimlikka ega (16-oyat) va Uning o'limi Ota Xudoning O'z yaratganlari bilan yarashuvini bildiradi (20-oyat). Demak, biz uchun eng muhimmi Isodir!

9 – Ba'zan odamlar Muqaddas Kitob yoki Isoning O'zi yetarli emas, bizga yana nimadir kerak, demoqchi bo'ladi.

10 – Yuqoridagi parchadan ishlatingiz mumkin bo'lgan iboralarni toping!

11 – Muqaddas Ruh bizga donolik va tushuncha beradi.

Otamiz nur Shohligida O'zining muqaddas xalqi merosidan ulush olishimiz uchun bizlarni munosib qildi.

Otamiz bizni qorong'ilik hukmronligidan qutqardi va O'z sevikli O'g'lining Shohligiga olib kirdi.

Iso ko'rinas Xudoni O'zi orqali bizga ochib beradi.

Iso yaratilgan barcha mavjudotdan ustundir.

Ko'kdagi va yerdagi hamma narsa Iso orqali yaratilgan.

Hamma narsa Iso orqali va U uchun yaratilgan.

Butun borliq yaratilmasidan oldin Iso mavjud edi va butun borliq U orqali mustahkam turibdi.

Iso tananing, ya'ni jamoatning boshidir.

Iso hamma narsaning boshi, U hammadan ustun bo'lishi uchun birinchi bo'lib o'likdan tiriltirilgan.

Xudo O'z komilligini Isoda jo qilishni ma'qul ko'rdi. Bizning gunohlarimiz avf etilib, ozod bo'lishimiz uchun, Iso biz uchun o'ldi.

12 – Bizni Xudo yaratgan va Uning O'g'li Iso orqali qutqarilganmiz.

13 – Pavlus har doim ular uchun ibodat qilar edi. Bu biz uchun yaxshi namuna.

Bizning vazifamiz:

- Xudoga munosib yashash va hamma narsada Unga ma'qul bo'lish;

- Hamisha xayrli ishlar qilish;

- Xudoni yanada ko'proq tanib bilish;

- Uning kuch-qudrati orqali mustahkamlanib, sabr-toqatli, bardoshli bo'lish va har doim sevinch bilan yashash;

- Samoviy Shohligida O'z muqaddas xalqining merosidan ulush olish uchun bizni munosib qilgan Osmondag'i Otamizga minnatdorchilik bildirish.

14 – Bu oyatlar orqali Xudo sizga nimani ochib bergani haqida bo'lishing.

15 – Bu dars haqida kim bilan bo'lishmoqchisiz?

35-dars:

Salonikaliklarga 1-maktub



Bu maktub haqida umumiy ma'lumot

Bu maktub Yunonistonning (Gretsiyaning) Salonika shahridagi imonlilarga yozilgan. Salonika Pavlus davridagi eng katta va muhim shaharlardan biri bo'lgan. Xaritaga qarang va Salonika shahrini toping.

Bu Pavlusning birinchi yozgan maktubi bo'lishi mumkin.

Havoriylarning faoliyati kitobi 17:1–10 da Salonikadagi jamoat qanday boshlanganligi haqida aytildi.

Pavlus u yerda qancha vaqt bo'lgan? [1]

Pavlus birinchi marta Salonikaga borganidan keyin ularni yana borib ko'rmoqchi bo'ladi, lekin bora olmaydi. Shuning uchun u ushbu maktubni yozadi. Bu esa Xudo muammolarni yaxshilikka aylantirishga qodir ekan haqida ajoyib misoldir. Egamiz Xudo ushbu maktub orqali 2000 yildan beri millionlab odamlarni marhamatlamoqda!



Bu maktubda Pavlus to'rtta narsa haqida yozadi:

1. Pavlus o'zining yaxshi inson ekanini isbotlashiga to'g'ri kelgan, chunki ba'zi imonsiz kishilar Pavlus haqida yomon gaplar gapirib yurgan edilar (**2:1–3:10**). Agar imonlilar Pavlus haqida «u yaxshi odam emas» degan qarorga kelganlarida, uning o'rgatganlariga ishonmay qo'ygan bo'lardilar.
2. Pavlus imoni tufayli quvg'inga duchor bo'layotgan imonlilarni ruhlantirishni xohlagan (**1:2–10; 2:14; 3:1–5**).
3. Pavlus ularga muqaddas hayot kechirishlari kerakligini eslatadi (**4:1–12**).

4. Pavlus o'limdan keyin imonlilarga nima bo'lishini va Iso qaytib kelganida, nima yuz berishini jamoatning bilishini xohlagan (**4:13; 5:11**).

Pavlus qaysi to'rtta narsa haqida Salonikadagi imonlilarga yozgan? [2]

1.

2.

3.

4.

Birinchi bob

Keling, Muqaddas Kitobdan xohlagan biron bir parchani o'qib o'rganish uchun ishlata olishimiz mumkin bo'lган 5 ta savolni eslab ko'ramiz.

Ular qanday 5 ta savol edi? [3]

1.

2.

3.

4.

5.

1. Bu parcha Xudo (Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh) haqida bizga nimalar deydi? [4]

2. Bu parcha bizga odamlar haqida nima deydi? [5]

3. Bo'y sunishimiz kerak bo'lган biron amr, ogohlantirish yoki o'rnak olishimiz uchun namuna bormi? [6]

4. Xudo bu parcha orqali bizga nimani o'rgatadi? [7]

Imon, umid va sevgi

Imon, umid va sevgi — Pavlusning maktublaridagi muhim so'zlar.

Imon, sevgi va umid — hayotimiz uchun poydevor. Agar bulardan biri yetishmasa, bizning imonimiz uzoqqa bormaydi.

Imon: Isoning Hukmdor sifatida tez orada qaytib kelishi haqida bilishim, mening har kuni, har daqiqada nima qilayotganimga ta'sir qiladimi?

Sevgi: Menga yoqmaydigan va sevishim qiyin bo'lgan kimdir bormi? Agar shunday bo'lsa, unga sevgi ko'rsatishim uchun Xudodan menga imkon berishini so'rashim kerak. Biz sevgi ko'rsatish orqali sevishni boshlaymiz!

Umid: Odamlar Isoga bo'lgan imonimiz tufayli bizga yomon munosabatda bo'lganlarida, shuni bilamizki, Iso bizni O'zi bilan abadiy yashash uchun tez orada kelib olib ketadi. Mustahkam tura olishimiz uchun O'zi kuch ato qiladi!

Iso qaytib kelganida, bizning muammolarimiz U beradigan yangi hayot oldida hech narsa emasligini bilamiz.

Hatto qayg'uli paytlarda ham sevinch va xotirjamligimizni yo'qotmasak, odamlar hayotimizda Muqaddas Ruhning kuchini ko'radi. Shunisi qiziqliki, asrlar davomida, jamoatlar quvg'inga uchragan paytlarda yanada shiddatliroq o'sgani ko'p bora kuzatilgan.

Imon, umid va sevgida o'sishingiz uchun Xudodan qaysi sifatlarni so'rashingiz kerak?

5. Men bu borada kim bilan bo'lisha olaman? [8]

Uyga vazifa

Bu hafta davomida Salonikaliklarga 1-maktubni boshdan oxirigacha yana bir marta o'qib chiqing va har bobdan keyin o'zingizga yuqoridagi beshta savolni bering.

Javoblar

- 1 – Hammasi bo‘lib ikki hafta (3ta shanba).
- 2 – 1) Pavlus yaxshi odam ekanligini isbotlashi kerak edi, chunki ayrim imonsiz odamlar u haqda yomon gaplarni aytib yurgan edilar. Agar imonlilar uni «u yaxshi odam emas» deb o‘ylaganlarida, uning o‘rgatganlariga ishonmay qo‘ygan bo‘lardilar;
 - 2) Pavlus Isoga bo‘lgan imoni tufayli quvg‘inga uchrayotgan imonlilarni ruhlantirishni xohlaydi;
 - 3) Pavlus ularga muqaddas hayot kechirishlari kerakligini eslatadi;
 - 4) Pavlus imonlilar o‘lganlaridan keyin va Iso qaytib kelganidan keyin, nimalar sodir bo‘lishini tushunishlarini istaydi.
- 3 – 1) Bu parcha bizga Xudo (Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh) haqida nima(lar) deydi?
 - 2) Bu parcha bizga odamlar haqida nima deydi?
 - 3) Bo‘ysunishimiz kerak bo‘lgan biron amr, ogohlantirish yoki o‘rnak olishimiz uchun namuna bormi?
 - 4) Bu parcha orqali Xudo bizga nimani o‘rgatadi?
 - 5) Men bu haqda kim bilan bo‘lisha olaman?
- 4 – Xudo ularni sevadi (4-oyat).
Xudo ularni tanlagan (4-oyat).
Aynan Muqaddas Ruh odamlarga Xudoga kelish iqtidorini beradi (5-oyat).
Muqaddas Ruh bizga qiyinchiliklarda quvonch beradi (6-oyat).
U haqiqiy va tirik Xudo (9-oyat).
U Isoni o‘likdan tiriltirdi (10-oyat).
Iso qaytib keladi (10-oyat).
Iso bizni Xudoning g‘azabidan qutqaradi (10-oyat)
- 5 – Biz ularning imon yo‘lida chekkan zahmatini, sevgisi tufayli qilgan ishlarini va Rabbimiz Isoga bo‘lgan umidi o‘zgarmas ekanligini bilib olamiz (3-oyat).
Ular Pavlus, Silas va Timo‘tiyga qanday ergashgan bo‘lsalar, endi boshqa imonlilar ham ularga shunday ergashmoqda edilar (1, 6–7-oyatlar).
Har bir odam ularning imoni haqida eshitdi, chunki ular ko‘p azob chekishlariga qaramay, Xushxabarni quvonch bilan qabul qilishgandi (8-oyat).
Bir paytlar ular butlarga sajda qilar edilar, endi esa tirik va haqiqiy Xudoga sajda qilyaptilar (9-oyat).
- 6 – Pavlus har doim u yerdagi imonlilar uchun Xudoga shukrona aytardi (2-oyat).
Har doim ular uchun ibodat qilardi (2-oyat).
Imonlilar boshqalarga buyuk namuna bo‘ldilar: ular barcha ishlarini imon bilan amalga oshirardilar; sevgi bilan mehnat qillardilar; ularning imonda mustahkam turishlari boshqalarni ham ruhlantirardi (3-oyat).
Ular qayg‘u ichida ham quvonchga ega edilar. Bu narsa boshqa imonlilarga ham yaxshi o‘rnak bo‘lgan (6-oyat).
Ular uchun eng muhim — Isoning dunyoni hukm qilish uchun tez orada qaytib kelishi edi (10-oyat).
- 7 – Har kim o‘z javobini aytsin.
- 8 – Bu narsalar haqida kim bilan bo‘lishmoqchi bo‘lsangiz, o‘sha kishining ismini aytинг va buni bajarishingizda Xudoning yordami va marhamatini so‘rab, bir-biringiz uchun ibodat qiling.

36-dars:

Isoning qaytib kelishi va Hukm Kuni



Isoning qaytib kelishi

Isoning qaytib kelishi haqida Yangi Ahdning bir qancha joyida yozilgan. U bizni uyimizga olib ketgani keladi! Va nihoyat, Xudo O'zining Ibrohimga bergan barcha va'dalarini amalga oshiradi!

Ibtido kitobi 12:1–7 da Xudo Ibrohimga qanday va'dalar bergan edi? [1]

Xudoning **xalqi** tasavvurlarimizga ham sig'maydigan **marhamat to'la**, ajoyib bir yangi **dunyoda** yashaydi!

Keling, Isoning qaytib kelishidan oldingi vaqt haqida bilish uchun **Matto 24:1–44** ni o'qiyimiz.

6–8-oyatlarda Iso nima dedi? [2]

14-oyatda Iso nima dedi? [3]

Qo'shimcha

Matto 24:15–21: *Doniyor payg'ambar aytganiday «ko'p xarom-xarish ishlarga sabab bo'ladigan makruh bir narsaning» muqaddas joyda turganini ko'rganingizda...*

Bu oyatlar Doniyor payg'ambarning bashoratiga ishora qiladi, ya'ni: Xudoning ma'badi dahshatli qurbanliklar uchun ishlatiladi va uning ketidan qo'rqinchli hukm kuni keladi. (Doniyor 9:27; 11:31; 12:11)

Eramizdan avvalgi 167 yilda, yunon hukmdori Antiox Epifan Quddusdagi ma'badda soxta xudolarga bag'ishlab jirkanch qurbanliklar keltirdi. O'shanda ibroniylar bunga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar.

Iso ikkita voqeа haqida bashorat qilar ekan, ushbu iborani ishlatgan:

1. Ma'bad vayron bo'ladi. Bu voqeа eramizning 70-yilida sodir bo'ldi va bu ibroniylar uchun og'ir musibat edi. Biroq bilamizki, Xudo O'z xalqini kechirishi uchun endi ma'bad ham, undagi qurbanliklar ham kerak emas edi. Nima uchun? [4]
2. Iso, shuningday, O'zining qaytib kelishi haqida aytadi. Isoning kelishidan oldin, Xudoning xalqiga dahshatli qarshilik bo'ladi.

Iso 15–20-oyatlarda qaysi ikkita voqeа haqida aytadi? [5]

Iso qaytib kelishidan oldin dunyoning ahvoli qanaqa bo'ladi? (**21-oyat**) [6]

Iso Ishayo kitobidan iqtibos keltiradi. U nima deydi? (**29–30-oyatlar**) [7]

Iso qaytib kelganida buni kim biladi? (**30-oyat**) [8]

Dunyoda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalar, masalan, zilzilalar haqida ko'p odamlar televizordan yoki telefonlariga qarab bilib oladilar. Lekin ba'zi odamlar xabarsiz qoladilar. Iso kelganida esa dunyodagi hamma odamlar buni tezda bilib oladilar. Uxlayotganlar uyg'onadilar. Bu haqda hech kim bexabar qolmaydi.

Iso nima uchun O'z farishtalarini yuboradi? (**31-oyat**) [9]

Nima yo'q bo'lib ketadi va nima abadiy qoladi? (**35-oyat**) [10]

Isoning qachon qaytib kelishini kim biladi? (**36-oyat**) [11]

Iso yerda inson bo'lib yashaganida hamma narsani bilmas edi va ikkinchi marta qachon kelishini ham bilmagan edi. Agar odamlar, «Isoning qaytib kelish vaqtini bilamiz» desalar, biz ularga ishonmasligimiz kerak. Asrlar davomida ayrim odamlar Isoning qaytib kelish sanasini oldindan aytib berishga harakat qilganlar. Hech kim haq bo'lib chiqmagan! Egamiz Xudo, bizning mukammal Samoviy Otamiz bu qachon sodir bo'lishini biladi va biz Unga ishonishimiz kerak!

Nuh davrida, u odamlarga to'fon haqida aytganida, odamlar nima qilgan edilar? (**37–39-oyatlar**) [12]

Keyin ularga nima bo'ldi? [13]

Hozirgi davrdagi odamlar Nuh davridagi odamlarga nimasi bilan o'xshash? [14]

Bu oyatlar Isoning kelishi haqida nima deydi? (**42–43-oyatlar**) [15]

Biz nima qilishimiz kerak? (**44-oyat**) [16]

Hukm kuni

Iso Qiymat kuni haqida gapirar ekan, bizga tushunarli bo‘lishi uchun ushbu masalni aytib bergan.

Matto 25:31–46 ni o‘qing.

Iso barcha odamlarni ikki guruhga ajratadi. Bu ikki guruhni Iso qaysi hayvonlarga qiyoslaydi? [17]

Qaysi guruhni Iso O‘z shohligiga olib kiradi? [18]

Qo‘ylar kimlar? [19]

Iso bizni qanday hukm qiladi? [20]

Lekin... **Yuhanno 3:16** ga ko‘ra: Kim abadiy hayotga ega bo‘ladi? [21]

Bu ikki guruh bir-biriga zidmi? [22]

- Hammamiz gunoh qilganmiz. Lekin Xudoning inoyati tufayli Masih gunohlarimiz uchun to‘lov to‘ladi va biz kechirildik. Mana shu yo‘l bilan Xudoning oldida oqlandik! (Rimliklarga 3:23–24)
- Iso ishlatgan o‘xshatmadan foydalanadigan bo‘lsak, hammamiz «echki»larmiz, lekin Xudo bizni kechirdi va bizni «qo‘y»larga aylantirdi! (Rimliklarga maktub 3:23–24). Xudoyimiz qanday ajoyib!
- Iso bizga najot berганida, Uning xalqini sevib, xizmat qilishimiz uchun yuraklarimizni ham o‘zgartiradi.
- Bizning qilayotgan ishlarimiz, Isoga haqiqatan ishonamizmi yoki yo‘qmi, qo‘y yoki echkimizmi, bularni ko‘rsatib turadi.

Hatti-harakatlarimiz biz haqimizda nima deydi? Qo‘ymizmi yoki echkimizmi?

Matto va Yuhanno bizning harakatlarimiz imonimizning dalili ekanini tushunishgan. Ikkovi ham, agar biz Isoga ishonsak, unda xayrli ishlar qiladigan odamlar bo‘lishimiz kerak, deb yozganlar. **Yuhanno** bu borada nafaqat 3:16 da, balki **5:28–29** da ham yozgan.

Bu oyatlarga ko‘ra, yaxshilik qilganlarga nima bo‘ladi? [23]

Yomonlik qilganlarga-chi? [24]

Jannat va Do‘zax

Matto 25:31–46 da, bir-biridan farqli ikkita joy borligini ko‘ramiz. Bular jannat va do‘zax.

34-oyatda Iso U uchun yashaganlarga nima deydi? [25]

Bu — eshitishimiz mumkin bo'lgan eng chiroyli so'zlar!

Xudo O'z Shohligini Undan abadiy bahramand bo'lib yashashimiz uchun tayyorlagan (Vahiy Kitobi 21:3–4).

Agar Isoga ishonsak va Unga bo'ysunsak, Xudo bizni mo'l-ko'l marhamatlaydi!

41-oyatda Xudoga qarshi bosh ko'targan va faqat o'zini o'ylab yashaydigan odamlarga Iso nima deydi? [26]

Bu — biz eshitishimiz mumkin bo'lgan eng yomon so'zlar. Xudo Unga itoat etishdan bosh tortganlarni jazolaydi.

Ular to abad Xudodan ayrilib, shayton va yovuz ruhlar bilan yashaydilar. Bu abadiy halokat joyi bo'ladi.

Ishonch

1-Yuhanno 4:15–18 ni o'qing.

Hukm kunini ishonch bilan kutishimizga kim yordam beradi? [27]

Xudo bizda yashayotganligining eng katta dalili nima? (**16–17-oyatlar**) [28]

Hayotimizda Xudo bizda yashayotganining qanday dalillari bor?

Isoni qanchalik sevamiz va Unga itoat qilishni qanchalik xohlaymiz?

O'zimizni tekshirish uchun savollar

Uyda:

Oilamizda bir-birimizni sevish va qo'llab-quvvatlash uchun qo'limizdan kelgan hamma narsani qilamizmi?

Bizga xizmat qilayotganlarga (ovqat tayyorlayotgan, yig'ishtiradigan, kir yuvadigan va shu kabilarni qiladiganlarga) minnatdorchilik bildiramizmi?

Kimgadir yordam kerak bo'lganini ko'rghanimizda, darhol yordam berishga shoshilamizmi?

Ishda:

Ishimizni qanday qilyapmiz? Xohlamasdan va kayfiyatsiz ishlaymizmi? Iloji boricha kamroq ishlab, tezroq bitkazishga harakat qilamizmi? Yoki Isoni ham, xo'jayimizni ham mammun qilish uchun qo'limizdan kelganini qilib, sevinch bilan ishlaymizmi?

Jamoatda:

Jamoat yo'lboshchilarini rag'batlantiramizmi? Ular uchun ibodat qilamizmi? Ularni hurmat qilamizmi? Boshqalarga xizmat qilib, yig'ilishdan keyin tozalash va yig'ishtirish ishlariga yordam beramizmi? Kimdir yordamga muhtoj bo'sa, yordam berishdan qo'chamizmi? Yoki «bu mening muammom emas, o'z muammosini o'zi hal qilaversin» deymizmi?

Do'stlik:

Boshqa odamlar to'g'risida qanday gapiramiz? Ular haqida yaxshi narsalarni gapiramizmi yoki ularni yomonlaymizmi?

Qoida bunday bo'lishi kerak: Agar aytayotgan gaplaringizni o'sha odam yoningizda bo'lganida aytolmaydigan bo'lsangiz, u yo'qligida ham aytmang.

Bizni xafa qilgan va bizga yoqmaydigan narsalarni aytgan kishilar uchun ibodat qilamizmi? Agar biron kishi bilan xafalashib qolgan bo'lsangiz, u bilan yarashish uchun qo'lingizdan kelganini qilasizmi?

Isodan qaysi sohalarda o'zgarishingiz uchun yordam berishini so'rashingiz kerak?

Chaqiriq

Isoning qaytib kelishiga tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?

Isoning kelishiga qanday tayyor bo'la olamiz? [29]


Bu darsda Xudo sizni nimaga da'vat qildi?

Javoblar

- 1 – Xalq, yurt va qut-baraka.
- 2 – Har doim muammolar bo'laveradi, biroq bu dunyoning oxiri yaqinda bo'ladi degani emas.
- 3 – Xushxabar butun dunyo bo'ylab targ'ib qilinadi va keyin Iso qaytib keladi.
- 4 – Isoning o'limi bizning gunohlarimiz uchun yagona qurbanlik bo'ldi!
- 5 – Ma'bad vayron bo'ladi. Isoning kelishidan oldin Xudoning xalqiga qattiq qarshiliklar bo'ladi.
- 6 – Juda og'ir vaqtlar bo'ladi.
- 7 – Osmonda hech ko'rilmagan qo'rqinchli holat paydo bo'lganida, bu Iso qaytib kelayotganining belgisi bo'ladi.
- 8 – Hamma!
- 9 – Isoga tegishli barchani osmondagi uyiga olib ketish maqsadida toplash uchun.
- 10 – Moddiy narsalar abadiy emas! Lekin Isoning so'zлari abadiydir! Isoning so'zлari haqiqat va hech qachon unutilmaydi!
- 11 – Faqat Xudo.
- 12 – Ular oldingidek yashashda davom etdilar. Ko'ngillari tusaganday hayot kechirishdan zavq oldilar. Xudoga itoat qilmadilar. Ular hayot har doim shunday davom etaveradi, deb ishonishardi.
- 13 – Xudo ularni hukm qildi va ular to'fonda halok bo'ldilar.
- 14 – Odamlar oldingiday yashashda davom etmoqdalar. Ko'ngillari tusaganday hayot kechirishdan zavq olmoqdalar. Xudoga quloq solmaydilar. Hayot hamisha shunday davom etaveradi, deb ishonadilar.
- 15 – Bu to'satdan va kutilmaganda sodir bo'ladi.
- 16 – Biz Isoning qaytib kelishiga tayyor bo'lishimiz kerak.
- 17 – Qo'ylar va echkilar.
- 18 – Qo'ylar.
- 19 – Yaxshilik qiladiganlar.
- 20 – Iso bizni qilgan ishlarimiz bo'yicha hukm qiladi.
- 21 – Isoga ishonadigan hamma.
- 22 – YO'Q!
- 23 – Ular abadiy hayotga ega bo'ladilar.
- 24 – Hukm qilinadilar.
- 25 – *Otamning barakasini olganlar Mening oldimga kelinglar, dunyo yaratilganidan beri sizlar uchun tayyorlab qo'yilgan merosni — Shohlikni egallanglar!*
- 26 – *Ey la'natilar, Mening oldimdan ketinglar, iblis va uning farishtalariga tayyorlab qo'yilgan abadiy olovga mutbalo bo'ling.*
- 27 – Agar Isoni Xudoning O'g'li deb tan olsak va Unga ishonsak, Xudo bizda yashaydi va bizga Hukm kunini kutishga ishonch beradi.
- 28 – Bizning Xudoga va bir-birimizga bo'lgan sevgimiz.
- 29 – Har bir tunni Isoning kelishidan oldingi oxirgi kunday yashashimiz kerak.
Tavba qilishingiz kerak bo'lgan gunohlaringizni ko'rsatishini Xudodan so'rang.
Kechirishingiz kerak bo'lgan kimdir bo'lsa, Xudodan buni ko'rsatishini so'rang.
Do'stlarimiz va qarindoshlarimiz ham Iso haqida eshitsinlar.

37-dars:

Vahiy kitobi (1-qism)



Vahiy kitobini ikki qismga bo'lib o'rganamiz. Birinchi qismda kitobdagi ayrim g'oyalarni, ikkinchi qismda esa kitobdagi bir parchani ko'rib chiqamiz.

Ruhlantirish

Yuhanno Vahiy kitobini yozgan vaqtlar, ko'pgina imonlilar Isoga bo'lgan imoni tufayli o'ldirilayotgan edilar. Rim imperatori odamlardan unga sajda qilishlarini xohlardi, ammo imonlilar buni qilishmasdi.

Vahiy imonlilarni ruhlantirish uchun, imonlilarga quyidagilarni eslatish uchun yozilgan:

- Iso dunyoda hokimlik qiladigan haqiqiy Podshoh ekanini!
- Ehtimol, shayton kuchli va yovuzdir, lekin Iso o'likdan tirilganida, shayton mag'lub bo'ldi.
- Iso dunyonи hukm qilish uchun tez orada qaytib keladi va O'zining barcha dushmanlarini va shaytonni do'zaxga tashlaydi!
- Keyin Isoga ishongan barcha odamlar ajoyib Yangi Yerda abadiy yashaydi!

Nima uchun Yuhanno yozgan odamlar daldaga muhtoj edilar? [1]

Xudo bu kitobda imonlilarga nimani eslatishni xohlaydi? [2]

1.

2.

3.

4.

Bizga qachon dalda kerak bo‘ladi? [3]

Xudo bu Kitobda bizga nimani eslatishni xohlaydi? [4]

Vahiy

Ushbu kitob Muqaddas Kitobdag'i boshqa kitoblardan juda farq qiladi. Bu Xudo Yuhannoga bergen vahiyidir. Vahiyda u g'aroyib narsalarni ko'radi va eshitadi: bular ma'noga ega bo'lgan ramzlardir. Unda tarixiy voqealar yozilmagan. U Havoriylarning faoliyati kitobiga o'xshamaydi. Bu kitobda biron g'aroyib narsani o'qiganimizda, o'zimizga «Bu nima degani?» deb savol berishimiz kerak.

Eski Ahdda payg'ambarlarga vahiy kelgani haqida yozilgan joylarni ko'ramiz. Ularning vahiyлари ham ma'noga ega edi. Masalan, Doniyor kitobining ba'zi bo'limlari, Hizqiyol va Zakariyo payg'ambarlar ko'rgan vahiyilar.

Vahiy kitobida duch kelgan barcha manzaralarni Eski Ahdda ham uchratamiz. Eski Ahd bizga nafaqat Vahiy kitobini, balki Yangi Ahdning barcha kitoblarini tushunishga yordam beradi!

Vahiy kitobi Muqaddas Kitobning boshqa kitoblaridan qanday farq qiladi? [5]

Eski Ahddagi yana qaysi payg'ambarlar o'zgacha ma'no kasb etgan voqealarni tasvirlangan vahiyларни ko'rganlar? [6]

Keling, Vahiy kitobida ramziy ma'noda ishlatilgan nomlardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Ajdarholar va shoxlar

Yuhanno **Vahiy kitobi 12:3** da qanday hayvonni ko'rgan? [7]

Ajdarho qanday hayvon? [8]

Ajdarho nimaning ramzi? [9]

Uning nechta shoxi bor? [10]



Eski Ahdda 10 ta shoxli dahshatli hayvon haqida qayerda yozilganini topamiz.

Doniyor kitobi 7:7 da Doniyor nimani ko'rgan? [11]

Doniyor kitobi 7:24-oyat bizga bu hayvon nimani ifodalashini tushuntiradi.

O'nta shox nimani bildiradi? [12]

Barcha yovuz siyosiy kuchlar orqasida shayton turibdi. Qanday misollarni keltira olasiz? [13]

Raqamlar



Vahiy kitobida ma'noga ega bo'lgan ko'pgina raqamlarni ko'ramiz. Bular ham aslida oddiy raqamlar emas, ramzlardir.

Vahiy kitobida uchraydigan ba'zi raqamlarni ko'rib chiqamiz:

Yetti:

Ibtido kitobi 2:2 ni o'qing. Nima deb o'ylaysiz, yetti raqami nimani bildiradi? [14]



Vahiy kitobi 1:11 ni o'qing. Iso Yuhannoga nima qilishni aytgan? [15]

Demak, Vahiy o'sha davrdagi va bugungi kundagi barcha jamoatlarga yozilgan maktub edi!

Endi biroz matematika bilan shug'ullanishimiz kerak bo'ladi!

Vahiy kitobi 12:6 ni o'qing. Ayol jamoatni ifodalaydi.

Xudo unga qancha vaqt g'amxo'rlik qiladi? [16]

Bu necha oyga to'g'ri keladi? [17]

Necha yilga to'g'ri keladi? [18]

Agar yetti yil abadiylikni bildirsa, unda uch yarim yil (ya'ni yettining yarmi) bizning cho'ldagi vaqtimiz abadiy davom etmasligini bildiradi!

Olti:

Olti nimani anglatadi? Bu yetti bilan bir deganimi? [19]



Olti «yetti emas» degani. Bu mukammal bo'limgagan son, demak, yovuzlik soni.

Shayton Xudoga taqlid qilishni yaxshi ko'radi. Ba'zan nimadir deyarli «yetti»day, ya'ni «yetti»ga juda yaqindan tuyuladi va biz uni «yetti» deb qaror qilishni xohlashimiz mumkin, biroq u «yetti» emas, balki «olti». Shayton bizni aldab, Xudoga emas, balki unga itoat qilishga urinishni yaxshi ko'radi.

Biron narsaning Xudodan ekanligini qayerdan bilamiz? [20]

Yahudiylar nimanidir urg'u bilan ta'kidlamoqchi bo'lganlarida, uni uch marta aytganlar.

Ishayo kitobi 6:3 da seraflar Xudoni qanday olqishladilar? [21]

Ular Xudoning butunlay muqaddas ekanligini aytardilar.

Agar 7 soni o'zida mukammallikni ifodalasa, unda Xudoga son beradigan bo'lsak, Unga 777 sonini beramiz, chunki U mutlaqo mukammaldir.

Lekin shayton bizni aldashni yaxshi ko'radi. U hech qachon yaxshi bo'lmaydi. U juda yovuz. U Xudoga o'xhash bo'lolmaydi. Demak, u **Vahiy Kitobi 13:18** da qaysi sonni oladi? [22]

Bu nima degani? [23]

0'n:

Yuhanno vaqt davrlari haqida yozganida, o'n kun qisqa davrni, ming yil esa uzoq davrni ifodalash uchun ishlatalgan.



Masalan:

Vahiy kitobi 2:10 ni o'qing. Ularning quvg'in qilinishi qancha vaqt davom etadi? [24]

Qisqa vaqt.

Vahiy Kitobi 20:1–6 ni o'qing.

Shayton qancha vaqtga bog'lab qo'yiladi? [25]

Imonlilar Iso bilan birga qancha vaqt hukmronlik qiladilar? [26]

Ming yil uzoq davr hisoblanadi. Bu Isoning birinchi va ikkinchi kelishi oralig'i davri (Uning tirilishi va dunyoni hukm qilish uchun qaytib kelish oralig'idagi davr). Bu — hozirgi vaqt. Iso hokimlik qiladi va O'z jamoatini quradi. Shayton bog'lab qo'yilgan va endi xohlaganicha zarar yetkaza olmaydi. Lekin ozgina vaqt o'tib, u yovuz ishlar qilish uchun bo'shatiladi va shundan keyin Iso qaytib keladi.

O'n kun nimani ifodalaydi? [27]

Ming yil nimani bildiradi? [28]

Vahiy kitobi 20:1–6 ni qanday tushunish kerakligi borasida masihiyalar bir fikrga kelolganlari yo‘q.

Keling, bularni esga olamiz:

- Vahiyda juda ko‘p ramziy belgilar mavjud bo‘lib, «1000 yil» ulardan biridir;
- Agar biror narsa muhim bo‘lsa, Xudo bu haqda Muqaddas Kitobda qayta-qayta ta’kidlaydi;
- Biz Muqaddas Kitobda aniq va tiniq bo‘lgan narsalarga diqqatimizni qaratishimiz kerak, ya’ni Iso Masih bizning gunohlarimiz uchun o‘ldi va o‘likdan tirildi. U dunyoning Hukmlovchisi sifatida qaytib keladi va o’shanda Uning yo‘lida yurganlar abadiy U bilan birga ajoyib Samoviy Vatanda yashaydilar;
- Biz Muqaddas Kitobda dunyoning oxiri haqida aniq va qayta-qayta aytilgan narsalarga qo‘srimcha qilishdan ehtiyoj bo‘lishimiz kerak;
- Shuningdek, biz bilan bir xil fikrda bo‘lmaganlarni ham sevishimiz kerak!

Masihiyalar biz bilan bir xil fikrda bo‘lmagan paytda, biz nimani esda tutishimiz kerak? [29]

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

0’n ikki:

Chiqish kitobi 24:4 ni o‘qing. Isoilda nechta qabila bor edi? [30]

12

Luqo 6:13 ni o‘qing. Iso O‘ziga nechta havoriy tanladi? [31]

Sizningcha, o‘n ikki raqamining ma’nosi nima? [32]

Vahiy kitobi 21:12–14 ni o‘qing. Bu oyatlarda Yangi Quddus tasvirlanadi.

Yangi Quddusning nechta darvozasi bor? [33]

Nechta farishta bor? [34]

Poydevorlar soni nechta? [35]

Bu — mukammal xavfsiz shahar!

Yana ozgina matematika!

12 ni 12 ga ko'paytirsak, necha bo'ladi? [36]

144 ni 1.000 ga ko'paytirsak, necha bo'ladi? [37]

Vahiy kitobi 7:4 ni o'qing.

Qancha odam Iso bilan samoda birga bo'ladi? [38]

Bu raqam imonlilarning to'liq sonini («12») imonlilarning to'liq soniga («12») ko'paytirib, keyin uni yana juda katta songa (1.000 ga) ko'paytirilgach hosil bo'lgan raqamdir: $12 \times 12 \times 1.000 = 144.000$.

Demak 144.000 nimani bildiradi? [39]

U yerda hamma imonlilarga joy bor! Faqatgina tanlangan bir nechta imonlilarga joy bor, deydiganylarga ishonmang!

Vahiydagagi barcha sonlar shunchaki ramzlardir, ularni so'zma-so'z qabul qilish kerak emas. Biz esa u sonlar orqali Xudo bizga nima deyishni xohlayotgani haqida o'ylashimiz kerak.

Yuhanno Vahiy kitobini nima uchun yozgan? [40]

Yod olish uchun oyat:

Mana, Iso Masihning jamoatga bergan ajoyib va'dasi. Bu Isoning O'z xalqiga bergan So'zi. U bizning yonimizda turibdi! U bizni O'zi bilan yaqin muloqotga chaqiryapti!

Vahiy kitobi 3:20: «*Mana, Men eshik oldida turib taqillatyapman. Kimda-kim ovozimni eshitib eshikni ochsa, Men uning yoniga kiraman; Men u bilan, u Men bilan kechki ovqatni baham ko'ramiz.*



Qo'shimcha: Raqamlar sinovi

7 soni nimani bildiradi? [41]

6 soni nimani bildiradi? [42]

10 soni nimani bildiradi? [43]

12 soni nimani bildiradi? [44]



Quvg'in qilinayotgan odamga qanday dalda bera olasiz?

Vahiy kitobidagi qaysi haqiqatlarni u bilan bo'lishishingiz mumkin?

Javoblar

- 1 – Chunki ko'p imonlilar Isoga bo'lgan imoni tufayli o'lgan edilar.
- 2 – 1) Iso dunyoda hokimlik qiladigan haqiqiy Podshoh!
2) Ehtimol, shayton kuchli va yovuzdir, lekin Iso o'likdan tirilganida, shayton mag'lub bo'ldi.
3) Iso dunyoni hukm qilish uchun tez orada qaytib keladi va O'zining barcha dushmanlarini va shaytonni do'zaxga tashlaydi!
4) Keyin Isoga ishongan barcha odamlar ajoyib Yangi Yerda abadiy yashaydi!
- 3 – Har kuni!
- 4 – Iso dunyoga hokimlik qiladigan haqiqiy Podshohdir!
Ehtimol, shayton kuchli va yovuzdir, lekin Iso o'likdan tirilganida, shayton mag'lub bo'ldi.
Iso dunyoni hukm qilish uchun tez orada qaytib keladi va O'zining barcha dushmanlarini va shaytonni do'zaxga tashlaydi!
Keyin Isoga ishongan barcha odamlar ajoyib Yangi Yerda abadiy yashaydi!
- 5 – U Yuhanoga Xudodan kelgan vahiy, tarix emas.
- 6 – Doniyor, Hizqiyol va Zakariyo.
- 7 – Qizil ajdarhoni.
- 8 – Yovuz va xavfli.
- 9 – Shayton (iblis).
- 10 – O'nta shox.

- 11 – O'nta shoxli dahshatli hayvonni ko'rdi.
- 12 – O'nta podshoh.
- 13 – Gitler, Stalin, IGIL, Tolibon.
- 14 – Xudo dunyoni olti kun davomida yaratdi va yettinchi kuni dam oldi. Yetti «mukammallik» yoki «to'lalik»ni bildiradi. Muqaddas Kitobda yetti soni mukammallikni ifodalaydi.
- 15 – Yetti jamoatga maktub yozishni.
- 16 – 1.260 kun.
- 17 – 42 oy. (1.260 ni 30 ga bo'lamiz = 42)
- 18 – Uch yarim yil. (42 ni 12 ga bo'lamiz=3,5)
- 19 – Yo'q.
- 20 – Xudoning So'zini qanchalik ko'p o'qisak, haqiqatni yolg'ondan yaxshiroq ajrata olamiz.
- 21 – Muqaddas, muqaddas, muqaddas.
- 22 – 666.
- 23 – U butunlay va haddan ziyod yovuzdir.
- 24 – 10 kun.
- 25 – 1000 yil.
- 26 – 1000 yil.
- 27 – Qisqa vaqt.
- 28 – Juda uzoq vaqt.
- 29 – 1) Vahiyda juda ko'p ramziy belgilar mavjud bo'lib, «1000 yil» ulardan biridir;
 2) Agar biror narsa muhim bo'lsa, Xudo bu haqda Muqaddas Kitobda qayta-qayta ta'kidlaydi;
 3) Biz Muqaddas Kitobda aniq va tiniq bo'lgan narsalarga diqqatimizni qaratishimiz kerak, ya'ni Iso Masih bizning gunohlarimiz uchun o'ldi va o'likdan tirildi. U dunyoning Hukmlovchisi sifatida qaytib keladi va o'shanda Uning yo'lida yurganlar abadiy U bilan birga ajoyib Samoviy Vatanda yashaydilar;
 4) Biz Muqaddas Kitobda dunyoning oxiri haqida aniq va qayta-qayta aytilgan narsalarga qo'shimcha qilishdan ehtiyoj bo'lishimiz kerak;
 5) Shuningdek, biz bilan bir xil fikrda bo'lмаганларни ham sevishimiz kerak!
- 30 – 12 ta qabila.
- 31 – 12 ta.
- 32 – To'liq miqdor yoki to'liqlik — hech biri yo'qolmagan.
- 33 – 12 ta.
- 34 – 12 ta.
- 35 – 12 ta.
- 36 – 144.
- 37 – 144.000.
- 38 – 144.000.
- 39 – Bu raqam imonlilarning to'liq sonining ramzidir. Ya'ni, bizdan ilgari yashagan imonlilar, hozir yashayotgan imonlilar va bizdan keyin yashaydigan imonlilarning barini bildiradi!
- 40 – U buni qattiq quvg'inqlarga uchrayotgan jamoatni rag'batlantirish uchun yozgan.
- 41 – Mukammal yoki to'liq.
- 42 – Yovuzlik.
- 43 – Qisqa vaqt.
- 44 – To'liq miqdor yoki to'liqlik.

38-dars:

Vahiy kitobi (2-qism)



Ushbu darsda Vahiy kitobining birinchi bobidan bitta parchani o'rganamiz.

Vahiy kitobi 1:12–18 ni o'qing.

12–13-oyatlarda yetti shamdon nimani bildiradi? (20-oyatga qarang.) [1]

Yuhanno 8:12 da Iso O'zini qanday atagan? [2]

Nur nima qiladi? [3]

Isroil xalqi cho'lda qayerga borishlari kerakligini qanday bilishgan? (Chiqish kitobi 13:21) [4]

Zabur 26:1 da Xudo qanday tasvirlanadi? [5]

Zabur 118:105 da Xudoning So'zi qanday ta'riflanadi? [6]

Shunday ekan, Iso «Men dunyoning nuriman» deganida, nimani nazarda tutgan edi? [7]

Agar jamoatlar chiroqpoyalar bo'lsa, ularning vazifasi nima? [8]

Vahiy kitobi 1:13 da Iso qayerda? [9]

Bu nima degani? [10]

Iso ustiga nima kiygan edi? [11]

Chiqish kitobi 28:4 da kimlar belbog‘li uzun kiyimlar kiygan? [12]

Uning sochlari haqida nima yozilgan? (**Vahiy kitobi 1:14**) [13]

Oppoq sochlар nimani bildiradi? [14]

Doniyor Kitobi 7:9 da, Doniyor vahiyda Xudoni ko‘rganida, Uning sochlari ham oppoq edi.

Bu Xudo haqida nimani anglatadi? [15]

Vahiy kitobida Uning ko‘zlari haqida nima yozilgan? [16]

Sizningcha, bu nimani anglatadi? [17]

Uning oyoqlari haqida nima yozilgan? (**Vahiy kitobi 1:15**) [18]

Bronza qattiq va yaltiroq metaldir. Ilgari odamlar bronzani silliqlashtirib, ko‘zgu sifatida ishlatganlar. Bronza nimani ifodalaydi? [19]

Doniyor ham vahiyda ko‘zlari yonib turgan, qo‘llari va oyoqlari bronzaga o‘xshagan, insonni vahimaga soluvchi ajoyib bir zotni ko‘rgan edi (Doniyor kitobi 10:6).

Vahiy kitobi 1:15 da Isoning ovozi haqida nima yozilgan? [20]

Sizningcha, bu nima anglatadi? [21]

Bu Hizqiyol kitobi 43:2 da, Hizqiyol ham vahiyda eshitgan ovoz edi.

Isoning o‘ng qo‘lida nima bor? (**Vahiy kitobi 1:16**) [22]

Bu nima degani? (**Vahiy kitobi 1:20** ni o‘qing.) [23]

Iso barcha farishtalar ustidan to‘la hokimiyatga ega!

Farishtalar nima qiladilar? **Ibroniylarga maktub 1:14** ni o‘qing. [24]

Vahiy kitobi 1:16 da Isoning og‘zidan nima chiqqani yozilgan? [25]

Bu nima degani? **Ishayo Kitobi 11:4** o‘qing (Masih haqidagi bashorat). [26]

Uning yuzi haqida nima yozilgan? [27]

Xushxabar kitoblarida Isoning yuzi qachon porlagan? **Matto 17:1–2** ni o‘qing. [28]

Bu nimani ko‘rsatadi? [29]

Iso Yuhannoga nima deydi? (**Vahiy kitobi 1:7**) [30]

Muqaddas Kitobda necha marotaba «qo‘rqma!» deb yozilgan? [31]

Yilning har bir kuni uchun bir marta! Har kuni Xudo bizga qo‘rmasligimiz kerakligini eslatib turishni xohlaydi! Biz faqat Xudodan qo‘rqishimiz kerak!

Iso yana nima dedi? (**Vahiy kitobi 1:17–18**) [32]

Bu nima degani? [33]

Siz Isoni do’stlaringizga qanday ta’riflagan bo’lardingiz?


Isoni ulug’lash uchun bugungi parchadagi so’zlardan foydalaning.

Javoblar

- 1 – Yetti jamoat.
- 2 – Dunyoning nuri.
- 3 – Nur bizga ko‘rishga imkon beradi!
- 4 – Xudo ularning yo‘lini yoritish uchun kunduzi bulut ustuni bilan va kechalari olovli ustun bilan yetaklab bordi.
- 5 – *U mening nurim va mening najotim.*
- 6 – *Qadamlarimga chiroq, yo‘limga nur sochadigan yorug‘likdir.*
- 7 – O‘zining Xudo ekanini aytgan. Faqat Xudo bizga yuraklarimizni va qanday yashashimiz kerakligini ko‘rsatishi mumkin.
- 8 – Isoning nurini jamoat orqali jamiyatimizga ko‘rsatish! Insonlar biz orqali Isoning sevgisi va yaxshiligini ko‘rsin!
- 9 – Chiroqpoyalar orasida.
- 10 – Iso biz bilan — U bizni tark etgani yo‘q!
- 11 – Uning ko‘ksiga oltin tasma bog‘langan, uzun libos kiygan edi.
- 12 – Oliy ruhoniy Horun shunday kiyimlar kiygan.
- 13 – Uning boshidagi sochlari jundek yoki qordek oppoq edi.
- 14 – Bu biror kishining donolikka ega ekanligini anglatadi — shuning uchun O‘rta Osiyoda keksalarni «oqsoqollar» deb atashadi!
- 15 – Xudo mukammal donolikka ega.
- 16 – Uning ko‘zлari lovillab yonayotgan olovga o‘xshaydi.
- 17 – Xudo hamma narsani biladi. Biz Xudodan hech narsani yashira olmaymiz!
- 18 – Uning oyoqlari o‘choqda qizdirilgan misday yaltiroq.
- 19 – Shon-shuhrat, mustahkamlik va xavfsizlik.
- 20 – Bu ulkan suvlarning shov-shuviga o‘xshardi.
- 21 – Iso kuch va hokimiyat bilan gapirar edi.
- 22 – Yetti yulduz.
- 23 – Bular yetti jamoatning xabarchilari yoki farishtalari edi.
- 24 – Biz farishtalarni ko‘rmasak ham, ular bizga har doim yordam beradilar!
- 25 – Dudama qilich.
- 26 – Iso butun dunyoni hukm qiladi!
- 27 – Uning yuzi yorqin nur sochayotgan quyoshga o‘xshar edi.
- 28 – Iso O‘zi bilan Butrus, Yoqub va Yuhannoni toqqa olib chiqqanida, ularning ko‘zi oldida o‘zgarib ketdi.
- 29 – Bu Isoning ulug‘ligini ko‘rsatadi.
- 30 – Qo‘rqma!
- 31 – 365 marta.
- 32 – *Men Birinchi va Oxirgiman, Men tirikman. Men o‘lgan edim, lekin mana abadul-abad tirikman! O‘lim va do‘zaxning ochqichlari Mendadir!*
- 33 – Iso barhayotdir. U O‘z jonini bizlar uchun qurban qildi va qayta tirildi. Shu yo‘l bilan Masih o‘limni yengdi! Shunday ekan, U bizning bugunimizni va boqiy kelajagimizni hal qilishga qodir.

39-dars:

Samoviy Vatanimiz



Xudo O'z va'dalarini bajaradi!

Ibtido kitobi 12:1–7 da Xudo Ibrohimga qanday va'dalar bergan edi? [1]

Xudo Ibrohimga bergan va'dalarini qachon to'liq amalga oshiradi? [2]

Xudo va'da qilgan xalq, yer (yurt) va qut-barakalar aslida qanaqa bo'ladi?

Kimlar Samoviy Vatanning **xalqi** bo'ladi? Kimlar Xudo bilan abadiy yashaydi? **Vahiy kitobi 7:9** ni o'qing. [3]

Va'da qilingan **yer** qanday bo'ladi? **Vahiy kitobi 22:1–5** ni o'qing. [4]

Xudo bizga qanday **qut-baraka** beradi? **Vahiy kitobi 21:3** ni o'qing. [5]

Keling, bu uchta narsani yaxshiroq tushunish uchun, **Vahiy Kitobi 21:1–8** ni o'qib chiqaylik.

Yangi yer

Ibtido kitobi 3:17–18 da Odam Ato va Momo Havo gunoh qilganlarida, yerga nima bo'ldi? [6]

Vahiy kitobi 21:1: Hozirgi yero osmonga nima bo'ladi? [7]



Vahiy kitobi 21:5 Xudo nimani yangi qilib yaratadi? [8]

Xudo O'z xalqiga yangi uy va'da qilgan. Bu uy va'da qilingan yerdan ham, Adan bog'idan ham ancha yaxshiroq bo'ladi! Bizning yangi uyimizga hech kim shikast yetkaza olmaydi. Shayton yoki Xudoga dushman hech bir zot u yerda bo'lmaydi.

Korinfliklarga 1-maktub 15:42–44 ni o'qing. Bizning tanalarimiz qanday bo'ladi? [9]

Xudo bizga kasallikkardan va gunohlardan butunlay xoli, mukammal tanalar berib, bizni barkamol qiladi!

Xalq

Vahiy kitobi 21:2 ni o'qing. Qanday 3 ta ibora jamoatni tasvirlaydi? [10]



Bu iboralar bizga nimani o'rgatadi?

- **Muqaddas shahar** — Hech bir yomon odam bo'lмаган va bir-biriga nisbatan xafagarchiligi bo'lмаган odamlar jamiyatini tasavvur qila olasizmi?
- **Yangi Quddus** — eng ajoyib shaharni ifodalaydi! Hamma narsa yangi va hech qachon eskirmaydi!

Hech qanday kir, axlat, tashlandiq uylar, buzilgan yo'laklar, tilanchilar, sizni aldaydigan reklamalar bo'lмаган shahar!

Hamma narsa chiroyli, yangi, toza, tinch va yaxshi ishlaydi!

Har safar bu dunyoda nimadir bizni bezovta qilganida, Xudo bu dunyo bizning haqiqiy uyimiz emasligini eslatishni xohlaydi. U biz uchun yaxshiroq makonni tayyorlamoqda!

- **Kuyovi uchun bezanib olgan kelinchak** — imonlilar judayam chiroyli va sevgiga to'la odamlar ekanini bildiradi!

Qanday qilib Iso bizni chiroyli qiladi? **Efesliklarga maktub 5:25–27** ni o'qing. [11]

Va, albatta, Muqaddas Ruh hayotimizda ishlab, bizni Isoga ko'proq o'xshash qilib o'zgartirib boradi.

Yuqoridaq ta'riflar jamoat Xudoning nazarida qanchalik qadrli ekanini tushunishimizga yordam beradi. Shunday ekan, bir-birimizga qadrli aka-uka va opa-singillardek munosabatda bo'laylik. Jamoatning har bir a'zosi qiymatlidir!

Borgan sari Isoga o'xshashimiz uchun, Xudo har birimizda ishlaromoqda. Lekin Yangi Quddusga yetib borgunimizga qadar bir-birimizga nisbatan sabrli va kechirimli bo'lishimiz kerak! Samoviy Vatanimizga yetib olish yo'lida, bir-birimizga yordam berish uchun, qo'limizdan kelgan hamma narsani qilishimiz lozim!

Qut-baraka



Vahiy kitobi 21:3: ni o'qing. Xudo qayerda? [12]

Biz yangi uyimizda nafaqat yangi insonlar bo'lamiz, balki Xudo bilan yangicha do'stlikka ham ega bo'lamiz!

Agar Isoga ishonsak, demak, hozirdanoq Xudo bilan do'stmiz! Lekin Samodagi Vatanimizda bu do'stlik yanada mustahkamroq bo'ladi! Naqadar ajoyib!

Vahiy kitobi 21:4 ni o'qing. Xudo bizga nima qiladi? [13]

Yangi Quddusda nima bo'lmaydi? [14]

Ishayo kitobi 35:10 ni o'qing. Yangi Quddusda odamlar o'zlarini qanday his qiladilar? [15]

Vahiy kitobi 21:6 ni o'qing. Iso O'zini qanday tasvirlaydi? [16]

Buning ma'nosi nima? [17]

Iso bizga nima beradi? [18]

Iso kimlarga hayot suvidan beradi? [19]

«Changagan» so'zi qanday ma'noda ishlatilgan? [20]

Hayot suvidan ichish nimani bildiradi? **Yuhanno 7:37–39** ni o'qing, [21]

Siz har kuni hayot suvidan ichasizmi?

Bugungi kun bilan oxirzamon orasi

Vahiy kitobi 21:7 ni o'qing. «G'olib kelganlar» nima degani? [22]

Qachon Isoga ergashish qiyin? [23]

Bizning mukofotimiz qanday bo'ladi? [24]

Yangi uyimizga kirganimizda, hammasi tasavvur qilganimizdan ham yaxshiroq bo'ladi!

Vahiy kitobi 21:8 ni o'qing. Yomon odamlarning bariga nima bo'ladi? [25]

Chaqiriq

Bu oyat boshqa yomon odamlar haqida gapiryapti, men bilan hech aloqasi yo'q, deb o'ylash oson. Lekin...



- Men Isoga ergashishdan qo'rqamanmi?
- Unga hech xiyonat qilamanmi?
- Axloqsizlik qilamanmi (hatto fikrlarimda ham — Matto 5:27–29)?
- Qotillik qilamanmi (hatto fikrlarimda ham — Matto 5:21–22)?
- Butlarga sajda qilamanmi? Biron narsani yoki insonni Xudodan ko'ra ko'proq sevsak, u biz uchun but bo'lib qoladi.

Qonunlar kitobi 6:5 ni o'qing. Xudoni qanchalik sevishimiz kerak? [26]

Xudo bizdan Uni dunyodagi hamma narsadan ko'ra ko'proq sevishimizni xohlaydi! Biroq Samoviy Vatanimizga borgunimizga qadar hammamiz Unga pand beramiz.

Xudo bizga gunohimizni ko'rsatganida, nima qilishimiz kerak? [27]

U hamisha bizni kechirishga tayyor!

Xudo sizni Isoga o'xshash qilib o'zgartirib borishiga yo'l qo'yasizmi?

Samoviy Vatanimiz haqida bugun nimalarni bilib oldik? [28]

Xudo bizni O'zining go'zal kelini bo'lishimiz uchun yaratdi. Keling, biz ham o'sha go'zal kelin bo'lish uchun bor kuchimiz bilan harakat qilaylik.

Javoblar

- 1 – Xalq, yer (yurt) va qut-baraka.
- 2 – Muqaddas Kitobda Xudo bu va'ddalarni qanday bajara boshlaganini ko'ramiz. Ammo U bu va'ddalarni faqat Yangi Quddus deb ataladigan Samoviy Vatanda to'la amalga oshiradi.
- 3 – Xudoning xalqi har bir urug'dan, har bir qabiladan, har bir xalqdan va har bir tildan bo'ladi!
- 4 – U ajoyib yer bo'ladi: u yerda ochlik ham, gunoh ham, kasalliklar ham, o'lim ham, qorong'ilik ham, muammolar ham, qo'rquv sochadigan narsalar ham bo'lmaydi.
- 5 – Xudo bizni tasavvur qilganimizdan ham ko'proq marhamatlaydi! Borliqning Yaratuvchisi, mehribon, rahmdil, sevuvchi Xudoning O'zi biz bilan birga yashaydi.
- 6 – Xudo yerni la'natladi. Bizning dunyomiz gunohga botib buzilgan.
- 7 – Ular tez orada yo'q bo'ladi.
- 8 – Hamma narsani!
- 9 – O'lmaydigan, ulug'ver, kuchli va ruhiy!
- 10 – Muqaddas shahar, Yangi Quddus, kuyovi uchun bezangan kelin.
- 11 – Gunohlarimizni anglab yetishimiz va Undan bizni o'zgartir deb, yordam so'rashimiz uchun U bizga O'z So'zi orqali gapiradi.
- 12 – O'z xalqi orasida!
- 13 – Ko'zimizdag'i har bir yoshni artib oladi. Barcha dardlarimizni tushunadi. O'zi bizni yupatadi.
- 14 – Endi o'lim ham, qayg'u ham, faryod ham, og'riq ham bo'lmaydi.
- 15 – Tasavvur qilganimizdan ham ko'proq baxtiyor bo'ladi!
- 16 – Ibtido va Intiho (asl: yunoncha «Alfa va Omega», Birinchi va Oxirgi).
- 17 – Alfa va Omega yunon (grek) alifbosidagi birinchi va oxirgi harflar bo'lib, bu yerda «Boshi va Oxiri» ma'nosida ishlatalilgan. (Yangi Ahdning asl nusxalari yunon tilida yozilgandir.) Bu iboraning ma'nosi: Iso dunyo yaratilishidan oldin ham, eng boshidan beri bor bo'lgan, va dunyoning oxirida ham qaytib keladi.
- 18 – Hayot suvini.
- 19 – Chanqab qiynalayotganlarga.
- 20 – Xudoga qanchalik muhtoj ekanimizni bilishni anglatadi. Xudosiz o'lishimizni anglab yetamiz.
- 21 – Isodan bizni O'z Muqaddas Ruhiga cho'mdirishini so'rashni bildiradi!
- 22 – Hech narsaga qaramasdan, Isoga ergashgan odam. Ular oxirigacha sodiq qoladilar.
- 23 – Odamlar bizga imonimiz tufayli yomon munosabatda bo'lganlarida;
Bizni quvg'in qilishganlarida;
Bu hayotda hech ishimiz yurishmaganida, hech narsa kutganimizday ketmayapti deb his qilganimizda.
- 24 – Hamma narsani meros qilib olib, Xudoning farzandlari bo'lamiz! Hamisha Xudoga tegishli bo'lamiz!
- 25 – Ularning bari olov va oltingugurt yonayotgan ko'lga tashlanadi.
- 26 – Butun qalbingiz bilan, jonusi dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan.
- 27 – Tavba qilib, Isodan yuragimizni o'zgartirishini so'rashimiz lozim.
- 28 – Iso kelganida, Xudoning Ibrohimga bergen va'dalari to'liq amalga oshadi.
Biz mukammal tanada, yangi uyda, Xudo bilan yangicha do'stlikka ega bo'lgan yangi insonlar bo'lamiz!
Iso bizga u yerga borishimiz uchun kerak bo'lgan hamma narsani beradi.
Biz oxirigacha Unga sodiq bo'lishimiz kerak.

40-dars:

8 ta rasmda Muqaddas Kitobdagi tarixiy hikoyalar

Ushbu kursda o‘rganganlarimizni takrorlash uchun, Muqaddas Kitobning ulkan hikoyasidagi asosiy nuqtalarni tushunishimizga yordam beruvchi quyidagi rasmlarga yana bir bor qarab chiqamiz.



Avvalo, ilk rasm haqida o‘qiyimiz. Keyin, guruhdan bir kishi o‘qimasdan, o’sha ma’lumotni takrorlab aytib beradi. Keyin esa, ikkinchi rasm haqida o‘qiyimiz va yana kimdir uni ham takror aytib beradi. Shu tarzda oxirgi rasmsgacha davom etamiz. Oxirigacha borgandan keyin, yana ketma-ket, lekin bu safar o‘qimasdan, 8 ta rasm haqida takrorlab aytib beramiz. So‘nggi marta 8 ta rasmning hammasini birgalikda hikoya qilib berayotganingizda esa, o‘rgangan darslarimizdan o‘zingizga yoqqan boshqa tafsilotlarni ham qo’shib aytib berishingiz mumkin.



1. Yaratilish

Xudovand hamma narsani yaxshi qilib yaratdi. U dastlabki odamlar bilan, ya’ni Odam Ato va Momo Havo bilan Adan bog‘i deb atalgan go’zal bog‘da vaqt o’tkazar edi.



2. Gunohning paydo bo‘lishi

Odam Ato va Momo Havo Xudoga itoat qilmay, shaytonning gapiga kirdilar. Shunday qilib, ular Xudoning marhamatidan va abadiy hayotdan mahrum bo‘ldilar.

Rasmdagi ko‘rsatkich (strelka) Xudo ularni O‘z huzuridan va Adan bog‘idan haydab yuborganini ko‘rsatadi.

O’sha paytdan beri odamlar Xudo bilan qayta muloqotda bo‘lishni va yana Uning huzuriga kirishni orzu qiladilar.



3. Va'dalar

Xudo Ibrohimga va'da berib, uni O'zi uchun tanlaydigan **xalq**ning otasi qilishini aytди. Xudo Ibrohimga o'sha xalq uchun (O'zi ularning orasida ular bilan birga bo'lish uchun) bir **yurt** va'da qildi. Xudo yana Ibrohimga barcha xalqlarni u orqali **barakalashini** va'da berdi.

Rasmdagi toj Xudoning O'zi ularning yaxshi Shohi bo'lishini ifodalaydi.

Kamalak esa Xudo O'z va'dalariga sodiq ekanini bildiradi (Ibtido 9:13–16). Xudoga har doim ishonish mumkin!



4. Chiqish

Xudoning xalqi begona yurtga — Misrga ketdilar va u yerda qul bo'ldilar. (Piramidalar Misrni ifodalaydi.)

Ko'rsatkich belgisi (strelka) Xudo O'z xalqini Misr qulligidan xalos qilganini anglatadi.



5. O'lka

Xudo O'z xalqini va'da qilingan yurtga olib keldi. Ular o'sha yurtda yashaydigan o'ta yovuz kan'onliklarni mag'lub etdilar.

Xudo O'z xalqini barakaladi. Lekin ular begona xudolarga sig'inib ketdilar. Xudo ularni ko'p marotaba ogohlantirdi va oxiri boshqa yurtga surgun qildi. Keyin Xudo ularni va'da qilingan yurtga qaytarib olib keldi, lekin ular haliyam Xudoning qonunlariga bo'ysunmay, gunoh qilishda davom etaverdilar.

Ularni gunohlaridan xalos qiladigan Qutqaruvchi kerak edi. Ularni to'g'ri boshqaradigan Shoh kerak edi. Xudo vaqt-soati kelganda o'sha zotni, ya'ni Masihni yuborishni va'da qildi.



6. Iso Masih

Xudo O'z va'dasini bajardi! U bu dunyoga Qutqaruvchi bo'lib keldi. Iso ismi «Xudo qutqaradi» degan ma'noni bildiradi. Iso Xudoning Masihi edi. U mukammal isroillik sifatida, Xudo bilan mukammal munosabatda yashadi va xochda o'ldi. Uning o'limi Xudo bizni kechira olishi uchun gunohlarimiz evaziga berilgan komil qurbanlik bo'ldi.

Uning tirilishi esa gunoh, o'lim va shayton ustidan qilgan g'alabasini ko'rsatdi!

Endi odamlar Xudo bilan yana do'st bo'lishlari mumkin!



7. Isoning qaytib kelishi

Iso hozir samoda.

Ko'rsatkich belgisi Isoning dunyoga yakun keltirish va barchani qilmishiga yarasha hukm qilish uchun qaytib kelishini bildiradi. Xudo Iso orqali barcha odamlarni hukm qiladi.



8. Samoviy Vatan

Podshohimiz Iso O'z xalqini uyiga olib boradi. Biz Xudo bilan birga yangi, boqiy, va'da qilingan Vatanda yashaymiz! Endi hech qachon gunoh, dard va o'lim bo'lmaydi!

Iso shaytonni do'zaxga yuboradi.

Xudoning xalqi esa Samoviy Vatanda Xudo bilan birga abadiy hayotdan bahramand bo'ladi!

Bu hafta mana shu rasmlar haqida kimga aytib berishingiz mumkin?

Xudoning ulkan hikoyasini bilish bugungi kunda sizni qanday ruhlantirmoqda?

Mundarija

1-dars:	Muqaddas Kalomdagi kitoblar	5
2-dars:	Azalda	11
3-dars:	Gunoh	16
4-dars:	Xudo yovuzlikni hukm qiladi	21
5-dars:	Ibrohimga berilgan va'dalar	25
6-dars:	Xudoning va'dalari Ibrohimning avlodlariga o'tadi	29
7-dars:	Qutqaruvchi Xudo	36
8-dars:	Xudo qurbanlik orqali qutqaradi	41
9-dars:	Dengizni kesib o'tish	45
10-dars:	Qurbanliklar	49
11-dars:	O'nta amr	53
12-dars:	Muqaddas chodir	60
13-dars:	Cho'lдаги hayot	64
14-dars:	8 ta rasmda Muqaddas Kitobdagi tarixiy hikoyalar	68
15-dars:	Yoshua	70
16-dars:	Hakamlar	75
17-dars:	Shohlar	82
18-dars:	Dovud — eng buyuk shoh	88
19-dars:	Hikmat kitoblari: Ayub	94

20-dars: Hikmat kitoblari: Zabur	98
21-dars: 90-Zabur	102
22-dars: Hikmat kitoblari: Sulaymonning hikmatlari, Voiz va Sulaymonning go'zal qo'shig'i	107
23-dars: Isroilning va Yahudoning payg'ambarlari	112
24-dars: Ishayo payg'ambar	118
25-dars: Naximiyo	122
26-dars: 8 ta rasmda Muqaddas Kitobdag'i tarixiy hikoyalar.	127
27-dars: Xudo bu dunyoga Inson qiyofasida keldi	130
28-dars: Masih	133
29-dars: Dahshatli fojiami yoki Xudoning rejasi amalga oshdimi?	138
30-dars: Isoning qayta tirilishi va osmonga ko'tarilishi	142
31-dars: Muqaddas Ruh	147
32-dars: Jamoat	152
33-dars: Xushxabarni boshqalarga aytish.....	158
34-dars: Yangi Ahd maktublari.....	162
35-dars: Salonikaliklarga 1-maktub.....	167
36-dars: Isoning qaytib kelishi va Hukm Kuni	171
37-dars: Vahiy kitobi (1-qism)	177
38-dars: Vahiy kitobi (2-qism).....	185
39-dars: Samoviy Vatanimiz	189
40-dars: 8 ta rasmda Muqaddas Kitobdag'i tarixiy hikoyalar.	194

Ushbu 40 darsdan iborat kurs bizni Muqaddas Kitob hikoyalari bo'ylab sayohatga olib chiqadi va undagi har bir qism qanday qilib Iso Masihga ishora qilishini ko'rishimizga yordam beradi. Butun kurs davomida O'rta Osiyo madaniyatimiz bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Har bir darsda ko'pgina savollar o'rin olgan bo'lib, javoblarini darslarning oxirida topishingiz mumkin. Ushbu kursdan Muqaddas Kitobning barcha darajasidagi bilimiga ega bol'gan masihiyilar foydalanishlari mumkin. Kursning maqsadi barcha masihiytlarga Xudoning Kalomini o'qishni va sevishni o'rganishlariga yordam berishdir.